части населения развивающихся стран, существует высокая вероятность того, что домохозяйства войдут в долги (катастрофические расходы) и цикл бедности. Дополнительное финансовое бремя для домашних хозяйств накладывается инфляторами цен (увеличение цен) и фрагментированными и неэффективными системами закупок. Лекарственные средства в частном секторе значительно дороже, и в них преобладают оригинальные препараты.

В целях повышения качества, эффективности и общедоступности оказания медицинской помощи населению, расширения масштаба первичной медико-санитарной помощи, поэтапного внедрения системы медицинского страхования в данную сферу, создания современной конкурентной среды на рынке медицинских услуг, расширения на данной основе возможности получения населением гарантированной и качественной медицинской помощи президент Республики Узбекистан Мирзиёев Шавкат Миромонович согласился с предложением Министерства здравоохранения о реализации на основе рекомендаций Всемирной организации здравоохранения пилотного проекта по внедрению новой модели организации системы здравоохранения и механизмов государственного медицинского страхования в Сырдарьинской области .

В рамках пилотного проекта в учреждениях первичной медико-санитарной помощи создаются медицинские бригады, состоящие из семейного врача, средних медицинских работников, оказывающих ему помощь в направлениях терапия и педиатрия, а также патронажных медицинских сестер и акушеров; на уровне каждого медицинского учреждения разрабатывается пакет бесплатных медицинских услуг и лекарственных средств, гарантированный государством (далее — гарантированный пакет); гарантированный пакет предоставляется учреждениями первичной медико-санитарной помощи и больницами гражданам Республики Узбекистан, иностранным гражданам и лицам без гражданства, постоянно проживающим в Республике Узбекистан. При этом семейный врач выдает направления к врачам узкого профиля и при необходимости в больницы

районного, областного и республиканского уровня в соответствии с объемом медицинских услуг и клиническими протоколами по видам каждого учреждения. Направления в больницы республиканского уровня утверждаются областным управлением здравоохранения.

Также в случаях не соблюдения данного порядка медицинские услуги, не включенные в гарантированный пакет, оказываются на платной основе. Ведение мониторинга показателей, связанных со здоровьем населения, закрепление его за медицинскими учреждениями, ведение истории болезни, выдача рецепта для лекарственных средств и направление в медицинские учреждения в соответствии с гарантированным пакетом осуществляются посредством единой электронной платформы. Разрабатываются важнейшие показатели эффективности медицинских работников учреждений первичной медико-санитарной помощи, ведется мониторинг их достижения с осуществлением им дополнительных поощрительных выплат по результатам. На основе гарантированного пакета поэтапно внедряются механизмы государственного медицинского страхования, направленные на финансирование оказания качественной и полноценной медицинской помощи всем слоям населения. [3]

Таким образом, анализ показывает, что для решения вопросов, связанных с оптимизацией расходов на лекарственное обеспечение, страны должны иметь собственную, иногда альтернативную стратегию финансирования на месте. Затраты на медикаменты составляют 20-30% от глобальных затрат на здравоохранение. В странах с низким и средним доходом эта доля несколько выше, что составляет большую часть расходов того, кто оплачивает услуги здравоохранения. Однако во всех странах существует возможность достичь большего при лучшем использовании существующих ресурсов. Нередко используются дорогостоящие лекарства, когда имеются более дешевые, равные по эффективности альтернативные лекарственные средства. Во многих случаях имеет место злоупотребление антибиотиками и инъекциями, их неправильное

хранение и потеря, существуют большие различия в ценах, уровень которых определяется договором между снабженческими организациями и поставщиками. Снижение излишних затрат на лекарства, их использование надлежащим образом и улучшение контроля качества могут сэкономить государству до 5% расходов на здравоохранение [4]

ЛИТЕРАТУРА:

1. Pharmaceutical Financing Strategies. (MDS-3: Managing Access to Medicines and Health Technologies, Chapter 11), (2012; 18 pages). URL: <http://apps.who.int/medicinedocs/documents/s19587en/s19587en.pdf>. Дата обращения: 25.10.2017.
2. Доклад о состоянии здравоохранения в мире: Финансирование систем здравоохранения: Путь к всеобщему охвату населения медико-санитарной помощью; Всемирная организация здравоохранения, 2010 г. URL: http://www.who.int/whr/2010/whr10_ru. Дата обращения: 25.10.2017
3. Постановление Президента Республики Узбекистан от 12 ноября 2020 года № ПП-4890
4. Lu Y. s soavt. Medicine expenditures. In: The world medicines situation. Geneva, World Health Organization. 2010. URL: <http://dosei.who.int/>. Accessed: 25.10.2017.

**УЗУМЗОРЛАР ВА МЕВАЛИ БОҒЛАРГА КИМЁВИЙ ИШЛОВ
БЕРАДИГАН ПУРКАГИЧНИНГ ТУЗИЛИШИ ВА ТЕХНОЛОГИК
ИШ ЖАРАЁНИ**

Ғайбуллаев Бурхонжон Шерматжонович

PhD, катта илмий ходим (ҚХМИТИ)

Қурбанбоев Иззатбек Ҳамроевич

Магистрант (ТДТУ)

Бутун дунёда ўсимликларни зараркунандалар ва касалликлардан ўз вақтида ҳимоя қилишнинг ресурстежамкор технологиялари ва уларни амалга оширадиган техника воситаларининг янги илмий-техникавий асосларини ишлаб чиқишга йўналтирилган илмий-тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Бу йўналишда узумзорлар ва мевали боғларга кимёвий ишлов берадиган курилмаларнинг конструктив схемаларини ишлаб чиқиш ва технологик иш жараёнини асослаш, ресурстежамкорликни таъминлаш бўйича мақсадли илмий изланишларни амалга ошириш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Республикамиз қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришида меҳнат ва энергия сарфини камайтириш, ресурсларни тежаш, қишлоқ хўжалик экинларини илғор технологиялар асосида етиштириш ва юқори унумли қишлоқ хўжалик машиналарини ишлаб чиқиш юзасидан кенг қамровли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Бу борада, жумладан узумзорлар ва мевали боғларга кимёвий ишлов беришда кам энергия сарфлаб, технологик жараёнларни сифатли бажарилишини таъминлайдиган техника воситаларини ишлаб чиқишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида, жумладан «... 2030 йилга қадар ялпи ички маҳсулот ҳажмини икки баробардан зиёд кўпайтириш, ... 2017-2020 йилларга

мўлжалланган экин майдонларини оптималлаштириш, ер ва сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш, замонавий интенсив агротехнологияларни жорий этиш, иш унуми юқори бўлган қишлоқ хўжалиги техникаларидан кенг фойдаланиш»[1] вазифалари белгилаб берилган. Ушбу вазифаларни бажаришда, жумладан боғларга кимёвий ишлов берадиган машина ва қурилмаларни техник ва технологик жиҳатдан модернизациялаш ҳисобига узумзорлар ва мевали боғлардан юқори ҳосил олиш ва уларнинг таннархини пасайтириш муҳим масалалардан бири ҳисобланади.


Узумзорлар ва мевали боғларга кимёвий ишлов берадиган пуркагичларнинг конструкцияси ва технологик иш жараёни, уларни яратиш бўйича ўтказилган илмий-тадқиқотлар ишларининг таҳлили асосида ва узумзор ҳамда мевали дарахтларнинг агротехникасини эътиборга олган ҳолда такомиллаштирилган пуркагич ишлаб чиқилди.

Ушбу пуркагичнинг ўзига хос хусусиятларидан бири, бу унинг асосий ишчи қисмларидан бири бўлган марказдан қочма вентилятори ҳаво оқимини кириш дарчасидан суриб икки ён томонга йўналтиришидир. Бу эса пуркагични бир ўтишда боғ оралиғининг икки томонига ишлов беришни таъминлайди. Бунинг учун вентилятор ғилдираги ва кожухининг параметрлари ўзгартирилди. Ундан ташқари, ушбу пуркагич универсал бўлиб алмаштириб ўрнатиладиган ишчи қисмлар билан жиҳозланади. Бу эса ўз навбатида универсал пуркагич билан баланд танали дарахтлар, плантация қилиб экилган боғлар ва ёппасига экилган экинларга ишлов бериш имконини яратади.

Иш жараёнида пуркагич боғ оралиғининг икки томонига ишлов бериши натижасида унинг иш жараёнининг сифат кўрсаткичлари яхшиланади, иш унуми ошади ва пуркаладиган кимёвий препаратнинг самарадорлигини агротехник талабларга жавоб бериши таъминланади.

Узумзорлар ва мевали боғларга кимёвий ишлов берадиган универсал пуркагич қуйидаги қисм ва механизмлардан иборат (1-расм): сиғим 1,

букулувчан шланг 2, дағал фильтрлар 3 ва 4, насос 5, босим остидаги улашиш шланги 6, босимни ростлаш қурилмаси 7, майин фильтрлар 8 ва 9, штуцерлар 10, 12 ва 15, улашиш шланглари 11 ва 16, ортиқча суюқликни сиғимга юбориш шланги 13, тақсимлагич 14, распилител 17, тутқич 18,



1 -расм. Пуркагичнинг принципиал схемаси

вентилятор кожухи 19, пуркагич ишчи қисми 20 ҳамда ҳаракат узатувчи механизмлар.

Универсал осма пуркагич вентилятор кожухининг икки ён ҳаво чиқиш дарчаларига плантация қилиб экилган мевали ва мевасиз боғларга ишлов берадиган ишчи қисмлар ўрнатилган. Бу ишчи қисмлар билан баландлиги 3 m гача бўлган қатор қилиб экилган (узумзор, олма, анор, анжир ва бошқа) боғларга кимёвий ишлов берилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ги Фармони.

2. Догода, П.А. Анализ режимов работы системы привода вентилятора опрыскивателя в зависимости от фазы вегетации винограда / П.А. Догода, Е.М.Серая // Праці Таврійської державної агротехнічної академії. – Мелітополь.2006

3.Козарь, И.М. Справочник по защите винограда от болезней, вредителей и сорняков / И.М. Козарь. – К.: Урожай. 1990.

4. Букэтару, П.И. Возделывание винограда / Петр Иванович Букэтару. Кишинев : Штиинца, 1991.

5. Қишлоқ хўжалик машиналарини лойиҳалаш. А.Ҳамидов Тошкент “Ўқитувчи” 1991.

Ҳар бир масала матнининг кенгайтирилган мазмуни

	Диссертация номи	Узумзорлар ва мевали боғларга кимёвий ишлов берувчи пуркагичнинг параметрларини асослаш.
	Вазифанинг келиб чиқиш тарихи, нима учун ва кимлар бу вазифани олдин бажарган	Россия олимлари Л.М. Хажметов, Ю.А.Шекихачев, В.Н.Бербеков, Х.Л.Губжоков, Д.Х.Унежев, Р.Р.Бекалдиев тадқиқотлари штангали боғ пуркагичларини (ОНМ-600, СУМО-24 ва бошқалар) ишлаб чиқиш, уларни синаш ҳамда қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришига жорий этишга бағишланган.
Долзарбл	Олдинги вазифаларнинг камчилиги	Пуркагичнинг асосий камчилиги тиркама бўлгани учун қатор орлиғида паст тезликда юриши ва қаторлар охиридаги қайрилишларда муаммолар

		бўлганлиги учун, уларнинг иш унуми пасайиб кетган.
	Берилган ишдаги мақсад	Ўтказилган илмий-тадқиқотлар ишларининг таҳлили асосида ва узумзор ҳамда мевали дарахтларнинг агротехникасини эътиборга олган ҳолда такомиллаштирилган пуркагич ишлаб чиқиш.
Ечим методи	Бу вазифани қандай ечимини усулублари мавжуд бўлган	Математик моделлаш усуби
	Танланган методни номи ва афзаллиги	ЕХМ да ишлаш қулайлиги ва ҳисоблаш юқорилиги.
	Услубни такомиллаштиришдаги муаллифнинг иштироки	Барча ишлаш аниқлиги тузилган қурилманинг ишчи ҳисобини ечиш.
Ечим ҳажми	Текстлар, графиклар, таблицалар ва тенгламаларни сони ва бетлари	Мақола: 3 бет 1 та график
Иш	Хулоса ва янгилиги тўғрисидаги хулоса	ишчи қисмларидан бири бўлган марказдан қочма вентиляторни ҳаво оқимини кириш дарчасидан суриб икки ён томонга йўналтиришидир.

Хулоса бўйича таклифи	Ушбу пуркагични универсал қилиб алмаштириб ўрнатиладиган ишчи қисмлар билан жиҳозлаш.
Хулоса ва тавсиялар қаерда Фойдаланилади ва фойдаланишгатавсия етилади	Пуркагични боғ оралиғининг икки томонига бир ўтишда ишлатиш.

TIL ODOBI, IMLO SAVODXONLIGI - MA'NAVIYAT VA MADANIYAT KÒZGUSI

Yangiyeva Gulnora Farmonovna

Buxoro shahar 16-maktab o'qituvchisi

Yangiyeva Laylo Farmonovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 33- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Kirish. Til bayroq va tuğ kabi mustaqil davlatning ramzidir, tilning ravnaqi davlat rivoji hamda uning istiqboli bilan chambarchas bog'liqdir. Ming shukrki, bugun yurt ozod, Vatanimiz mustaqil. Oldimizda hech qanday ğayriilmiy cheklovu majburiyatlar yòq. Birinchi prezidentimiz tashabbusi va xalqimiz xohishi bilan qabul qilingan Davlat tili haqidagi qonun ham amalda.

Asosiy qism. Til millatlarning tengi yòq boyligi, madaniyat va ma'naviyat kòzgusidir. Millat mavjud ekan, uning òziga xos milliy tili bor. Kishi òz fikrini ona tilida, òz sòzlari bilan bayon qiladi. Inson kalomi, uning donoligi, aql- zakovati yoxud aqli tanqisligi, fikran qashshoqligi, qalbi nopokligi - dilda borini namoyon etadi. Ulug' mutafakkir Nosir Xusrav aytganidek:

Sòzdir inson aqlin dalili

Siri ochilur, sòzlagach tili.

Dono xalqimiz tilga, oğizdan chiqadigan har bir sòz va iboraga e'tibor berishga, avval obdon òylab, keyin ehtiyotkorlik bilan sòzlashga da'vat etadi. Shu jihatdan Hofiz Sherozning " Aql- u idrok- u adolat birla sòz ayt doimo, barcha ma'no bòlsa jam, sòng et bayon nomuddat", - purma'no sòzlari ğoyat ibratlidir.

Ammo bugungi kunda kundalik hayotimizda muomala madaniyatiga, tilimiz sofligiga, imlo savodxonligiga hamma ham tòliq rioya qilyaptimi? Afsuski, bu savolga ko'pchilikdan, ijobiy javob ololmaymiz. Buning tub sabablari biri- maktab ta'limi, oliy ta'lim bilan bog'liq muhim masalalarga borib taqaladi.

Maktabda esa barcha fanlar asoslari ona tilida egallab boriladi. Imlo savodxonlik esa kòproq ona tili fani bilan boğliq bòlib, ma'suliyat shu fan òqituvchilari zimmasiga tushadi. Tògri, ona tili darslarida mashqlar bajarish asnosida imloga katta e'tibor beriladi, daftar tekshirish jarayonida imloviy xatolar tushuntiriladi, bugun xato yozgan sòzini òquvchi keyingi darsda takrorlamasligi kerak, tekshirishdan maqsad ham shu, ammo qilgan xatosini ona tili òqituvchi tuzatdi, shu xatosi tarixdan yozgan nazorat ishisida bor edi, òqituvchi e'tiborsiz òtib ketdi, qarangki òquvchida ikkilanish paydo bòladi, natijada imlo savodsizlik boshlanadi, doskada òqituvchi ba'zi sòzni xato yozadi, òquvchida esa yana ikkilanish..., qarangki bunday holatlar, afsuski bugun ham uchrab turibdi.

Talabalikka qabul qilingan 1988- yilni eslasam, insho yozib imtihondan òtdik, shunga qaramay, talabalikning ilk kunida tilshunos olim, rahmatli ustoz Mustaqim Mirzayev (òzlari kelolmay qolganlar), diktant matnini uzatib, diktant yozdirtirib, òzlari tekshirib, qip- qizil qilib juda past baho qòyganlari hali kechagiday kòz òngimda. Mana tilga, imloga e'tibor, harfiy birikmada xatolik bòlsa ham kechirmas edilar. Bugunchi? Ta'lim beruvchi pedagog imlo xato qilyapti, òquvchini aldayapti, gazeta - jurnal òqimaydi, luğat boyligi yòq, sòzlarni buzib talaffuz qiladi, takror sòzlarni nutqida juda kòp ishlatadi, adabiy til normalari buzilgan, sheva sezilib turadi, (ayniqsa bizning Buxoroda), bunaqa vajlarni yuzlab keltirish mumkin. Aybdor qidirishga odatlanganmiz... Kim aybdor? Har bir insonning òzi aybdor, axir, pedagog degan yuksak sharafimiz bor ekan, bilimda ham, imlodan ham sharaf bòlishimiz kerak. Taassufki, bugun ona tili òqituvchilarimiz nutqida rus tilidan òzlashgan baynalmilal sòzlarni òzbek tili qoidalariga zid ravishda iste'foda etishdek salbiy holatlar kòplab uchramoqda. Ular buning xato ekanligini bilib- bilmagan holda ba'zida "madaniyatlilik" belgisi, deb ham tushunayotganliklari gòyat achinarli. Ana endi, bir òylab kòraylik:

- Bu ustozlarning nutqini tinglayotgan òquvchi- yoshlar geografiya yoki tarix darsligida òqigan Yaponiya davlatini ustozlari talaffuzida ifodalaganidek "Yiponiya"

tarzida aytishi, eng yomoni yozish kerak ekan- da, degan tushunchaga borib qolishlari hech gap emas. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ba'zi hollarda ona tilimizga mos keluvchi muqobili bòla turib: Ofarin, barakalla yoki nonushta, tushlik, kechlik qabi nutqda kòp qòllaniladigan kundalik sòzlarining òrniga òqituvchilar, hatto yosh bolalarimiz ham, “molodes, zavtrk (zavtrak), abit (obed), ujn (ujin)” kabi sòzlarni til qoidalariga zid ravishda qòllashadi. Yoshlar òqishda va mehnat jarayonida nimagaki muvaffaq bòlsalar, axloq- odob, aql- zakovat, kuch va bilim, maqsad sari qat'iyat bilan olgà intilish bilan erishadilar. Hech shubhasiz, bunda til odobi, ona tiliga e' tibor va hurmat, imlo savodxonligi orqali erishiladi. Zero aqli raso donishlar suhbatdoshlari xulqi, sir- atvorini ularning sòzlari, òz tiliga sodiqligi ma' nosidan anglab olganlar.

Sòzni yaxshi bilmayin qilma bayon,

Kim, qilursan jumla aybingni ayon.

(F.Attor)

Xulosa. Jamiyat qanchalik rivojlanib borsa, uning tilga ongli ravishda munosabati ham kuchayib boradi. Chunki til kishilar orasidagi aloqa vositasi bòlishi bilan birga, har bir inson, xalqning tafakkur tarzini ham namoyon etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. A. Shomaqsudov, I. Rasulov. O'zbek tili stilistikasi. T.: O'qituvchi, 1983. 45-bet.
2. A. Hojiyev. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. T.: O'qituvchi, 1974. 5-bet.
3. B. Doniyorov. O'zbek adabiy tili orfoepiyasi va orfografiyasining ayrim dolzarb muammolari / Til va adabiyot ta'limi. B. Doniyorov. //№11 2014. 9-11 betlar.
4. X. Abdurahmonov, H. Mahmudov. So'z estetikasi. T.: Fan, 1981. 7-bet.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildlik. 1-jild. T.: 2006. 632 bet.

ТЕЧЕНИЕ БЕРЕМЕННОСТИ И ВЫБОР ТАКТИКИ РОДОВ СРЕДИ БЕРЕМЕННЫХ С ДВУМЯ И ТРЕМЯ ПЛОДАМИ

Мамирова Гавхарой Эркинжон кизи,

Муминова Зиёда Абраровна,

Ташкентская Медицинская Академия

Аннотация. В проведенном исследовании были изучены 61 беременные с многоплодной беременностью в течение беременности и родов. Был проанализирован исход родов законченные с оперативным путем и через естественные родовые пути, также оценено состояние 144 новорожденных. Проведены анализы клинико-анамнестических данных, данных физикального обследования, ультразвукового исследования во время беременности, доплерометрии плодов, оценок новорожденных по шкале Апгар. В результате нашего исследования выяснилось преимущество оперативных родов на состояние матери и новорожденных в послеродовом периоде.

Ключевые слова: многоплодная беременность, двойня, тройня, течение беременности, преждевременные роды, исход родов.

Актуальность: Встречаемость многоплодной беременности неуклонно растет годами, что связано с широким распространением вспомогательных репродуктивных технологий и активном занятием лечением бесплодия. Частота многоплодной беременности в Республиканском Перинатальном Центре (РПЦ) за 2019-2021гг.(август) составила 3,82% (583 на 15237 родов). Многоплодие сопровождается с различными осложнениями такие, как анемия, артериальная гипертензия, внутриутробная гибель и задержка роста плода, преждевременные

роды, обильная кровопотеря в родах связанная с гипо- и атонией матки, также осложнения со стороны рожденных детей.

Цель: Оценка течения беременности и исход родов среди многоплодных беременных с двумя и более плодами.

Материалы и методы:

Данное исследование проводилось в РПЦ с сентября 2019г. до августа 2021г. Были анализированы истории родов 61 беременных с многоплодием. Основную массу исследуемых беременных с многоплодием составили женщины в возрасте от 28 до 34 лет. Беременные разделены на 2 группы:

Первая группа: 40 беременные с двумя плодами.

Вторая группа: 21 беременные с тремя и более плодами .

Для оценки состояния внутриутробного плода, количества околоплодных вод, также для определения типа плацентации использовалось ультразвуковое исследование, доплерометрия маточно–плацентарно-плодового кровотока. Изучены акушерский, гинекологический и соматический анамнезы беременных.

Результаты исследования: Среди двойней дихориальная диамниотическая двойня диагностирована в 22 (55%) случаях, монохориальная диамниотическая– в 18 (45%), монохориальная моноамниотическая плацентация– в период нашего исследования не встречалась. Во всех случаях проведено доплерометрическое исследование кровотока. Нормальная скорость кровотока сохранялась у 12 (30%) беременных. Нарушение I степени выявлено в 23 (57,5%) случаях, II степени – у 4 (10%) пациенток, III степени – у 1 (2,5%). Среди тройней трихориальная триамниотическая тройня диагностирована в 7 (33,34%) случаях, дихориальная триамниотическая– в 11 (52,38%), монохориальная триамниотическая плацентация– в 1(4,76%) случай, тетрахориальная тетраамниотическая четверня– в 1(4,76%) случай. Во всех случаях проведено доплерометрическое исследование кровотока. Нарушение I степени выявлено в 6 (28,57%) случаях, II степени – у 12 (57,14%) пациенток, III степени – у 3 (14,28%). В ниже

приведенной таблице можно увидеть данные принадлежащих соответственно каждой группе.

В первой группе наибольшая частота родов отмечалась при сроке 33–35 нед, реже при сроке 31–33 нед. Таким образом, 11 (27,5%) беременных были родоразрешены в сроки до 35 нед, 15 (37,5%) до 36/6 недель, при этом 14 (35%) в 37 нед и позже. Операция кесарева сечения по сочетанным показаниям со стороны матери и плодов выполнена у 9 беременных (22,5%) в доношенный срок гестации (37 нед и более) и у 11 (27,5%) – при сроке до 36/6 нед. В этой же группе вес детей при рождении составил $2211,05 \pm 358,46$ г и $2225,2 \pm 376,14$ г. Все родились с оценкой по шкале Апгар 7 баллов и более. Среди них не было перинатальных потерь.

Во второй группе наибольшая частота родов отмечалась при сроке 33–34 нед. Все они родоразрешены в сроке до 35/5 недель. Из них только у 2-х (9,52%) произошли спонтанные роды. Остальные были прооперированы по плану методом кесарева сечения. Среди них нет доношенных беременностей. Вес детей при рождении составил $1756,7 \pm 301,36$ г. ; $1568,0 \pm 409,35$ г. и $1643,41 \pm 361,28$ г. Все родились с оценкой по шкале Апгар 6–7 баллов и более. Среди них перинатальных потерь не отмечалось.

Тяжелое состояние новорожденных в послеродовом периоде отмечалось у 18 (22,5%) синдром дыхательных расстройств в первой группе, у 14 (66,67%) во второй группе. Также во второй группе больше встречались новорожденные с незрелости головного мозга гипоксического генеза, лор и офтальмопатологии, также с врожденными пороками развития по сравнению с первой группой.

Течение беременности на фоне анемии легкой степени больше наблюдалось у беременных первой группы 32 (80%) , средней степени у 5(12,5%) , тяжелое течение заболевания не отмечалось. Во второй группе анемия легкой степени встречалась у 16 (76,19%), средней степени у 5(23,81%) беременных. Частота встречаемости акушерских осложнений такие, как преэклампсия (ПЭ),

преждевременное излитие околоплодных вод (ПДРПО) приведена в таблице.
 (таб.1)

Таблица 1

Таблица сравнения данных

Критерии	Первая группа n-20		Вторая группа n-20	
	Абс	%	абс	%
Первобеременные	15	37,5	6	28,6
Повторно беременные	25	62,5	15	71,4
Преждевременные роды	26	65,0	21	100
Срочные роды	14	35,0	0	0
ВРТ. ЭКО	5	12,5	6	28,6
ВРТ. Другие методы	18	45,0	9	42,9
Угроза прерывания беременности	25	62,5	18	85,7
ПДРПО	6	15,0	5	23,8
НМППК	28	70,0	21	100
ПЭ	12	30,0	5	23,8
Гестационная гипертензия	6	15,0	8	38,1
Анемия	37	92,5	21	100

ВПР плода	2	10	7	33,34
-----------	---	----	---	-------

Выводы: Наше исследование показало, что при многоплодной беременности отмечается высокая частота осложнений, при этом осложнения прямо пропорциональны с количеством плодов. Оптимальным методом родоразрешения является роды оперативными путями не зависимо от типа хориальности. Так как осложнения среди новорожденных родившиеся с естественными путями выше по сравнению с оперативным путем. Комплексное пренатальное обследование и коррекция патологий фетоплацентарной системы, методы пролонгирования беременности, правильный выбор тактики ведения родов, выбора срока и пути родоразрешения приводят к меньшим осложнениям не только со стороны матери, также со стороны новорожденных.

ИБН СИНО ЭКОЛОГИК ҚАРАШЛАРИНИНГ СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ

Асадова Нилуфар Ёркиновна

Бухоро давлат университети талабаси

Аннотация: В статье анализированы взгляды Восточного мыслителя средневековья Ибн Сины об экологии. Уделяется особое внимание на проблема человека с философских позиций. Автор раскрывает человеческие качества в соответствии этическими категориями.

Ключевые слова: средневековья, мыслители, этические нормы, экофилософия, гармония человека.

Ўтмишимиз тарихини билишга интилишимиз ўтмишнинг янги-янги қирраларини очаётганлигимиз аҳамиятлидир. Олам ва одам, улар ўртасидаги муносабат, мулки борлиқнинг инсонга, инсоннинг унга таъсири, ҳаёт ва ўлим, яшашдан кузатилган мақсад сингари хилма-хил масалалар неча асрлар давомида ижод аҳли эътиборини ўзига жалб қилиб келган таянч мавзулардан биридир.

Маълумки, инсон узок вақт давомида табиатга боғлиқ ҳолатда яшаб келган. Ўзига зарур бўлган барча нарсаларни табиатдан олган. Шунинг учун табиатга эҳтиёткорона муносабатда бўлган. Узок йиллар давомида атроф-муҳитни, яъни табиатни ўрганиш натижасида секин-асталик билан табиат ишларига аралашган, ўсимлик, ҳайвон, сув ва тупроқдан фойдаланиш натижасида атроф-муҳитнинг ўзгаришига олиб келган. Кейинчалик инсон онгининг, илм-фаннинг ривожланиши, йирик-йирик шаҳарларнинг барпо этилиши, завод фабрикаларнинг қурилиши одамларнинг табиатдан аёвсиз фойдаланишларига туртки бўлди. Натижада, иқлим, об-ҳаво, сув, тупроқ, ҳаво таркиби, ўсимликлар ва ҳайвонот оламида жиддий ўзгаришлар юз берди. Ўзбекистондаги асосий

экологик муаммолар: ҳавонинг меъёридан ортиқ зарарланганлиги, ичимлик сувининг ифлосланганлиги ва етишмаслиги, тупроқнинг шўрланганлиги, унумдорликнинг пасайиши, Орол денгизининг қуриганлиги ва бошқалар. Бундай ҳолатларга барҳам беришда республикада бир неча тадбирлар амалга оширилмоқда. Табиатни муҳофаза қилиш билан боғлиқ бўлган Конституциявий мажбуриятларни бажармаган шахсларни мулкӣ, маъмурий ва ҳаттоки жиноий жавобгарликка тортиш ҳам белгиланган.

Ҳозирда экологик омиллар биотик ва абиотик омилларга бўлинади. Лекин Ибн Синонинг минг йил аввал соғлик ва касаллик сабабларида экологик омилларнинг динамизми ҳақидаги қарашлари кишини хайратга солади. Алломанинг сабаблар ичида экологик омилларга кенг ўрин берганлиги бугунги кунда ўзининг долзарблиги билан Ибн Сино таълимотининг умрибоқийлигини яна бир қарра тасдиқлайди. Биз ҳақи равишда Ибн Синони соғлом турмуш тарзи таълимотининг асосчиси деб айта оламиз. Ибн Сино фикрича, соғлом ҳаёт кечириш ҳамда узоқ фаол умр кўришнинг ягона ва ишончли йўли – бу соғлом турмуш тарзидир. Соғлом турмуш тарзини шакллантиришда эса овқатланиш маданияти, экологик таълим-тарбия, жисмоний машқлар муҳим ўрин эгаллайди.

Абу Али ибн Сино қомусий олим сифатида илмнинг қайси бир соҳаси билан шуғулланмасин илмий меросининг асосий ўзаги ва долзарб аҳамиятини белгилловчи муҳим хусусиятларидан бири унинг изчил фидокорона равишда улуғ бир мақсад сари – борлиқнинг турли томонларини илмий ўзлаштириш асосида инсоннинг ижтимоий мавжудот сифатида ўзлигини англаш, унинг комиллик даражасини юксалтириш, инсон ва табиат, инсон ва жамият ўртасидаги муносабатлар ва уларнинг ўзаро боғлиқлигини ҳар томонлама кенг ва чуқур ҳолда илмий асослаш ва уйғунлаштиришга мудом интилиш ётади. У ўзининг “Донишнома” асарида илм соҳасига, унинг кишилар ҳаётидаги муҳим ўрнига ўзининг муносабатини акс эттириб, ўша даврдаги илмларни назарий ва амалий қисмларга бўлиб, назарий билимлар “бизнинг жонимиз ўз шаклини касб этиши

ва у дунёда бахтиёр бўлиши учун буюмларнинг борлиқ ҳолати ҳақида бизни хабардор қилади” деб ҳисобласа, амалий билимлар “бизни ўз хатти-ҳаракатларимиздан хабардор қилади... Унинг фойдаси шуки, у шу дунёдаги ишларимизни йўлга солиш учун нималар қилишимиз лозимлигини ўргатади”, [7] - деб таъкидлайди. Улуғ алломанинг ҳикмат даражасидаги бундай мазмундор сатрлари бағрида етиб келган доно мушоҳадалар бугун учун ҳам замондошдир. Улардан воқиф бўлиш, уларга амал қилиш шу ҳаётда яшаётган ҳар бир одамнинг инсоний бурчидир.

Инсоният билан табиат ўртасидаги муносабатларни экология фани ўрганади. Ҳозирги кунда мавжуд бўлган 15000 фанлар орасида экология фани ўз моҳиятининг чуқурлиги, ниҳоятда кўп тармоқлари борлиги ва амалий аҳамияти муҳимлиги билан ажралиб туради.

“Фуқаролар Ўзбекистон халқининг тарихий, маънавий ва маданий меросини авайлаб асрашга, шунингдек, атроф-табiiй муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлишга мажбурдирлар” [1].

Таъкидлаш жоизки, сўнгги йилларда экологик хавфсизликни таъминлаш ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш, шунингдек аҳоли турмуш даражаси ва сифатини оширишга қаратилган муҳим ташкилий, ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий чора тадбирлар амалга оширилди. Жумладан, 2017 йил 21 апрелда Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5024-сонли “Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони [4] қабул қилинди; “2017-2021 йилларда Оролбўйи минтақасини ривожлантириш Давлат дастури” тасдиқланди. Юртимизда БМТ шафелигида Орол денгизи ҳамда Оролбўйи худуди бўйича махсус Траст жамғармасини тузишга қаратилган саъй-ҳаракатлар қатъий қўллаб-қувватланиб, 2017 йил 10 февралда БМТнинг “Оролбўйи минтақаси учун инсон хавфсизлиги бўйича кўп шериклик фондиди ташкил қилиш орқали Орол денгизи фожиасидан зарар кўрган аҳолининг турмуш шароитини яхшилаш ва

мустаҳкамлаш” дастури [2] амалга оширила бошланди. Давлатимизнинг раҳбарининг Парламентга қабул қилган мурожаатномаларида доимий равишда мазкур масалага жуда катта эътибор қаратилди.

Президентимиз Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил сентябрь ойида БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган маърузасида: “Бугунги куннинг энг ўткир экологик муаммоларидан бири – Орол ҳалокатига яна бир бор эътиборингизни қаратмоқчиман. Мана, менинг кўлимда – Орол фожиаси акс эттирилган харита. Ўйлайманки, бунга ортикча изоҳга ҳожат йўқ”, [5] деб айтган фикрлари, Оролбўйида экологик хавфни бартараф этиш юзасидан илгари сурган таклифлари жаҳонҳамжамияти эътиборини ўзига тортди. Оролбўйи минтақаси учун Траст фонднинг тузилиши жуда катта аҳамиятга эга бўлди.

Президентимизнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 75-сессиясида сўзлаган нутқида ҳам глобал иқлим ўзгариши ва Орол муаммосига эътиборни қаратди. Давлатимиз раҳбари ўз маърузасида: “Биз Оролбўйи минтақасини экологик инновация ва технологиялар ҳудуди, деб эълон қилиш ҳақида Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг махсус резолюциясини қабул қилишни таклиф этамиз. Ушбу муҳим ҳужжат тасдиқланган санани эса, Халқаро экологик тизимларни ҳимоя қилиш ва тиклаш куни сифатида нишонлаш мақсадга мувофиқ бўларди” [6], деб айтган фикрлари ҳаётда ўз ифодасини топди. 2021 йилнинг 18 майида БМТнинг “Оролбўйи минтақасини экологик инновация ва технологиялар ҳудуди деб эълон қилиш тўғрисида махсус Резолюция”ни [3] қабул қилди. Ушбу тарихий ҳужжат нафақат Ўзбекистон, балки Оролбўйи минтақасида жойлашган қўшни мамлакатларимиз тақдири учун ҳам даҳлдор ҳужжат бўлди. Бу ҳужжат, биринчи навбатда, бутун дунё ҳамжамияти эътиборини жалб қилган ҳолда, инклюзив иқтисодиётни ривожлантириш, биологик хилма хилликни таъминлаш, аҳоли саломатлигини муҳофаза қилиш ва шу билан боғлиқ мақсадларни амалга оширишда илмий асосланган экологик инновацион технологияларни жалб этишни белгилаб берди.

Мазкур Резолюцияда кўрсатилган вазифаларни амалга ошириш бўйича нафақат республикамизда, балки ҳамкор давлатлар билан биргаликда қатор тегишли режалар, йўл хариталари ишлаб чиқилади.

Инсонлар амалда атроф-муҳитга нисбатан ўз муносабатларини ўзгартиришлари учун нималар қилиш керак? Бунинг учун:

- Кишилар онгида энг зарур экологик тушунчалар, яъни табиий атроф-муҳитлардаги барча мавжудотларнинг бир-бирига нисбатан бевосита боғлиқлиги, улар ўртасида табиатан уйғунлик ҳукм суриши хусусида муҳим тушунча ва ишонч ҳосил қилиш;

- Табиатга, атроф-муҳитга, улар таркибидаги барча мавжудотларга нисбатан ниҳоятда оқилона муносабатда бўлиш, тежамкорлик билан улардан фойдаланиш заруратини кишилар онгига сингдириш ва чуқур экологик тафаккур эта билишни шакллантириш.

“Соғлом одам табиатнинг энг буюк асаридир”. Бу ҳикмат инсонларни фикрлашга, ўтмишига қарашга, бажарган ишлари ҳақида мушоҳада юритишга ундайди. Сабаби, табиат қанчалик мусаффо бўлса ва инсон ўзини авайласа, шунча гўзал, мукамал асар “инсон” яратилади. Инсон ҳам табиат “асарларидан” бири экан, унинг соғлом бўлиши бевосита табиат билан боғлиқ.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т., 2018.
2. БМТнинг “Оролбўйи минтақаси учун инсон хавфсизлиги бўйича кўп шериклик фондини ташкил қилиш орқали Орол денгизи фожиасидан зарар кўрган аҳолининг турмуш шароитини яхшилаш ва мустаҳкамлаш” дастури (2017 йил 10 февраль)
3. БМТнинг “Оролбўйи минтақасини экологик инновация ва технологиялар ҳудуди деб эълон қилиш тўғрисида махсус Резолюция”си (2021 йилнинг 18 май)

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш тўғрисида”ги 2017 йил 21 апрель ПФ-5024-сонли Фармони.

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил сентябрь ойида БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган маърузаси

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 75-сессиясида сўзлаган нутқи

7. Й.Жумабоев “Ўрта Осиё этикаси тарихи очерклари” Т.Ўзбекистон, 1980, 126-бет

XXI ASR KO'NIKMALARI ORQALI CHET TILLARNI KUNDALIK DARS JARAYONLARIDA O'QITISH USULLARI

Isakova Dilafruz Fahridinovna,

O'zDJTU o'qituvchisi

Ushbu ko'nikmalarni har qanday sinf darajasida o'qitish mumkin bo'lsa-da, biz XXI asr ko'nikmalarini boshlang'ich va o'rta sinflarda o'qitish eng muhim hisoblanadi. Bu jarayonlar sizning o'quvchilaringiz uchun o'zlarining kelajak hayotga tayyorgarligini rivojlantirishlari kerak bo'lgan payt hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarda XXI asr ko'nikmalari orqali chet tillarni o'rganishda chet tiliga e'tibor qaratish bilan birga darslar deduktiv tarzda yaratilishi maqsadga muvofiq. Bugungi kunda dunyoning rivojlangan davlatlarining ta'lim tizimida chet tillarni ayniqsa ingliz tilini o'rganishda XXI asr ko'nikmalari juda muhimligi tadqiqotlar jarayonida o'z aksini topgan.

XXI asr ko'nikmalari orqali chet tillarni o'rganish, o'quvchilardan bilimlarni namoyish etish, ma'lumotlardan foydalanish va ifoda etish qobiliyatini talab qiladi. Bunda o'quvchilarni nafaqat savodli bo'lishlari, balki undan foydalana olishlari kerakligi va albatta muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy ma'lumot muhiti doirasida savodxonligini oshiradi.

Chet tillarii o'qituvchilari o'quvchilarni dars jarayoniga jalb etadigan faoliyat turlarini ishlab chiqishlari hamda muzokaralar, hamkorlik, maqsadlarni belgilash bilan murakkab loyihaviy ishlarni bajarishlari muhim. Bunda quyidagi usullar yordam beradi:

rivojlanayotgan aloqa shakllarini; o'qish va yozishni ishlatishni o'z ichiga olgan savodxonlik; onlayn texnologiyalar; hamkorlik loyihalaridan foydalanish qisqa muddatli tarkibiy yodlash; topshiriqlar ustida yakka ishlash; muammolarni tahlil qilish; qarorlar qabul qilish; dizaynlarni yaratish; muammolarni hal qilishdan iborat.

Bundan tashqari, chet tilini o'rganuvchilarga shunga asoslangan faoliyatga muhtojligini ta'kidlash, ularga yangi imkoniyatlar beradigan yangi texnologik vositalar va semiotik shakllar, standart til va raqamli savodxonlik orqali XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga erishiladi.

Chet tilini o'rganish va o'rgatish uchun hikoya va ommaviy axborot vositalarini loyihalashtirishdan foydalanish orqali o'quvchilar ommaviy madaniy va matn asarlarini ijodiy manipulyatsiyasidan foydalanishlari mumkin. Bunda nafaqat o'zlarini ifoda eta olishadi, balki muloqotga kirishadi.

XXI asr ko'nikmalarini o'quvchilarda shakllantirish orqali chet tillarni o'rgatish- bu har bir o'quvchida, o'qituvchi va boshqalar tomonidan kiritiladigan ko'p o'lchovli jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonlar amalga oshirilishida o'quvchilarda chet tillarni o'rganish sinflari quyidagicha shakllanadi:

Hamkorlikni rag'batlantirish – bu usul orqali faol va ovozli sinf hisoblanadi. Bunda o'quvchilar ijtimoiy mavjudot ma'lumotlariga asoslangan chet tili sinfida bo'lishadi. O'qituvchilar chet tilni o'qitishda o'quvchilarga imkon berishlari uchun barcha imkoniyatlardan to'liq foydalanishi kerak. Darslarda juft va kichik guruhlar shakllantiriladi. Bu nafaqat nutqni rivojlantirishga yordam beradi balki tinglash qobiliyatiga ega bo'lish bilan birga, o'quvchilar birgalikda maqsadlarga qanday qilib samarali erishishni ham o'rgatadi.

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalari yordamida chet tilni rivojlantirishda o'rganish nafaqat eslab qolishni balki tanqidiy fikrlash qobiliyatini ham talab etadi.

Chet tilini o'rganishni XXI asr ko'nikmalari bilan birlashtirish maqsadida o'qituvchilar va o'quvchilar ikkala yoki multimodal kommunikativ bilan ishlashlari mumkin. O'quvchilarni turli xil muhokamalarda qatnashishga tayyorlaydi va ularni qo'llab-quvvatlaydi. Boshqa tomondan, o'quvchilarning multimodal kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish bilan birga o'quvchilarni vizual savodxonlikni rivojlantirishga e'tiborni qaratish lozim.

Yuqorida keltirilgan natijalar va tahlillarga asoslanib, tadqiqotlar quyidagilarni taqdim etadi.

1. Chet tillarni o'rganish haqidagi qarashlarni qayta qurish va ko'rishni davom ettirish o'quvchilarni muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlash uchun maktablarda XXI asrga asoslangan o'quv dasturini yaratish.

2. XXI asr ko'nikmalarini chet tillar o'quv dasturiga hamda xalq ta'limi tizimiga kiritishda XXI asr uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni chuqur tahlildan so'ng global va mahalliy ehtiyojlarni hisobga olish.

3. Chet tillardagi ta'limga yaxlit qarashni tarafdorlari XXI asrda tadqiqotlar, tajriba almashish, salohiyatni oshirish va barcha o'qituvchilar uchun ehtiyoj atrofida targ'ibot qilish.

4. Chet tili darslarida XXI asr ko'nikmalaridan foydalanish o'rganishni yaxshilaydi hamda dars jarayonlarining qiziqarliligini ta'minlaydi.

5. O'qituvchilarni XXI asr ko'nikmalaridan xabardorligini oshirish, eng amiyatlisi hisoblanadi.

Hozirda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida chet tilini boshqa fanlar bilan o'zaro integratsiya qilib o'qitishda CLIL metodikasidan keng foydalanilmoqda. CLIL- (Content and Language Integrated Learning) mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'rganish bo'lib, ushbu metodikaga ko'ra o'quvchilar Matematika, Kimyo, Biologiya, Fizika, Informatika, Adabiyot Tarix kabi fanlarga oid mavzularni chet tilida o'rganishlari orqali ham fanga doir bilimlarini mustahkamlashadi, ham chet tilni qo'llashni o'rganishadi. Mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'rganish bu bir vaqtning o'zida yangi mavzuni ikkinchi til orqali o'rganish yondashuvidir.

IJTIMOIIY SOHAGA OID O'ZLASHMA NEOLOGIZMLARNING MAVZUVIY GURUHLARI

Farxadova Nasiba Suxrob qizi

To'rtko'l tumani 16-maktabi ingliz tili o'qituvchisi

Qadimdan ma'lumki o'zbek tili leksikasining tashkil topishida 3 komponent muhim rol o'ynaydi. Bular quyidagilardir:

1. Barcha so'zlar eng qadimgi turkiy tildan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tili leksikasining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, bundan tashqari kundalik ishlatiladigan so'zlar va iboralar yuqoridagi unsurlarda o'z ifodasini topadi.

2. O'zlashma so'zlar, bunday so'zlar boshqa tillardan kelgan bo'lib, bular quyidagilar: arab, fors-tojik, rus, nemis, fransuz, ispan, ingliz va boshqalar. Bu so'zlaning qiziqarli tomoni shundaki, ular asosan klassik tillarning birlashmasidan hosil bo'lgan (arab, turk, fors-tojik).

3. O'zlashma neologizmlar, bu turdagi so'zlar tilda mavjud bo'lgan so'zlardan suffiks, prefiks va qo'shimchalar qo'shish orqali yasaladi.

Yuqorida ko'rsatilgan 3 komponentdan tashqari leksikaning rivojlanishiga ikkinchi darajali unsurlar ham yordam beradi. Bular:

- Onomatopeya, bir so'z shaklidan boshqa bir so'zning shakllanishi
- Qisqartirilgan so'zlar, nomlarning qisqartirilib faqat bosh harflarda ifodalanishi.

- Chet tilidagi so'zlarning tilimizga kirib kelishi va ularning ishlatilishi tilimizda ma'lum bir yangi so'zlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi va bu turdagi so'zlar guruhi o'zlashma so'zlar deyiladi.

- O'zlashma so'zlarning asosida so'zlar yotadi ya'ni o'zlashma so'zlarning shakllanishi hech qanday o'zgarishlarsiz tilimizga o'zining shakli va ma'nosi bilan kirib kelishi kuzatiladi. Masalan *bar, film, lider*.

- ko'p chilik kishilar hech qanday o'zgarishsiz, qo'shimchalarsiz o'zlashma so'zlarni yaxshi tanishadi: **bar, film, lider**, chunki bunday so'zlar o'zbek tilidagi so'zlarning funksiyasini bajaradi, ba'zi bir insonlar esa aksincha qo'shimcha olgan, o'zgarishlarga uchragan o'zlashma so'zlarni bilishmaydi. Masalan ayrim sozlarning ingliz yoki fransuz tilidan kirib kelganini qancha so'zlashuvchi biladi? Ba'zi bir o'zlashma so'zlar o'zlarining asl shaklida yoki ularga to'g'ri keladigan shaklda ifodalanadi: misol qilib fransuz tilidagi **bojole, jilet, palto**, ingliz tilidagi **punch va ponce, roastbeef va rosbif** (yoki rosbiffe) larni aytib o'tishimiz mumkin.

O'zlashma so'zlarning aksariyati bu tarjima qilingan so'zlardir. Bunday so'zlarning ikki asosiy turlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

Semantik, ya'ni ma'no jihatdan tarjima qilingan so'zlardir. Chet tilidan kirib kelgan so'zning ma'nosi va shakli jihatdan o'zbek tiliga tog'ri kelishi va qo'llanilishida ko'rishimiz mumkin. Masalan *confort* (uy xizmatlari) ingliz tilida *comforts* kabi ifodalanadi. Yoki o'zbek tilidagi *autoritar* so'zi bir necha yil oldin "rendere autorevole", ya'ni 'mustaqil ishlamoq' ma'nosini anglatadi.

To'gridan-to'g'ri tarjima kalka usulida o'zbek tiliga chet tilidan tarjima qilingan so'zlar guruhi: ingliz tilidagi *sky-scraper*; nemis tilidagi *klassen kampf*.

O'zlashma so'zlar tillar orasidagi bog'liqlikni namoyon etuvchi muhim jarayondir. O'zlashma neologizmlarning ikki tillilik (bilinguizm) bilan munosabati, so'zlovchilar tomonidan holat va joyga qarab ikki tildan foydalanish davomida ko'rinadi. O'zlashma so'zlarning kelib chiqishi xalq tili yoki boshqa tillarning ta'sirida ham yaqqol ko'rinadi, bundan tahsqari ikki tilning bir-birini qadrlashida ham namoyon bo'ladi. Bunday holat nemis va roman tillarida kuzatiladi.

O'zlashma so'zlarni muhimlik va boylik tomonidan farqlashimiz mumkin. Birinchidan so'z qachonki referent (ya'ni obyekt va g'oya, fikr) bilan birga bo'lsa, masalan patata gaytan so'zi bo'lib italyan tiliga ispan tili orqali kirib kelgan yoki *caffè* so'zi turk tilidan, zero arab tilidan (roman sonlarida zero ya'ni nol mavjud bo'lmagan) tram, transistor, juke-box kabi so'zlar ingliz tilidan kirib kelgan.

O`zlashma so`zlarning boylik jihatdan stilistik va ijtimoiy holati muhim o`rin tutadi. Jamiyatni, madaniyatni, yashash sharoitini eslashga xizmat qiladi: o`zlashma so`zlarning boyligi *leader, flirt, baby-sitter, week-end* so`zlarida ko`rinadi. Ingliz tilidagi so`zlar va birikmalar ba`zida ularning qisqaligi qulaylik tug`diradi: ya`ni jurnalistika tilida, sohasida uchrab turuvchi so`zlarni tushuntirib beradi, masalan boom, show italyan tilidagi ekvivalentlari quyidagilar *show* (teatrning turi, bir necha har xil bo`g`inlardan tashkil topgan italyan tilidagi ekvivalenti sit-in ma`lum bir joyda tomoshabinlarni yig`ish).

O`zlashma so`zlar yozma va og`zaki shakllar orqali tilga kirib keladi. Tunnel so`zi yozma til orqali kirib kelgan. Agar *tunnel* so`zi og`zaki tildan kirib kelganda edi tanel deb talaffuz qilinadi xuddi ingliz tilidagidek. *Budget* aksincha badjet deb talaffuz etiladi, chunki og`zaki tildan kirib kelgan. Shunday turdagi ingliz so`zlari borki, ular O`zbekistonda har xil talaffuz etiladi, masalan:

inglizcha talaffuz

flirt | flə:t | |flert|

ingliz talaffuziga o`xshatish

o`zbekcha talaffuz

| flert| flirt

o`zbekcha talaffuz

Quyidagi talaffuz turlari har xil faktorlardan kelib chiqadi, shuningdek chet tilini yaxshi bilish ham muhim o`rin tutadi. Shuni ham aytib o`tishimiz joizki o`zbek tiliga kirib kelgan ba`zi bir so`zlarga hech qanday o`zgartirishlar kiritilmagan, jumladan *flirt, leader* va boshqa so`zlar. O`zbek so`zlashuvchilari orasida ingliz fonetikasi va anglitsizmlarni juda yaxshi o`rnashib olishgan, yuqorida ko`rib o`tilgan *bar, film, sport, flirt* va boshqalar kabi.

Shuni eslab o`tishimiz joizki o`zbek tiliga kirib kelgan ingliz o`zlashma so`zlari o`zbek tilida talaffuz etilgan, xuddi shu holat italyan o`zlashma so`zlarida ham kuzatilgan, misol qilib shuni aytishimiz mumkin.

Haqiqiy o`zlashma o`zlashma neologizm va chet tilidan kirgan so`zning ma`nosini va ko`chma ma`nolarini to`g`ri farqlay olishimiz zarur.

Xulosa

O‘zbek tili leksikasi juda boy. Unda serqirra ma’noga ega bo‘lgan polisemantik va ma’nodosh, zid ma’noli va shakldosh, emotsioanal-ekspressiv bo‘yoqdor so‘zlar borki, ular nutqni obrazli va jozibador etishga xizmat qiladi. Ona tilimizning imkoniyatlarida foydalanish, go‘zal badiiy tasvirlar yaratish ijodkoning so‘z qo‘llash mahoratiga bog‘liq. Ona tilini o‘rganish nihoyatda dolzarb vazifa. Inson tafakkurining erishgan eng yuksak yutuqlari, eng chuqur bilimlari va g‘oyat otashin hislar, agar ular so‘z vositasi bilan aniq va ravshan ifoda qilinmasa, odamlar uchun noma’lumligicha qolaveradi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Eng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O‘zbekiston, 2009. 32 b.
2. Asqarova M, Yunusov R, Yo‘ldoshev M, Muhammedova D. O‘zbek tili praktikumi . Toshkent. 2006.
3. Aliqulov T. Metonimiya va polisemiya. Toshkent, 1965.
4. Eshonqulov B. Arabcha lug‘aviy o‘zlashmalarning omonimiyaga munosabati. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. Toshkent. 1999/3.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2010.
6. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. Toshkent, 2010.
7. Mengliyev B., Xoliyorov O‘. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. T., 2008.
8. Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. O‘zbek tili antonimlarning izohli lug‘ati. T., 1989.
9. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. T., 1984.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jild. T., 2006-2008.

ИҚТИСОДИЁТ ЙЎНАЛИШИДАГИ ТАЛАБАЛАРГА ИНГЛИЗ ТИЛИ ЎРГАТИШ МУАММОЛАРИ

Нилуфар Ширинова- филология фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Республикаси Жамоат Хавфсизлиги университети

Ҳозирги кунда чет тилларни ўрганишга бўлган талаб ва эътибор кундан кунга ошмоқда. Шунинг учун ҳам, чет тили дарсини замонавий методика талабларига мос равишда ташкил қилиш ўқитувчилар олдида турган муҳим вазифадир. Чет тили ўқитувчилари дарсда интерфаол усуллардан, яъни талабаларнинг фаоллигини таъминлашга қаратилган усуллардан фойдаланишса, дарснинг самарадорлигини оширишга эришиш мумкин. Авваломбор, талабаларга тақдим этилаётган материал уларнинг қизиқиши ва мутахассислигига мос бўлиши зарур[1]. Талабаларнинг тилга бўлган қизиқишини ошириш орқали, биз уларнинг билиш фаоллигини оширишга эришишимиз мумкин. Қўлланилаётган ҳар бир метод ва материал талабаларнинг мутахассислиги мос бўлсагина, уларнинг фанга бўлган қизиқишини ошириш мумкин[2]. Қуйидаги машқлардан фойдаланиш орқали иқтисодий йўналишдаги талабарнинг инглиз тилидан кўникма ва малакаларини шакллантиришда фойдаланиш мумкин.

1.For each of the following statements, decide what solutions can be given.

St.1. Regions of the town of Samarkand like to consume sausage, but each of the shop requires 10 people to produce it and takes a month. If the town has a total of 100 people, what is the maximum amount of shop the regions can consume in a month?

St.2. A doctor works for 60 000 sums per hour. She likes to eat vegetables, but is not very good at growing them. Why does it make more economic sense for her to spend her time at the consulting job and shop for her vegetables?

St.3.An architect could paint his house, but it makes more sense for him to hire a painter to do it. Explain why?

Талабалар берилган муаммоларга ечим топиш учун инглиз тилида баҳслашади.

2.Match each of the statements above with the solutions below.

The architect is better at designing than at painting. Thus, his time is better spent working for pay at his job and paying a painter to paint his house. Of course, this assumes he does not paint his house for fun!

100 people/10 people per shop = a maximum of 10 shops per month if all regions produce sausage. Since consumption is limited by production, the maximum number of shops regions could consume per month is 10.

She is very productive at her consulting job, but not very productive at growing vegetables. Time spent consulting would produce far more income than it what she could save growing her vegetables using the same amount of time. So on purely economic grounds, it makes more sense for her to maximize her income by applying her labor to what she does her best (i.e. specialization of labor) [3].

Юқорида санаб ўтилган машқлар инглиз тилида “Economics” мавзусини ўзлаштириш учун муҳим аҳамият касб этади. Улар талабаларнинг тилга бўлган қизиқишини оширишга ва мавзуни осонликча ўзлаштиришларига хизмат қилади. Хулоса қилиб айтганда, ўқитувчи дарс жараёнида ўқитиш метод ва воситаларини тўғри танлай олсагина, дарс ўз мақсадига эришиши мумкин.

АДАБИЁТЛАР

1.Жалолов Ж. Чет тил ўқитиш методикаси ва таржима. //Таржимашунослик ва чет тил ўқитиш методикасининг долзарб муаммолари. –ЎзДЖТУ, Тошкент, 2005. -1-қисм. – Б. 57-58.

2.Ширинова Наргиза Инглиз тили дарсларини ташкил қилиш усуллари.– БухДУ Илмий Ахбороти, Бухоро, 2015, №1, – Б.140.

3. Дюканова Н.М. Английский язык для экономистов. – М., 2009., Б.27.

O'ZBEKISTONDA INTELLEKT-RAQAMLI TESTLARNI RIVOJLANTIRISH VA UNI AMALIYOTGA TADBIQ ETISH

Muminova Nasiba Bozorovna

Mirzo Ulug`bek nomidagi O'zbekiston Milliy univertiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy psixologiya yo`nalishi 2 kurs magistranti

Annotasiya: Mamlakatimizda testologiya sohasini rivojlantirish, va yaratilgan testni qonuniylashtirish, IQ testlarning ahamiyatini o`rganish, raqamli test tuzish va ularni amaliyotga tadbiq etish buyicha tehnologiyalar ishlab chiqish.

Kalit so`zlar: test, raqamli test, IQ, testlarni loyihalash, rivojlantirish tehnologiyasi

So`nggi yillarda mamlakatda psixologiya sohasida pedagog kadrlarni ta`yyorlash hamda amaliyotchi psixologlar faoliyatini qo`llab-quvvatlashga oid bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi vaqtda ixtiyoriy ta`lim muassasasining har bir o`qituvchisi o`z faoliyatida o`qitadigan fani bo`yicha o`quvchilarning bilim darajasini baholash usuli sifatida test o`tkazishdan foydalanadi. Buning uchun u ilmiy asoslangan test topshiriqlarini Davlat ta`lim standartlari yoki Davlat talablariga mos ta`lim dasturi bo`yicha ishlab chiqishi zarur. Ta`lim muassasalari o`qituvchilari zamonaviy testologiya fani talablariga javob beradigan test topshiriqlarini ishlab chiqishi uchun maxsus tayyorgarlikni tashkil etish zarur. Zamonaviy testologiya yetuk amaliy fan bo`lib o`zida test topshiriqlarini yaratishning asosiy tushunchalari va terminlarini, tamoyillarini, shakllarini, mazmuniga, qiyinligiga qo`yiladigan talablarni, test topshiriqlarini baholash shkalalarini bankini yaratish bo`yicha faoliyatni belgilovchi me`yorlarni o`zida jamlaydi.

Testologiya - shaxsning turli xil xususiyatlarini maxsus ishlab chiqilgan testlar va ularni talqin qilish usullari yordamida baholash imkoniyatlarini o'rganuvchi fan bo'lib, testolog testologiyaning nazariy va amaliy masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassisdir. Testlardan foydalanish hozirgi kunning asosiy talablaridan biridir. Bu esa bilim, ko'nikma va malakalar qay darajada o'zlashtirilganini (qay darajada) va baholashning ob'ektiv miqdoriga bo'lgan zaruriyat bilan bog'liqdir. Test - inglizcha so'z bo'lib, «testr», ya'ni «tekshirish» ma'nosini bildiradi. Testlardan foydalanish haqidagi dastlabki ma'lumotlar ingliz olimi Fisherning 1864 yilda e'lon qilingan «Scale books» kitobida, Amerika olimi J.I.Royoshning «Orfografiya - bilimlarni tekshirish» jadvalida (1884), nemis olimi Ebbengausning (1897) nuqtali bo'lib qoldirilgan matnlarida keltirilgan. XIX asrning dastlabki o'tgan yilida maktabda o'zlashtirishni aniqlashga xizmat qiluvchi testlar Germaniyada, keyinchalik AQSHda yaratilib yanada rivojlantirilgan. Hozirgi paytda bunday testlar Buyuk Britaniya, Skandinaviya, Niderlandiya, Turkiya, AQSH, Germaniya maktablarida muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelinmoqda. Testlar umuman quyidagi qismlarga bo'linadi: a) psixologik; b) pedagogik; s) sotsiologik. Psixologik testlar - shaxsning psixologik xususiyatlarini, uning intellektual tomonlarini o'rganadi va aniqlaydi. Pedagogik testlar ta'lim- tarbiya jarayonida bilimlar darajasini aniqlaydi. O'quv yili davomida ta'lim-tarbiya jarayonida yuqoridagi test formalarining istalganidan foydalanish mumkin. Bitirish va kirish imtihonlarida programmalashtirilgan testlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Test varianti qancha ko'p bo'lsa, sinov natijasi shuncha ob'ektiv bo'ladi Kasbiy ta'lim yo'nalishlari talabalarni ilg'or pedagogik texnologiya va uni o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli axborotlar bilan qurollantirish maqsadida yaratilgan. Testshunoslik asoslari mazmunini yoritishda uning odatdagi o'qitish usullaridan farq qiluvchi jihatlari, O'zbekiston ta'lim tizimiga uni joriy etishning ahamiyati, test topshiriqlari shakllari, ularni tuzish hamda pedagogik texnologiyaning tamoyillari va qoidalari, o'quv materialini to'la o'zlashtirish g'oyasini vujudga kelishi va uning amalga oshirish usullari bayon etilgan. Har bir mavzuga oid

mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar va turli shakldagi nazorat testlari berilgan. Tuzilgan test topshiriqlari faqatgina o'zlashtirishni nazorat qilibgina qolmay, balki o'rgatuvchi (o'qituvchi) funksiyani ham bajaradi. Chunki, bu test topshiriqlarini yechish jarayonida mavzularni mustaqil ravishda o'zlashtirishga ham erishiladi. Mazkur o'quv qo'llanmaning navbatdagi mavzularida aks ettiriladigan materiallarda testologiyaning psixologik jihatlari nuqtai nazardan yondashiladi. Testologiya fanlar tizimidan fan bo'lganligi sababli, u psixologik, pedagogik, tibbiy, kibernetika va hatto texnika sohalarida ham mansub tomonlari mavjud. Testologiyaga psixologik jihatdan yondashganda psixodiagnostika fani bilan uyg'unlashtirishga va tayanish lozim bo'ladi.[1]

Inson zehni va aql zakovatini tekshirish masalasi tadqiqotchilarning bir necha asrdan buyon qiziqtirib kelmoqda. Bu qiziqishlar natijasida fanda aql yoshi, intellektuallik koeffitsient va ularni o'lchash vositalari vujudga keldi. Ushbu ilmiy izlanishlarning tarixiy tajribasi o'sib borayotganligi sababli masalaga yondashuvlar soni ham ortib bomoqda. Shu bois intellektuallikning o'lchash vositalari sifatida qator faktorli yondashuvlar mavjudki, ulardan biri raqamli testlar faoliyati bilan bog'liqdir. Inson zehni raqamli testlar yordamida o'rganish topshiriqlarining cheksiz imkoniyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu holatni inobatga olgan holda raqamli testlarni tuzish borasida tadqiqotlarga zarurat seziladi. O'zbekistonda juda kam tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shuning uchun ham uni amaliyotga tadbiq etish hozirgi kun yoshlarining aql zakovatiga, bilim darajasiga bog'liqdir. Raqamli testlar chet el psixologiyasida juda keng qo'llaniladi. Misol tariqasida Gans Ayzenkning IQ testlarini keltirishimiz mumkin. Bu test orqali insonning intellekt va IQ darajasini o'lchash mumkin. Ayzenkning intellektual testi 18 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan odamlar uchun mo'ljallangan. Chunki aynan shu yoshda odamning aqliy qobiliyatlari o'rtacha qiymatga yetgan deb hisoblanadi. Hozirgi vaqtda Ayzenkning IQ testlari 8 ta variantda taqdim etilgan bo'lib, ularning aksariyati insonning intellektual qobiliyatlarining umumiy darajasini belgilaydi. Ayzenkning klassik testi test oxiriga kelib

qiyinlashadigan vazifalardan iborat. Amaliyotda javoblar raqam, harf yoki soʻz bilan berilishi mumkin. IQ testlari normal taqsimotga koʻra oʻrtacha IQ 100 ga teng va 50% odamlarning IQ 90 dan 110 gacha va 25% 90 dan 110 gacha va undan yuqori koʻrsatkichlarga ega boʻlishi uchun ishlab chiqilgan.[2]

Qadim zamonlardan beri odamlarning bilim va koʻnikmalarini nazorat qilish olimlar uchun dolzarb mavzu boʻlib kelgan. Amalda, bu Xitoyda birinchi marta sodir boʻladi. Rasmiylarning intellektual qobiliyatlarini sinab koʻrish va ularni konfutsiylik taʼlimotiga singdirish maqsadida imtihonlar oʻtkaziladi. Bu imtihonlar uzluksiz oʻtkazildi.[3] XIX asrgacha odamlarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va boshqarishning oʻziga xos modeli yoʻq edi. Hamma individual usuldan foydalangan. Baʼzida, bir qarashda, oddiy koʻrinadigan fakt insonning intellektual qobiliyatini ochib berishi mumkin edi.[4]

Insonning intellektual darajasini oʻlchash mumkin degan fikr XIX asrda paydo boʻlgan. 80 -yillarda XIX asr ingliz olimi Frensis Galton intellektual saviyasi yuqori boʻlgan odamlarni tanlash uchun test yozish gʻoyasini ilgari surdi. 1912 yilda Stern bu testlarni IQ deb atadi. IQ - bu odamning aql -idrok darajasining miqdoriy bahosi: oʻrtacha yoshdagi odamning aql -idrok darajasiga nisbatan aql darajasi.[9]

IQ bu odamning aql -idroki boshqalarga qaraganda qanchalik yorqin namoyon boʻlishini koʻrsatadigan raqam bilan ifodalanadi. Oʻrtacha IQ darajasi, taʼrifi boʻyicha, 100 ballga teng. Agar olingan ballar yigʻindisi 100 dan oshsa, tekshirilgan odamning intellekti oʻrtacha darajadan yuqori; agar 100 dan kam boʻlsa, aql darajasi oʻrtacha darajadan past boʻladi. Nazariy jihatdan, ballar miqdori 100 boʻlguncha oʻzgarishi mumkin. Aksariyat odamlar 100 ballga juda yaqin ball toʻplaydilar. Aslida, odamlarning koʻpchiligini IQ darajasi 90 dan 110 gacha. IQ testlari aynan shu umumiy qobiliyatni aniqlashga, har xil turdagi intellektual vazifalarni va ularni hal qilish samaradorligining oʻrtacha umumiy koʻrsatkichini taklif qilishga qaratilgan.[10]

Olimlarning tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, vaqt oʻtishi bilan odamlarning intellektual qobiliyatlari oshadi. Bu oʻsish soʻnggi 50 yil ichida tezlashdi va dalillar shuni

ko'rsatadiki, maktablarda mantiqiy fikrlashni rivojlantiradigan IQ testlari va topshiriqlari qo'llaniladigan mamlakatlarda intellektual qobiliyatning o'sishi sezilarli darajada oshgan.[11] Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida talabalarning mantiqiy tafakkuriga katta e'tibor beriladi. Bolalarning mantiqiy tafakkuri bolalar bog'chasidan rivojlana boshlaydi va maktabda bu rivojlanish zanjiri buzilmaydi.[12] Hozirda Ozarbayjonda bu sohada juda ko'p ishlar qilingan. Mana, pedagogika fanlari doktori Xumei-ir Axmedov bu haqda nima yozadi: "Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ularning muammolarini hal qilish uchun yanada samarali choralar ko'rish zarur. Qabul qilingan qonunda yoshlar siyosatining asoslari ham hisobga olingan. Yoshlarning ijodiy salohiyati ijodiy kuchga ega bo'lishi kerak"[13]. Hozirgi vaqtda Evropaning ko'p qismi va Amerika universitetlari IQ ni qo'llaydilar. [14]

O'zbekistonda ham IQ testlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiq etish hozirgi kun ilm fan taraqqiyoti uchun muhim yutuqlaridan biri bo'lishi mumkin. Shu orqali yoshlarning intellektual darajasini o'lchash va yanada yuqori qilish imkoni mavjud. Albatta raqamli testlar tuzish va rivojlantirish uchun pilotaj tadqiqotlarni o'rni ham juda muhim. Tadqiqotlar orqali testni rivojlantirish texnologiyasini va uni qonuniylashtirish, mualliflik huquqini olish psixodiagnostika foydalanishga imkon beradi va yanada qulaylik tug'diradi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda test ishlab chiqish texnologiyasini yaratish va uni amaliyotga tadbiq etish hozirgi kunning dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

[1] А.И. Расулов Тестология ўқув қўлланма Тошкент 2019

[2] А.И. Расулов Психодиагностика Тошкент 2019

[3] Н.А.Батурич А.Ю.Попов "Методы контроля за качеством психодиагностических методик на основе стандарта требований к психодиагностическим методикам"

[4] Н.А.Батурич Н.Н.Мельников "Технология разработки тестов: Часть VI"

- [5] Н.А.Батурич Н.Н.Мельников “Технология разработки тестов: Часть V”
- [6] Н.А.Батурич Н.Н.Мельников “Технология разработки тестов: Часть II”
- [7] БАТУРИЧ Николай Алексеевич (д. психол. н., проф. ЮУрГУ, Пситест, Челябинск, Россия)
- [8] Интернет маълумотлари
- [9] Panferov, V.N. Inson psixologiyasi / V.N. Panferov. M .; SPb: Piter Kom, 2002.- S. 207.
- [10] Drujinin, V.N. Umumiy qobiliyat psixologiyasi / VN Drujinin. - SPb: Piter Kom, 1999.- S. 154.
- [11] Beylarov E.B. Talabalarning umumiy intellektual darajasini rivojlantirish uchun testlardan foydalanish. Diss. Kandid. ped. fanlar. / Beylarov Elxan Beylar o'g'li. - Ba-ku, 2005 .-- S. 71 (ozarbayjon tilida).
- [12] Psixologiya: darslik. gumanitar fanlar uchun. universitetlar, 2 -nashr. / jami ostida. ed V.N. Drujinin. - SPb.: Piter, 2009.- S. 235.
- [13] Axmedov, G.G. Ozarbayjon ta'limining rivojlanish strategiyasi / G.G.Ahmedov. - Boku: Elm, 2010.- S. 389 (ozarbayjon tilida).
- [14] Fattayev, F.M. Mantiqiy testlar / F.M. Fattayev, G.N.Babaeva. - Boku: Mutardjim, 2010 .-- S. 3- 4 (ozarbayjon tilida).

**TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOGIK FAOLIYATINI
BOSHQARISHDA ZAMONAVIY RAHBARNING PEDAGOGIK-
PSIXOLOGIK MAHORATI**

Umarov Nodirbek Nasirdin o'g'li

Navoiy davlat pedagogika instituti pedagogika va psixologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ta'lim muassasalari pedagogik faoliyatini boshqarishda zamonaviy rahbarning pedagogik-psixologik mahorati, pedagogik faoliyatda ilmiy rivojlanish reytingi yuzasidan SWOT-tahlil o'tkazish masalalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik jamoa, strategik reja, zamonaviy rahbar, inson resursi, SWOT-tahlil, demokratik va avtokrat boshqaruv, rasmiy va norasmiy me'yorlar.

Boshqaruvda mehnat jarayoni o'zaro munosabatga kirishuvchi odamlarga mos ma'lum qoida, me'yor doirasida amalga oshadi. Jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan mehnat munosabati, odatda qonun orqali mustahkamlanadi. O'zaro munosabatlarning turli me'yoriy jihatlari ushbu tarmoq, hudud, tashkilot, korxon bo'limi, alohida xodim darajasida o'z xususiyatini topadi. Zamonaviy yondoshuvlardan biri - inson resurslarini rivojlantirish konsepsiyasi bo'lib, bunda ta'lim muassasasi manfaati yo'lida xodimning o'z tashabbusi bo'yicha samarali mehnat qilishi uchun yaratiladigan sharoitlar markaziy masala deb qaraladi. Boshqaruv o'z tasarrufidagi boshqariluvchi bo'lakka muntazam, rejali va maqsadga yo'nalgan tarzdagi ta'sir kuchiga ega. Bunday o'zaro faoliyat tizimning ishchanlik qobiliyatini ta'minlaydi. Ta'lim muassasalarini pedagogik faoliyatida tadqiqotlar, kibernetika fanining yuzaga kelishi tufayli murakkab tuzilmani boshqarishning ilmiy asoslangan tavsiyalari amaliyotga tatbiq etila boshlandi.

Boshqaruv bilimlari ko'p jihatdan davr ehtiyojini aks ettiruvchi asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Boshqaruv jarayoni, bir tomondan, ta'lim muassasasi pedagogik

faoliyati yaxlitligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, uni yanada takomillashtirish va rivojlantirish imkonini beradi.

Pedagogik jamoani boshqaruvida psixologik holatlar, ta'lim jarayoni va uning vazifalarini hisobga olish lozim. Pedagogik jamoani tarkibiga e'tibor beradigan bo'lsak, unda o'qituvchilar, o'quvchilar va ularning ota-onalarini tashkil etadi, demak ularning psixologiyasi bilan tanishib borishni talab qiladi.

Pedagogik jamoaga moslashuv ishga yangi kelgan yoki o'zgargan mehnat sharoitlariga ko'nikishni nazarda tutadi. Pedagogik jamoaga rahbar xodimning yangi jamoasiga qanchalik tez moslashishi, uning samarali mehnat faoliyatini erta boshlab yuborishidagi asosiy omil hisoblanadi. Ammo, o'sha jamoaning psixologik iqlimi yangi kelgan rahbarga ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Masalan, biron-bir kishi rahbarlikka tayinlanar ekan, yangi rahbardan jamoa demokratik yoki avtokrat boshqaruv uslubini kutishi mumkin. Bu kutuvlarga mos kelish yoki kelmaslik darajasi ko'p jihatdan yangi rahbar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilab beradi. Hatto, xodimlar beixtiyor, yangi kelgan rahbarni eskisi bilan taqqoslab unga tavsif berishga ham moyil bo'lishadi.

Odatda yangi lavozimni taklif etishar ekan, "Bir o'ylab ko'ring", deb xayrlashishadi. Taklifni qabul qilgan shaxsning "o'ylash" jarayonini esa yangi rolga o'zini chamalash deb atash mumkin. Agar shaxs rolni qabul qila olishiga ko'zi yetsa, taklifga rozi bo'ladi, agar bu ikkilanishga olib kelsa, o'zi bilan ushbu rol orasida katta farqni sezgan bo'ladi. Shuning uchun yangi lavozimga moslashishning sifatli o'tishi qator tadbirlarni talab qiladi. Bu sohadagi birlamchi vazifa – ushbu rolga qo'yiladigan talablarni aniqlab olishdir. Bu jarayon qanchalik puxta o'tsa, rolni qabul qilish shunchalik oson kechishi mumkin.

Zamonaviy rahbar jamoa bilan muloqotda bo'lar ekan, ularga xos xususiyatlarni bilishi va undan boshqaruv faoliyatida unumli foydalanishi lozim. Rahbar qanday jamoaga rahbarlik qilmasin birinchi navbatda jamoada ahillikni yuzaga keltirishi shart, buning uchun quyidagi shart-sharoit zarur:

- jamoada iliq kayfiyat uyg‘otishi;
- jamoaning qadriyatlari, qarashlaridagi o‘zaro moslik shakllanishi;
- ado etilayotgan ish yuzasidan o‘zaro aloqaning mavjudligi;
- qaror qabul qilishda barchaning ishtiroki va xodimlar manfaatiga yo‘nalgan boshqaruv uslubi;
- barchaning manfaat va qiziqishlariga bir xil e‘tibor, jamoadagi ijtimoiy tenglik va adolat.

Zamonaviy rahbar ushbu sanab o‘tilgan shart-sharoitni rivojlantirish orqali jamoa a‘zolari o‘rtasidagi ahillikni kuchaytirishi mumkin.

Bugungi kundagi zamonaviy rahbar ijtimoiy psixolog bo‘lmisligi mumkin emas. Rahbar, xoh u xalqaro muzokaralarda bo‘lsin, xoh o‘z jamoasini boshqarishda bo‘lsin, muloqot ob‘yektida o‘zi haqida ijobiy taassurot uyg‘ota olishi va bu orqali o‘zgalarga ta‘sir o‘tkazish mahoratini o‘rganishi lozim.

Ta‘lim tizimidagi har bir o‘qituvchi va talaba o‘z intilish va maqsadlariga ega. Pedagogik jamoani boshqarish, avvalambor, uning tarkibiy qismi bo‘lmish xodimlarning xususiyatini inobatga olishni talab qiladi. Ta‘lim tizimida turli xarakterli xodimlar yagona maqsad sari uyushadilar va bunda rahbarning asosiy vazifasi shu turli-tumanlikni yagona yo‘lda birlashtirishdir. Rahbar har bir o‘qituvchi, talabalar va ularning ota-onalari bilan bir qator suhbatlar olib borar ekan, demak, u pedagogik bilimlar tag‘ribotchisi hamdir.

Har qanday boshqaruv vaziyati intellektual mazmun kasb etadi, negaki yuzaga kelgan muammoni boshqarish mavjud resurslardan o‘rinli foydalanishni, inson ongi, tafakkuri va xulqiga ta‘sir ko‘rishni taqozo etadi. Pedagogik boshqaruvda samaradorlikka erishish uchun modellashtirish va prognozlashtirishdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Boshqaruvda rahbar o‘zi yuksak kasbiy mahorat va natijani oldindan ko‘ra bilish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Bu jamoani faoliyat yuritishida va istiqbol rejalarini belgilab olishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Shu bois muassasada doim

o‘zining imkoniyatlarini tahlil qilib borish maqsadga muvofiq bo‘lib hisoblanadi va muassasaning SWOT-tahlili o‘tkazib boriladi:

**Oliy ta‘lim muasasalari pedagogik faoliyatida ilmiy rivojlanish reytingi
yuzasidan SWOT-tahlil**

1.STRENGTHS- Kuchli taraflari	2.WEAKNESSES-Ojiz taraflari
-har bir professor - o‘qituvchining institut reytingini oshirishdagi hissasi qamrab olinganligi; -professor-o‘qituvchilarning imkoniyatiga qarab taqsimlash mumkinligi; -ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi professor-o‘qituvchilarga keng imkoniyatlar mavjudligi; -assistent o‘qituvchilarga ilmiy izlanishda global imkoniyatlar berish mumkinligi; -reytingni oshirishda katta tajribalar va izlanishlar talab qilinishi va uning jamoada mavjudligi; - bajariladigan ilmiy izlanishlarda plagiatlar paydo bo‘lishini oldi olinishi	-mintaqalar bo‘yicha hududlarga ajratish tashkil etilmaganligi; - Nobel mukofotini olish imkoniyatining judayam kichikligi; - Davlat mukofotlarini olgan bitiruvchilar bo‘yicha shartni o‘ta katta qo‘yilganligi va 10% reyting olish imkoni juda kamligi; - mukofotni olgan xodimlar bo‘yicha shartni murakkab qo‘yilganligi va 20% reyting olish talabi o‘ta yuqoriligi;
3.OPPORTUNITIES-Imkoniyatlari	4.THREATS-Tahdidlar
-professor-o‘qituvchilarning mas‘uliyatini oshirishda muhim omil; -professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida o‘zaro ilmiy izlanishlarni amalga oshirish imkoniyatlari;	-OTMlarini chop etiladigan ilmiy maqolalar uchun moddiy qo‘llab quvvatlashidagi byudjetdan tashqari mablag‘larni yo‘naltirishdagi muammolar;

-ilmiy izlanuvchilarni xalqaro kompleks kasbiy shakllanishi uchun xizmat qiladi; - Magistrlik dissertatsiyalari va BMillari bo'yicha tadqiqotlari bo'yicha maqola chop qilishni tashkillashtirish; - Nature va Science jurnallaridagi nashrlarda e'lon qilingan eng sifatli maqolalarni tanlovlarini o'tkazish	- OTMdagi server bazasiga bo'ladigan tasodifiy va qasddan ta'sirlar; - Administratorlarning ko'p almashinuvi; - Viruslarning ta'siri; - manbalarni joylashdagi pala-partishlik, ijrochilarning mas'uliyatsizligi;
--	--

Bunday ta'lim muassasalarining pedagogik faoliyatidagi strategik rejalar amalga oshishi va maqsadlarga erishish ko'p jihatdan jamoaning yetukligi va «Sog'lomligiga» bog'liq. Tashkilotni maqsad sari yetaklashda rahbariyat tomonidan rasmiy va norasmiy ravishda kiritiluvchi qoida va me'yorlar ishlab chiqilganligi va unga amal qilishligi ham ma'lum bir jihatdan rahbar va jamoa madaniyatini belgilab beradi.

Tarbiyaviy metodlar xodimlarga ularning ijtimoiy ehtiyojlari va psixologik o'ziga xosliklari orqali ta'sir ko'rsatadi. Ular mehnat jamoasida qulay psixologik "iqlim"ni yaratish bilan xodimlar o'rtasidagi munosabatni tartibga solishga yo'naltirilgandir. Pedagogik-psixologik metodlarga quyidagilar kiradi: kichik boshlang'ich ishlab chiqarish jamoalarini yig'ish, mehnatni ijtimoiylashtirish, kasb tanlash va kadrlarni o'qitish, mehnat hamda ijtimoiy faollikni oshirish.

Inson faoliyati aniq maqsadga erishishga yo'naltirilgan. "Motiv-maqsad" munosabati inson faoliyati o'zagidir. Umumiy ma'noda, motiv – odamni faoliyatga undaydigan maqsad - mazkur faoliyat natijasida erishishga intiladigan bosqichdir. Shunday qilib, motiv inson xulqining ichki harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Insonning ishga munosabati, uning hayotdagi muvaffaqiyatlarining umumiy darajasi motivatsiya darajasiga bog'liq. Rahbarning eng muhim xislati – odamlar faoliyati

motivlarini tahlil qila bilish, har bir kishining kelajagini oldindan ko‘rish, mutaxassisni muayyan ishni bajarishga qiziqtirish, uning tabiiy moyilliklarini hisobga olishdir.

Shunday qilib, boshqarish metodlari rahbarning qo‘l ostidagi xodimlariga ta’sir etish usullari yig‘indisi bo‘lib, bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqdir. Ma’muriyat bir metodni qoldirib, faqat ikkinchisidan foydalana olmaydi. Jumladan, buyruq va farmoyishlarni ularning iqtisodiy oqibatlari va mehnat jamoasi kayfiyatini hisobga olmay turib, dabdurustdan chiqarib yuborish maqsadga muvofiq emas. Iqtisodiy yangiliklarni ham ularni huquqiy rasmiylashtirmasdan, tegishli ma’muriy farmoyish bermay, shuningdek, mutaxassislar fikrini bilmay turib tatbiq etish mumkin emas.

Ta’kidlash joizki, ta’lim muassasalarini innovatsion rivojlantirishda ta’lim insonni rivojlantirishning eng muhim omili sifatida har qanday mamlakatda hozirgi davr uchun munosib bo‘lgan aholi turmush darajasi va sifatiga erishish, ish bilan samarali bandlikni ta’minlash, barqaror rivojlanish, ijtimoiy tengsizlik darajasini pasaytirish, fuqarolik jamiyati tarkibini mustahkamlash, inson huquqlariga rioya etish va ularni samarali amalga oshirish, shaxsning imkoniyatlarini to’la va har tomonlama ro‘yobga chiqarish uchun shart sharoitlar yaratish kabi gumanitar muammolarni hal qilishga katta ta’sir ko’rsatadi.

Ўзанинг районлашган ва янги навларининг уруғлик сифатини ўрганиш

Абатбай Сейтмусаев, Паруаз Нуратдинова

(Нукус, Ўзбекистан)

Маълумки, ҳукуматимиз томонидан чиқарилаётган бир қатор қонун ва қарорлар ўза навларини жойлаштириш ва янгилаш жараёнида уруғчилик хўжаликларининг вазифалари, юқори сифатли ҳосил гарови бўлган уруғчиликни яхши йўлга қўйиш, уни жаҳон андозаларига мос келадиган даражада ривожлантиришга қаратилган. Бу борада ҳар бир навнинг уруғлик сифатини ошириш ҳамда уни етарли даражада тайёрлаб бериш - асосий тадбирлар тизими ҳисобланади. Чунки, юқори сифатли уруғлик қишлоқ хўжалигида энг муҳим маҳсулотлардан бири бўлиб, пахта ҳосилдорлиги ва тола сифати кўп жиҳатдан унга боғлиқ. Селекционер олимлар томонидан яратилаётган ўза навларини олдиндан уруғлик сифатини ўрганиб, уни янада ошириш йўллари излаб топиш, уларни ишлаб чиқаришга жорий этиш юқори сифатли уруғ тайёрлашнинг муҳим ва ишончли омили бўлиб қолмоқда. Юқоридаги талабни тўла-тўқис бажариш ва чигитнинг уруғлик сифат кўрсаткичларини яхшилаш учун авваламбор экишдан олдин уларни физик, кимёвий ва бошқа омиллар билан ишлов бериш керак бўлади. Ўз навбатида, юқори сифатли уруғлик етиштириш ўзанинг ўсиш шароитига, унинг биологияси, агротехникаси ва экиш муддатлари каби бир қатор бошқа омилларга ҳам боғлиқдир.

Бироқ, ҳозирги вақтда уруғлик чигит сифати ва самарадорлигини оширишнинг турли йўллари излаб чиқиш, уларни амалиётга тадбиқ қилиш юзасидан амалга оширилган ишлар жуда кам. Шунингдек, ўза уруғчилиги бўйича олиб борилган тадқиқотлар аксарият ҳолларда тарқоқ характерга эга бўлиб, чигитнинг униб чиқишини муҳим томонлари, ҳосилдорлик хусусиятларининг юқори даражасини таъминловчи, уруғлик сифатини барқарорлаштирувчи усуллар эътибордан четда қолмоқда.

1.1. Уруғлик чигит сифатига турли омилларнинг таъсири

Республикамыз қишлоқ хўжалигининг Пахтачилик соҳасида ҳозирги кундаги долзарб муаммолардан бири юқори ва сифатли ҳосил олиш бўлиб, Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 23 декабрдаги 604-сон қарори “Ўза уруғчилигини ташкил этишни такомиллаштириш чора тadbирлари тўғрисида” қарори, 1997 йил Пахтачилик бўйича Халқаро Ташкилотнинг 55 – ялпи мажлисида Ўзбекистон Республикаси Президенти ўз маърузасида: “Ўза жуда катта имкониятларга эга бўлган ноёб экинлардан биридир. Шу сабабли пахта фақат толани қайта ишлаш эвазигина эмас, бошқа жihatларидан ҳам Ўзбекистон иқтисодиёти учун жуда катта аҳамиятга эга” деб таъкидлаган эди

Маълумки, ер юзидаги ўсимликлар генофонди, айниқса, маданий ўсимликларнинг кўпайиши ҳамда сақланиб қолганида уларнинг уруғ ҳосил қилиши асосий омил ҳисобланади. Ўсимликларнинг уруғ ҳосил қилишдек муҳим биологик хусусияти, нафақат авлоднинг давом этишида, балки бақувват ўсиб ривожланишида ҳам муҳим аҳамиятга эга. Айниқса, қишлоқ хўжалик экинлари учун уруғнинг аҳамияти беқиёс бўлиб, кўп ҳолларда ушбу экинлардан олинadиган ҳосил салмоғи ва унинг сифати уруғликка боғлиқдир.

Уруғликнинг сифати ва унинг ҳосилдорликка таъсири юзасидан кўпчилик олимлар изланишлар олиб боришган ва ўз фикрларини баён этишган

Бошқа экинларнинг уруғи каби пахта чигити ҳам тирик организм ҳисобланиб, унинг муртагидан бўлғуси ўсимлик ривожланади. Ўсимликнинг барча биологик, хўжалик ва наводорлик белги-хусусиятлари унинг уруғида сақланади.

Илмий изланишлар ва амалиётдаги тажрибалар шуни кўрсатадики, ўзада ҳосилдорлик ва тола сифатининг юқори бўлиши аксарият ҳолларда уруғлик ашёнинг тозалиги, тўлиқлигига ва уни етиштириш шароитига боғлиқ

Уруғлик чигитнинг сифатини белгиловчи асосий кўрсаткичлардан бири унинг абсолют вазни ҳисобланади. Ҳозирги вақтда селекционер олимлар томонидан яратилган ва яратилаётган гўза навларининг ҳосилдорлиги, чигитнинг униб чиқиш қуввати ва унувчанлиги ҳамда чигит мойдорлигини юқори бўлишида 1000 дона чигит вазни катта аҳамият касб этмоқда. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, йириклигига ва вазнига кўра саралаб олинган уруғдан етиштирилган пахта ҳосилдорлиги 15-20 фоизгача ошиши мумкин. Жумладан, уруғлик қанчалик тўлиқ бўлса, унинг таркибида ўсиб чиқувчи куртакни илк фазаларда керакли озуқа моддалари билан тўлиқ таъминлаш учун етарли даражадаги озуқа захиралари яратилган бўлади.

Р.Ахмедов, Э.Ҳасанов, Х.Қаршибоев, Ш.Шариповларнинг [21] изланишларида баён этилишича, навларнинг чигити қанчалик йирик ва тўлиқ бўлса, уларнинг лаборатория ва дала унувчанлиги ҳам шунчалик юқори бўлади. Далаларда тўлиқ кўчат олиш имконияти ортади. Натижада, ҳосилдорликнинг юқори бўлишига замин яратилади.

Мақбул агротехника шароитида юқори сифатли ва вазни оғир бўлган уруғларни етиштириш мумкин. Бундай уруғларнинг унувчанлиги яхши бўлиб, юқори ҳосил яратиш имконини беради.

Илмий адабиётларда келтирилишича, 1000 дона чигит вазнига бошланғич ашё сифатида иштирок этаётган намуналарнинг ирсияти, етиштириш шароити ва бошқа омиллар катта таъсир кўрсатади. Масалан, М.Турдиев, И.Эгамов, Б.Азизовлар [133] ўз тажрибаларида уруғлик чигитга экишдан олдин ПАБК, Стимул-1 ва Гумат-На-К стимуляторлар билан ишлов бериб, бу моддаларнинг уруғ сифат кўрсаткичларига таъсирини ўрганишган. Натижада, ўсишни бошқарувчи ушбу моддалар таъсирида назорат вариантга нисбатан ниҳолларни униб чиқиши 10-30 % га, ҳосилдорлиги эса 2-3 ц/га, битта кўсакдаги пахта вазни 0,2-0,7 г ва 1000 дона чигит оғирлиги 2-14 г га ортиши аниқланган.

NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARIDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

Jamolova Shoira Uyg'un qizi

BuxDU talabasi

Annotatsiya. Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini bu maktabgacha ta'lim tizimidir. Yosh avlod aynan mana shu yerda ilk aqliy tarbiyaning tamal toshini qo'yib nutq, muloqot malakasini o'zida shakllantiradi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini shakllantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati haqida qisqacha bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Nutq, muloqot, didaktika, aqliy tarbiya, nafosat, o'yin.

Til jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi kuch va millatning mavjudligini ko'rsatuvchi belgidir. Til aloqa vositasi yoki quroli, nutq esa aloqa jarayonining o'zi hisoblanadi. Nutq faoliyati inson tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribalarni o'zlashtirish va kommunikatsiya o'rnatish yoki o'z harakatlarini rivojlantirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir

O'yin inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin deyarli har doim farovonlikni, ijobiy hissiyotlarni keltirib chiqaradi. Eng muhimi, didaktik o'yinchoqlar yordamida o'yinlar bo'lib, ular davomida qo'llarning nozik matorikalari mustahkamlanib, rivojlantiradi. Bu bolalarning aqliy rivojlanishiga eng qulay ta'sir ko'rsatadi, qo'llarni yozishga tayyorlashga yordam beradigan usuldir. Ko'pgina didaktik o'yinlar madaniy va gigiyena ko'nikmalarini shakllantiradi. O'yinda bolalar turli xil his-tuyg'u ifoda etadilar, hamma narsani birgalikda, ya'ni jamoa bo'lib bajarishga intilishadi. Stol o'yinlari bolalar va ko'plab kattalar uchun qiziqarli jarayon. Asosiysi, bunday o'yinlarni o'zingiz ixtiro qilishingiz va o'zingiz qilishingiz mumkin. Bolaga yo'naltirilgan ta'limning mazmuni innovatsion

texnologiyalar orqali “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi asosida to’liq bajarishga qaratilgan. Bu zamonaviy pedagogik texnologiya sifatida ta’lim–tarbiya jarayonini ko’proq muloqot va mashqlarga asoslangan o’yin-mashg’ulotga aylantirib, tarbiyachilarni yangicha usullardan foydalangan holda ishlashga undaydi. Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilariga ta’lim berishni turli o’yinlarsiz tasavvur etib bo’lmaydi. Zero, o’yin maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta’lim birga uzviy aloqada bo’lib, yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo’ladi. Nutq o’stirish mashg’ulotlari uchun juda ko’p didaktik o’yinlar yaratilgan. Didaktik o’yinlar uch toifaga bo’linadi.

-Stol o’yinlari

- Buyumlar bilan o’yinlar (tabiiy materiallar, o’yinchoqlar),

- So’z o’yinlari.

Xususan so’z o’yinlari bolalar nutqini rivojlantirishda asosiy ahamiyat kasb etadi. Misol uchun: “L” va “R” guruhi o’yini. Ushbu o’yin bolalarda l va r tovushlarini farqlashga va ularni yozish jarayonida xatolarga yo’l qo’ymaslikka o’rgatadi. o’yin sharti quyidagicha bo’ladi: bolalarni ikki guruhga bo’lamiz, birinchi guruh bolalaridan biri l tovushi ishtirok etgan so’zlarni, ikkinchi guruh bolalaridan biri esa r tovushi ishtirok etgan so’zlarni aytishlari kerak. Kimda kim so’z aytishdan to’xtab qolsa yutqazgan hisoblanadi va keying guruh a’zosiga navbatni beradi. O’yin shu tariqa davom etadi. Kichik guruhlarda “Bilimdon bolajon” o’yinini qo’llash mumkin. Bu o’yin ham bolalarni to’g’ri talafuz qilishga va hozirjavoblikka o’rgatadi. Bolalarga oldindan tayyorlab qo’yilgan suratlar ko’rsatiladi. Ishtirokchi suratni oladi va unda ko’rsatilgan narsaning nomini aytadi. Har bir suratda albatta R va L harflari ishtirok etgan so’zlar bo’lishi kerak. Masalan: stul, fudbol, qulupnay, pomidor, bayroq, svetafor, bola, malina, shakar, karam, arra, duradgor, jo’xori, olma, stol, raketa. Bundan tashqari: katta va maktabga tayyorlov guruhlarida o’tiladigan nutq o’stirish mashg’ulotida “Gap tuz” o’yinini qo’llash mumkin. Bu o’yin orqali katta va maktabga tayyorlov guruh bolalarida mustaqil fikrlashni va mustaqil gap tuza olish ko’nikmasini

shakllantirish mumkin. O'yinda tarbiyachi so'z aytadi, qaysi ishtirokchi tayyor bo'lsa, qo'l ko'tarib o'zi tuzgan gapni aytishi mumkin. Ikkita bir xil gap qabul qilinmaydi. Masalan:olma-savatda olma, tarvuz-qizil tarvuz, muzqaymoq-shokoladli muzqaymoq, kitob- qiziqarli kitob va hokazolar. Shunday qilib:

- o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi,
- o'yin maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;
- o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya beishning metod va usulidir;
- o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

O'yin bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, nutq o'stirish mashg'ulotlarida didaktik o'yinning tutgan o'rnini juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinni to'g'ri tanlay bilishi, unga to'g'ri rahbarlik qilishlari "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi va Maktabgacha ta'lim davlat talablarida belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Erxonova N., Ro'ziyeva Z. Tarbiyachi kitobi. Toshkent, "Davr press", 2019
2. Qodirova F., Toshpo'latova SH., Kayumova N., A'zamova M., Maktabgacha pedagogika. "Tafakkur" nashriyoti. Toshkent -2019.
3. <https://reja.tdpu.uz>.
4. www.aim.uz

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ПРОЕКТИРОВАНИЯ В РАЗРАБОТКЕ ДИЗАЙНА ОДЕЖДЫ НА НЕ СТАНДАРТНУЮ ФИГУРУ

Зокирова Шахло Рустам кизи

Магистр 1-курса Национальный институт художеств и дизайна имени
Камолиддина Бехзода

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы, связанные с проектированием модной женской одежды больших размеров. Категория потребителей, нуждающаяся в такой одежде, составляет значительную долю в общей численности населения. Однако рынок модной одежды в настоящее время не обеспечивает в должной степени удовлетворение этого спроса. В последние годы все больше дизайнеров ориентируются на проектирование коллекций одежды расширенного размерного ряда, условно выделенной в сегмент «plus size».

Ключевые слова: модная индустрия; женская одежда больших размеров; размерная типология.

По мере развития общественного производства, научно-технического прогресса и роста культурно-образовательного уровня человека растет и расширяется круг его потребностей: материально-вещественных, социальных, культурных, интеллектуальных, гуманитарные и др. Повышаются требования к количеству и качеству товаров и услуг. Их удовлетворение способствует всестороннему развитию личности. При этом растущие потребности человека служат основой сохранения и прогрессивного развития всего общества. Одежда, являясь важным фактором формирования внешнего вида человека, влияет на эстетическое восприятие его другими людьми, на его имидж. Как показали многочисленные исследования, одежда несет не только имидж формирующую

информацию, но и отражается на самоощущении и самооценке, внутренней культуре, настроении и здоровье, взаимодействии с окружающими, меняет приоритеты и вкусы, имеет большое значение в продвижении человека по карьерной лестнице и др. Современные представления об идеальных параметрах женского тела кардинально отличаются от тех требований, которые предъявляли к девушкам в прошлые столетия. Однако и сегодня, однозначного ответа на вопрос какое тело можно считают совершенным, красивым и модным не существует. Выполнение эстетических функций достигается созданием одежды, соответствующей внешнему образу человека, его антропометрическим, анатомо-физиологическим, социально психологическим характеристикам, соответствием современному стилю и условиям жизни общества. Сегодня модная индустрия предоставляет огромный выбор товаров, отвечающих самым разным вкусам. Тем не менее, наиболее доступной остается одежда массового производства, удовлетворяющая потребностям женщин с условно типовой фигурой. Те же из них, параметры фигур которых по каким-либо причинам заметно отклоняются от типовых размеров, вынуждены сталкиваться со сложностями в выборе одежды. К этой группе можно отнести и женщин с фигурами больших размеров, для которых в настоящее время условно выделен сегмент одежды «plus size». Эти женщины также хотят быть активными участниками рынка модной одежды, носить красивый, стильный и комфортный костюм. Данная категория потребителей составляет значительную долю в общей численности населения и, как свидетельствуют исследования, число людей с избыточной массой тела продолжает расти. В связи с этим изучение вопросов, связанных с проектированием одежды для женщин, имеющих фигуры больших размеров, актуально.

В последние годы все больше дизайнеров ориентируются на проектирование коллекций одежды расширенного размерного ряда. При этом предлагается широкий спектр фасонов и разноплановых стилей. Вместе с тем использованию

этнического стиля при проектировании одежды для полных женщин уделяется недостаточно внимания.

Целью данной работы явилось исследование особенностей проектирования женской одежды на полную фигуру. Основные направления работы:

- выделение характерных особенностей одежды;
- изучение направлений современными дизайнерами;
- изучение рынка женской одежды категории «plus size» и определение границ рассматриваемой категории размеров;
- анализ возможностей использования элементов при проектировании одежды для полных;
- поиск актуальных решений моделей одежды, отвечающих тенденциям моды.

Методы исследования. Методологической основой исследования послужил системный подход к проблеме проектирования современного костюма на полную фигуру, позволяющий рассматривать предметы и явления во взаимосвязи. Теоретическую основу исследования составили труды отечественных и зарубежных ученых в области антропологии, искусствоведения, конструирования одежды, а также положения теории дизайна и художественного проектирования костюма.

Сегмент женской одежды «plus size» в современной модной индустрии. На сегодняшний день ни у зарубежных, ни у отечественных производителей нет единого представления о том, какой размер одежды считать «большим». Модная индустрия определяет «большие размеры» интуитивно, по данным продаж, в результате к сегменту «plus size» часто относят 48–50 размеры одежды, в то время как в розничной торговле эти размеры относят к средним, наиболее востребованным. При массовом производстве одежды в нашей стране для разработки моделей женской одежды используются стандарты 1 и другие нормативные документы 2 разработанные ЦНИИШП. В них выделяются шесть полнотных групп, каждая из которых содержит по две размерные подгруппы.

Первая размерная группа заканчивается охватом груди 104 см, вторая начинается с охвата груди 108 см, что в торговой маркировке для потребителя соответствует размерам 52 и 54. Чаще всего именно с этих размеров формируется сегмент женской одежды больших размеров.

Так, интернет-магазин одежды для полных женщин «Леди Вог», обозначает эту группу одежды диапазоном 54–70, интернет-магазин «Гранд-Дама», реализующий женскую одежду больших размеров российских и зарубежных производителей предлагает размерный ряд с 52 по 80 размер. Размерная типология населения других стран, в частности европейских, отличается от типологии, принятой в нашей стране. В странах Европы в качестве главного размерного признака для женщин принят обхват бюста, а в качестве дополнительных параметров принимаются различные, в зависимости от вида одежды. Так для пальто дополнительным размерным признаком является рост, а для платья – рост, обхват бедер, обхват талий. Размер одежды обозначается буквами – S, M, L, XL и т. д. При сопоставлении значений параметров фигуры, при стандартных значениях размерных признаков и их интервалах безразличия 100(98–102) – 88(82–86) – 108(106–110) что соответствует обхвату бюста, обхвату талии, обхвату бедер, буквенный код размера одежды L (large – большой) подразумевает обхват бюста 98–106, что соответствует приблизительно 52 размеру. Таким образом, в своих исследованиях мы придерживались мнения, что к группе больших размеров можно отнести одежду, начиная с 52 размера.

Производство одежды больших размеров на данный момент развито недостаточно и в полной мере не отражает изменяющийся демографический потенциал. Однако рынок одежды «plus size» постепенно расширяется, и проблема отсутствия «регламентируемой» моды для полных фигур постепенно обретает решение. Так, в 2013 году прошла первая неделя моды для полных в Париже, получившая название «Pulp Fashion Week», цель которой была показать

обществу, что одежда больших размеров также может быть модной и красивой. Все чаще известные бренды включают в свои коллекции одежду сегмента «plus size». Это линии Violeta by Mango, H&M Plus, Persona by Marina Rinaldi, Asos Curve, Elena Mirò, SVESTA и др.

Линия Persona марки Persona by Marina Rinaldi предлагает универсальные образы, которые подходят для любой ситуации. В ассортимент входят брюки, блузы, платья, джинсы, юбки, верхняя одежда, аксессуары, обувь и др. Данный бренд выпускает одежду в расширенном размерном диапазоне. Простые силуэты, прямые линии отлично сочетаются с цветовыми контрастами и элегантным декором. Важным достоинством моделей Persona является отсутствие ярко выраженного стилевого выражения, что позволяет использовать их при активном образе жизни.

Линию одежды LOST INK Curve с расширенным размерным рядом предлагают дизайнеры Лондонского бренда Lostink. В основе их философии лежит мысль – «Неважно, какой у вас размер. Важно, какой у вас стиль». В ассортименте представлена одежда разных стилей, необычным декором, оборками, воланами, открытыми плечами, сочетая тенденции подиума и повседневный комфорт.

Одним из лидеров рынка женской одежды в сегменте «plus size» является российско-французская компания Svesta. Дизайнерам компании удается создать одежду, подчеркивающую своеобразную красоту полных женщин и отвечающую требованиям современной успешной женщины. Модели одежды подчеркивают индивидуальность, хорошо сидят по фигуре, учитывают сезонные тренды, подходят по стилю и сочетаются с другими компонентами гардероба. Дизайнеры бренда проектируют широкий ассортимент одежды (блузы, туники, джемперы, жакеты, футболки, брюки, юбки, платья), отдавая приоритет тканям на основе натуральных волокон. Таким образом, сектор модной одежды для полных женщин развивается, демонстрирует широкий спектр фасонов и стилей, новые тенденции и направления для создания гармоничного образа.

Таким образом, проведенные исследования показали, что изучение костюма, являющегося уникальным, продолжает открывать большие возможности для его теоретического осмысления. Традиционные элементы, такие как крой, формы, оттенки, декор, аксессуары, являются неиссякаемым источником творческой трансформация в модели современной женской одежды.

ЛИТЕРАТУРА

1. Михеева, М.А. Социальные функции костюма: костюм в предметной и культурной среде: Автореф. дис. канд. филос. наук // М.А. Михеева. – Нижний Новгород, 2009. – 25 с.
2. Мамедова Л.Г. Эстетическая культура в современной одежде // *Universum: Филология и искусствоведение: электрон. научн. журн.* 2017. №5 (39). URL: <http://7universum.com/ru/philology/archive/item/4827>.
3. Шкляр, Т.Л. Влияние внешнего вида на восприятие специалиста / Т.Л. Шкляр, И.С. Харина. // *Молодой ученый.* – 2014. – № 6.2 (65.2). – С. 80–81. – URL: <https://moluch.ru/archive/65/10855/>.
4. Стиль одежды как способ самопрезентации и самовыражения личности / Б.В. Кайгородов, авт. И.А. Еремицкая // *Вестник Самарского государственного технического университета. Серия: Психолого-педагогические науки.* – 2013. – N 1 (19). – С. 51–57.
5. Нагорнова Е.Е. Женская красота в зеркале времени / Е.Е. Нагорнова // *Проблемы государства, права, культуры и образования в современном мире.* – Тамбов, 2004. – С. 244–247.

O‘ZBEK KULOLCHILIK TERMINLARINING LISONIY TAVSIFI

Mamatqulova Zilola Rejabalievna

Farg‘ona davlat universiteti akademik litseyining ona til fani o‘qituvchisi mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek kulolchilik terminlarining tildagi o‘rni, boyish manbalari, ularning tematik tasnifi misollar yordamida keltirilgan, etimologik qatlami tasnif etilgan va kulolchilik leksikasi uchun ham xos xususiyat sanalgan, ularning izohi yoritilib berilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: milliy leksika, so‘z–terminlar, kasb–hunar leksikasi, gipergiponimik, partonimik, xolo–meronimik, semantik maydonning yadrosi, dominant, giperonim.

Har bir xalqning milliylikini, o‘ziga hos an‘analarini ifoda etuvchi vositalardan biri bu – xalqning amaliy san‘atidir. San‘at – inson faoliyati va ijtimoiy ong mahsulidir. U jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, insonlarning ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan vujudga kela boshlagan. Amaliy san‘at esa, ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolarini badiiy ishlash bilan bog‘liq jarayondir. Xalq amaliy san‘atining bir qancha ko‘rinishlari mavjud: rassomchilik, zardo‘zlik, kashtachilik, ganchkorlik, kosibchilik, me‘morchilik, pichoqchilik, to‘quvchilik, haykaltaroshlik, duradgorlik va boshqalar. Har bir xalq o‘zining ichki imkoniyatidan, kundalik turmush tarzidan, milliy an‘analaridan va urf – odatlaridan, yashash sharoitlaridan kelib chiqqan holda ma‘lum amaliy san‘at bilan mashg‘ul bo‘ladi. Jumladan, o‘zbek xalqi kulolchilik bilan asrlar davomida shug‘llanib kelmokda. Kulolchilikka oid terminlar o‘zbek kasb–hunar leksikasining bir qismiga aylanib qolgan.

Akademik Sh. Shoabdurahmonov o‘zbek tili leksikasini bir tizimga jamlash va ilmiy jihatdan o‘rganish nihoyatda zarurligi haqida quyidagi fikrlarni bayon qilgan edi: “Agar yaqin kelajakda o‘zbek milliy leksikasi to‘laligi bilan qayd qilib olinmasa, barcha mas’uliyatni hisobga olgan holda aytish mumkinki, keksa avlod tugab borishi bilan tilning ular hofizasida saqlanib, bizgacha etib kelgan qimmatli materiallarning bir qismi hamishalikka yo‘qolishi mumkin” [1,325]

O‘zbek tilidagi kasb–hunar leksikasini tadqiqi masalalari bo‘yicha birinchi bo‘lib taniqli tilshunos olim S. Ibrohimov kirishgan edi. U turmushimizdan izi o‘chib borayotgan, hali hech kim tomonidan o‘rganilmagan Farg‘ona shevasidagi kasb–hunarga oid so‘z–terminlarni to‘plab lingvistik jihatdan tahlil qildi va bunday so‘zlar lug‘atini tuzdi. [2,54]

A. Sobirov bu olimning xizmatlarini e‘tirof etib, quyidagi jummalarni taqdim etadi: “Kasb–hunar leksikasining tarkib topishi va rivojlanishida professor S. Ibrohimovning xizmatlari beqiyos sanaladi. Olim ipakchilar, tandirchilar, shuvoqchilar, degrezlar, rixtagarlar, metallozlar, temirchilar, qulfsozlar, ignachilar, pichoqchilar, chilanganlar, taqachilar, na‘lgarlar, misgarlar, anjomasozlar, mixgarlar, zanjirsozlar, naqqoshlar, zargarlar, miynogarlar, savotgarlar, gahchilar leksikasidan 2500 ga yaqin leksik birliklarni yig‘ib olib, ular ustida tadqiqot ishlari olib bordi. Natijada keyinchalik bajarilgan ko‘plab ishlar uchun uning asarlari qimmatbaho manba vazifasini o‘tadi. 60–90 yillarda terminolog va leksikologlarning butun bir avlodini tarbiyalab voyaga etkazishda S. Ibrohimov asos solgan professional leksikologiya maktabining o‘rni beqiyos katta bo‘ldi”. [3,27–28]

Mamlakatimizda qadimdan shakllanib kelayotgan kulolchilik an‘analarini asrab–avaylash, tiklash va rivojlantirish, xalqaro darajada keng targ‘ib qilish, kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va uning eksportini oshirish, usta kulol hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab–quvvatlash, usta–shogird maktablari faoliyatini takomillashtirish maqsadida 2021– yilning 23– martida “ Kulolchilikni rivojlantirishni tezlashtirish va qo‘llab–quvvatlash chora–tadbirlari to‘g‘risida” gi

prezident qarori qabul qilindi va bu sohaga e'tibor kuchaytirildi. Sababi kulolchilik buyumlari o'zbek xalqining yuzi sifatida mamalakatimizga tashrif buyurgan sayyohlar bilan birga o'zga yurtlarga esdalik sovg'a qilib olib ketilmoqda. Bu esa, o'zbek madaniyatini dunyo bo'ylab yoyish uchun xizmat qiladi.

Bundan ko'rinadiki, kasb-hunar leksikasi milliylik belgisi ham dirb uni kishilarning mehnat faoliyati, kundalik mashg'uloti bilan bog'liq holda o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. Kishilarning kasb faoliyati inson hayotining uzviy bir qismi bo'lgani uchun, urf-odatlar, qadriyat va an'analarini ham e'tiborga olgan holda o'rganish zarur.

Kasb-hunar leksikasi terminlar kabi tilning maxsus birliklari qatoridan o'rin oladi. Kasb-hunar leksikasi muayyan kasb-hunar doirasida qo'llanuvchi, unga daxldor maxsus birliklardir. Har bir tilda xalq hayoti, turmushi bilan bevosita aloqador kasbiy sohalarga oid so'zlar rang-barang bo'lib, qo'llanilishi jihatidan terminlarga nisbatan faol leksik qatlamlardan sanaladi. Terminologiyada so'zlarning terminlashishi va buning aksi, terminlarning determinlashishi yuzaga chiqadi. Kulolchilik leksikasi ham, terminlar ham maxsus leksika tarkibiga kiradi

Ayrim tilshunoslar kasb-hunar leksikasiga oid birliklarning kasb-hunar bilan bog'liq o'tmish predmetlari va hodisalarini anglatishi haqida fikr bildirishadi. Xususan, S. Usmonov kasb-hunar leksikasiga quyidagicha tavsif beradi: "Kasb-hunar leksikasi hozirgi turmushda ishlab chiqarishning asosiy yo'nalishi, turi bo'lgan predmetlarni emas, balki unutilib ketgan yoki unutilib borayotgan o'tmishning tarqoq va kuchsiz, hozirgi sanoat imkoniyatlari oldida qoloq bo'lgan ishlab chiqarish qurollari, ishlab chiqarish jarayonlari nomlaridan iboratdir" [5.16] Fikrimizcha, kasb-hunar leksikasi allaqachon tarixiy so'zlar qatoriga kirgan yoki unutilib borayotgan so'zlar emas, ular rivojlanayotgan, yangilanayotgan, zamon talabiga mos ishlab chiqarish terminlaridir.

Xulosa qilib aytganda, termin va kasb-hunar leksikasi integral belgilari bilan bir umumiylikka birlashsa, diferentsial belgilari bilan alohida xususiylklarni tashkil

qiladi. Ma'lum ilm–fan sohasi, kasb–hunar doirasida monosemiklikka intilish tendentsiyasiga ega, ilmiy yoki ishlab chiqarish sohasida predmet, hodisani aniq ifodalash uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Shoabduraxmov Sh. Uzbek adabiy tili va xalk she'rlari–Toshkent, 1962.
2. Ibroximov S. Fargona shevalarining kasb–hunar leksikasi. –Toshkent, 1959.
3. Sobirov S. O'zbek tilining sistemalar sistemasi tamoyillari asosida tadqiq etish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
4. Navoiy asarlari lug'ati. Tuzuvchilar: Shamsiyev P., Ibroximov S. – Toshkent: Fan, 1978.
5. Usmonov S. O'zbek tili terminologiyasining ba'zi masalalari. Toshkent, O'qituvchi , 1964.

KATTA MA'LUMOTLAR VA ULARNI OLIY TA'LIMDA QO'LLASH

Arabov Ubaydullo Hamroqul o'g'li

Бизнинг фикримизча, ер рентаси тушунчасининг моҳиятини таҳлил қилишда бир нечта жиҳатларни ажратиб кўрсатиш мумкин. Масалан, ер рентаси ишлаб чиқариш нуқтаи назаридан табiiй омил бўлган ер ресурсларининг иқтисодий қийматини ифодалайди ва иқтисодий жараёнда ерларнинг ҳар хил сифатли фойдаланиш қийматларининг ўзгариши натижасида олинган соф даромаднинг бир қисмини ўзида акс эттиради.

Ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан эса, ер рентаси - бу ҳар хил сифатли ер участкаларини ва мулкдорлар ва хўжалик юритувчи субъектлар ўртасида улардан фойдаланишдан олинган даромадларни тасарруф қилиш, эгалик қилиш, бошқариш ва улардан фойдаланиш билан боғлиқ ўзига хос муносабатларни амалга ошириш шаклидир. Иқтисодиёт ислохотлар шароитида ер ижараси даромадларини тақсимлаш алоҳида аҳамиятга эга.

Жамиятда рентанинг тақсимланиши ва адолатсиз ёки бошқа мақсадларда ишлатилиши кўплаб тадқиқотлар ва сиёсий дастурларда акс эттириб келинмоқда. Ер муносабатлари соҳасидаги кўпгина олимлар ва мутахассислар (улар орасида Карнаухова Е.С., Сагайдак А.Е., Суханов Н., Добринин В.А., Шишкин А.Ф., Дикарев В.Н., Лвов Д.С.) ер рентаси эгасида қолмаслиги, балки жамият эҳтиёжлари учун давлатга ўтиши керак, деб ҳисоблайдилар [1].

Қишлоқ хўжалигимаҳсулотлари қийматини оширилган даражада, яъни энг ёмон ер участкаларида ишлаб чиқариш харажатларининг максимал нархида тўлайди. Тўловнинг ушбу ортиқча баҳоланган қисми дифференциал рента I нинг қиймат асосини ташкил этадиган иқтисодий даромадни ўзида акс эттиради. Ушбу даромад (дифференциал рента I) нинг функционал ва иқтисодий мақсади ер эгалари синфини боқиш эмас, балки таклифни жамиятнинг тўйинмаган эҳтиёжлари даражасига етказиш мақсадида қишлоқ хўжалигида кўшимча ишлаб чиқаришдир. Бозор механизми дифференциал рента I нинг функционал ва иқтисодий моҳиятига мувофиқ фойдаланишини таъминлай олмайди, чунки у ер эгалари томонидан ижара шаклида ундирилади ва ўзлаштирилади, яъни бунинг сабаблари ерга эгалик қилиш ва ердан фойдаланиш монополияларида ётади: дифференциал даромадлар "мақсадга мувофиқ бўлмаган ҳолда" ундирилади ва ишлатилади [2].

Давлатнинг иқтисодиётга аралашшига, иқтисодий фойдадан унинг функционал ва иқтисодий мақсади бўлмиш қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришни кўпайтиришга мувофиқ фойдаланиш учун аралашшига объектив эҳтиёж мавжуд [3]. Давлат ер солиғи орқали дифференциал рента I ни ундириши ва ушбу ижара тўловлари ўз мақсадларига мувофиқ ишлатилишини таъминлайдиган тарзда уларни қайта тақсимлаши зарур. Ушбу маблағлар мамлакатимизда ер ресурсларини бошқариш, ерларни муҳофаза қилиш ва унумдорлигини ошириш, янги ерларни ўзлаштириш тадбирларини

молиялаштириш, ердан фойдаланувчининг ушбу мақсадлар учун харажатларини қоплаш сарфланишини мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Бизнинг фикримизча, қишлоқ хўжалигида ер рентасидан фойдаланишни рағбатлантиришнинг янада самарали усули - бу имтиёзли солиққа тортишдир. Бундай солиққа тортиш тизими жорий этилиши билан бирга, ер солиғи имтиёзларини олишни таъминловчи қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқаришни кенгайтириш бўйича ҳар бир ер фойдаланувчиси учун ишлар рўйхати ва ҳажмини белгилашга доир чоралар кўрилиши керак. Шу билан бирга, қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқаришни кенгайтириш бўйича фаолият натижаларини акс эттириши керак бўлган тузатиш коэффициентлари асосий ставкага киритилиши мумкин. Тузатиш коэффициенти ердан фойдаланувчининг олган ҳақиқий даромадининг ишлаб чиқаришни ўсиши учун киритган сармоясига нисбати сифатида ҳисобланишини мақсадга мувофиқдир.

Айни пайтда, қишлоқ хўжалигининг ўзига хос хусусияти шундаки, ушбу соҳадаги ижтимоий-иқтисодий муносабатлар тизимидаги ҳар қандай ўзгаришларда ер рентаси "йўқ бўлиб кетиши" мумкин эмас. Бу шунинг билан, «нормал» аграр муносабатлар ва давлатнинг «тўғри» аграр сиёсати ана шундай алоқаларни ҳисобга олган ҳолдагина қурилиши лозим.

Хулоса ўрнида, ер муносабатларини ислоҳ қилишнинг асосий йўналишларини ўзгартириш, қишлоқ хўжалиги тизимини янада самарали ташкил этишни таъминлаш бўйича стратегик ва тактик чора-тадбирларни ишлаб чиқиш долзарб аҳамиятга эга. Қайта ишлаб чиқаришнинг барча босқичлари ўртасидаги зиддиятларни бартараф этиш давлат иқтисодий сиёсатининг стратегик вазифасидир. Илмий асосланган мутаносибликларнинг белгиланиши нархлаш тизимида, хусусан, қишлоқ хўжалигида уни ундириш ва қайта тақсимлаш учун ер рентасини ҳисоблаш услубиётини ишлаб чиқиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- [1] Mahsudov, M. D. (2019). Диверсификация землепользования является фактором развития. *Monograph. LAP Lambert Academic Publishing*, 71-72.
- [2] A.R. Babajanov, M.D. Mahsudov (2019). Diversification of land fund in the district. *Monograph. LAP Lambert Academic Publishing*, 77-78.
- [3] Махсудов, М. Д. Ў. (2021). ЕРДАН ФОЙДАЛАНИШНИ ТАРТИБГА СОЛИШ ЮЗАСИДАН ЕР ИСЛОҲАТИ. *Scientific progress* 2(1), 234-246.

ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР СОЛИҒИ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ЕР РЕНТАСИ МЕХАНИЗМИНИНГ РОЛИ

Файзуллаев Зафаржон

Мамлакатимизда 2020 йилга қадар қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари учун ягона ер солиғи тизими амал қилган. Қишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланаётган корхоналарга ягона ер солиғи ерининг “норматив қиймати”га нисбатан ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 30 декабрдаги янги таҳрирдаги Солиқ кодексига асосан қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари учун ягона ер солиғи тизими бекор қилиниб, ер солиғи жорий этилган ҳамда ушбу кодексга асосан ер солиғи ставкаси ерларнинг норматив қийматидан 0.95% қилиб белгиланди. Солиқ солинадиган ер участкаларининг қонун ҳужжатларига мувофиқ белгиланган норматив қиймати солиқ солиш базаси ҳисобланади. Ерларнинг норматив қиймати Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 28 августдаги “Қишлоқ хўжалиги экин майдонларининг норматив қийматини аниқлаш тизимини такомиллаштириш тўғрисида”ги 235-сонли Қарори билан тасдиқланган “Қишлоқ хўжалиги экин майдонларининг норматив қийматини аниқлаш тартиби тўғрисидаги” Низомга асосан аниқланади. Ягона ер солиғи тизими қишлоқ хўжалиги ерларидан, айниқса, суғориладиган ерлардан самарали фойдаланишни рағбатлантириш, ердан фойдаланувчилар – қишлоқ хўжалик корхоналарини солиққа тортиш механизмини соддалаштириш, табақалашган тарзда солиққа тортиш оқибатида улар учун бир хил шароитларни таъминлаш, бюджет даромадларини барқарорлаштириш, ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш ва унумдорлигини ошириш функциясини бажариши ва энг муҳими, жамиятда ер муносабатларини ижтимоий адолат сари йўналтириши керак [1-3].

Фикримизча, қишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланишдаги экин ерларининг норматив қиймати асосида белгиланиши иқтисодий жихатдан ўзини оқламаётганлигини кўришимиз мумкин. Бизнингча, қишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланишда ер солиғини ер рентаси асосида белгиланишини мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Ер рентаси, ер эгасининг ўз ерини табиий ресурс сифатида ижарага берганлиги учун оладиган даромади тушунилади. Бевосита қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари томонидан яратилган қўшимча маҳсулотнинг ер эгалари томонидан мулк эгалиги ҳуқуқига кўра ўзлаштирилган қисми. Қишлоқ хўжалигида фойдаланиладиган ер майдонлари табиатан чекланганлиги сабабли, барча ерлар мустақил товар ишлаб чиқарувчилар томонидан эгаллаб олинади ва ерга хўжалик объекти сифатида монополия вужудга келади, натижада ер билан боғлиқ рента муносабатлари пайдо бўлади.

Ер рентаси иқтисодий доктрина бўлиб, қишлоқ хўжалигида рента муносабатлари доимо илмий тортишувлар предмети бўлган. Рента назарияси бўйича кўплаб илмий изланишларга қарамасдан, мамлакатимизда ердан фойдаланганлик учун тўловларни аниқлаш учун ер рентасидан келиб чиқиб амалга ошириш масаласи ҳамон ечимини топмаган. Бозор муносабатлари шароитида ер рентасини шаклланиши ва уни адолатли тақсимланиши масаласи қишлоқ хўжалигида тобора долзарб муаммога айланмоқда [4].

Қишлоқ хўжалиги ерларидан оқилона ва самарали фойдаланиш ернинг бозор қиймати, ер солиғи, ер ижараси орқали тартибга солишни комплекс чора тадбирларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, биринчи навбатта ерни баҳолашнинг илмий асосланган методологиясини ишлаб чиқишни талаб этади [5].

Ерларни баҳолашда рента даромадларидан келиб чиқиб баҳоланиши мақсадга мувофиқдир. Ерларни баҳолаш методологиясини ишлаб чиқишда ернинг қийматига таъсир этувчи асосий омиллар яъни ернинг табиий унумдорлиги, ер участкасини географик жойлашган ўрни, транспорт

коммуникация тармоқларини мавжудлиги ва яқинлиги, маъмурий ҳудуд марказига узоқ-яқинлиги, турли инфраструктуралар билан таъминланганлиги, жойнинг ландшафт тавсифи кабилларни ҳисобга олиш зарур.

Изланишларимизга кўра, мамлакатимизда ер солиғига тортиш ёки ер ижарасини белгилашнинг назарий ва методологик жиҳатлари танқидий ўрганилган ҳолда ягона ер солиғини жорий қилиш юзасидан ижобий ишлар амалга оширилган, аммо бу борада ўз ечимини кутаётган масалалар мавжуд. Айниқса, ер солиғини ёки ер ижараси ҳақини ҳисоблаш тартибида рента даромадларининг шаклланиши билан боғлиқ жараёнлар, мазкур даромадларнинг тақсимланиши ва булар орқали солиқ ёки ижара ҳақини тўловчилар-ердан фойдаланувчиларнинг молиявий-хўжалик фаолиятини табақалаштиришнинг адолатли ва рағбатлантирувчи тартиб-таомилларини ишлаб чиқиш бугунги куннинг долзарб масалалари ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- [1] Mahsudov, M. D. (2019). Диверсификация землепользования является фактором развития. *Monograph. LAP Lambert Academic Publishing*, 71-72.
- [2] A.R. Babajanov, M.D. Mahsudov (2019). Diversification of land fund in the district. *Monograph. LAP Lambert Academic Publishing*, 77-78.
- [3] Махсудов, М. Д. Ў. (2021). ЕРДАН ФОЙДАЛАНИШНИ ТАРТИБГА СОЛИШ ЮЗАСИДАН ЕР ИСЛОҲАТИ. *Scientific progress* 2(1), 234-246.
- [4] Махсудов, М. Д. Ў. (2021). ЕР ФОНДИДАН ФОЙДАЛАНИШНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ. *Scientific progress* 2(1), 141-152.
- [5] Гаиббердиев, С. (2021). ЕР БАҲОЛАШ МАЪЛУМОТЛАРИ АСОСИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ ВА АСОСЛАШ. *Scientific progress* 2(2), 1607--1613.

ОБСТРУКТИВ УЙҚУ АПНОЕ СИНДРОМИДА ХАЛКУМ ХОЛАТИНИ ҚИЁСИЙ БАХОЛАШ

Ўктамов Ибрат Ғайратович

Тошкент тиббиёт академиямиyasi

Илмий рахбар: т.ф.д. доцент Бакиева Ш.Х.

Аннотация: Тадқиқот ишимизда биз халқум соҳасида ЛОР аъзолари патологияси мавжуд бўлган ва хуррак отувчи 60та бемор ҳамда назоратдаги 20та соғлом шахсларни таҳлил қилдик. Тадқиқотимизда хуррак отувчи халқум аъзолари патологияси мавжуд беморларни 2гуруҳга яни Обструктив уйқу апноэ синдроми ривожланган ҳамда ривожланмаганларга ажратиб, беморларни рентгенолопик, эндоскопик ҳамда полисомнографик таҳлиллardan ўтказиб, олинган натижаларни статистик таҳлил қилдик.

Калит сўзлар: Обструктив уйқу апноэ синдроми, апное, полисомнография, хуррак отиш, антрохоанал полип, сурункали тонзилит, тилча ва юмшоқ танглай гипертрофияси

Обструктив уйқу апноэ синдромининг (ОУАС))-Хуррак отиш билан кечувчи халқум соҳасида юкорида нафас йўллариининг перидодик торайиши, ўпкага борадиган кислород миқдорининг камайиши натижасида қонда кислород миқдорининг камийиши ҳамда уйки вақтила нафаснинг қисқа муддатга тўхтаб қолиши ва бунинг даврий такрорланиши билан кечувчи ҳолат. Хуррак отиш алоҳида касаллик сифатида, шунингдек, обструктив уйқу апноэ синдромининг (ОУАС) бир белгиси сифатида ривожланиши мумкин. ОУАСга хос белгилар аҳоли орасида инсонларнинг ижтимоий фаоллигини ва меҳнатга яроқлилигини камайишига, ҳамда шу аҳоли доирасида тўсатдан ўлим миқдорининг ошишига олиб кетади

Тадқиқотнинг мақсади: Обструктив уйқу апоноэ синдромининг ривожланишида халқумдаги функционал ва ёшга хос ўзгаришларнинг ролини баҳолаш

Тадқиқотнинг объекти: сифатида Тошкент тиббиёт академияси кўп тармокли клиникаси ЛОР бўлимида даволанган 60 нафар бемор ҳамда назорат гуруҳидаги 20 нафар соғлом киши олинган.

Тадқиқотнинг предмети: Халқумда ЛОР патологияси бўлган хуррак отувчи 60та беморлар сараланиб олинди ва уларнинг ренгенологик таҳлил, эндоскопик, полисомнографик таҳлил натижаларига асосан 2гуруҳга ажратилди ОУАС ривожланган ва ривожланмаган хуррак отувчи беморлар ҳамда олинган натижалар қиёсий таҳлил қилинади.

Тадқиқот натижаси: 60та хуррак отувчи бемордан 40тасида(67.67%) ОУАС аниқланди 20тасида(33.3%) хуррак отиш мавжуд лекин ОУАС ривожланмаган. Беморлар орасида эркаклар-36нафарни (60%), аёллар - 24 нафарни (40%) ташкил қилди. Беморларнинг ёши 12 ёшдан 69 ёшгача бўлиб, ўртача ёш 43.97 ҳисобланди. ОУАС ташхиси тасдиқланган беморларда тилча ва юмшоқ танглай гипертрофияси(40%), антрохоанал полип(35%), сурункали тонзиллит(15%) кўп учради ҳамда асосий гуруҳ беморлар тана вазн индекси нормадан баландлиги (65%да) аниқланди.

Хуррак отишнинг интенсивлиги баҳоланганда 1-гуруҳда 8 нафар (20%) беморда - 20 дан 40 дБ гача, 13 нафар (32,5 %) беморда - 41 дан 60 дБ гача, 19 нафар (47.5%) беморда - 61 дан 80 дБ гача бўлганлиги аниқланди. 2-гуруҳда 12нафар (60%) беморда - 20 дан 40 дБ гача, 5 нафар (25 %) беморда - 41 дан 60 дБ гача, 3 нафар (15%) беморда - 61 дан 80 дБ гача бўлганлиги аниқланди.

Хулоса:ОУАС-Хуррак отиш билан кечувчи халқум соҳасида юкори нафас йўллариинг перидодик торайиши ҳисобига ривожланади. Унинг асосий белгиси бўлиб хуррак отиш ҳисобланади. ОУАС ташхиси тасдиқланган беморларнинг асосий қисмини 40ёшдан катта(80%) ва эркак жинсига(62,25%) мансуб беморлар

ташкил килди. Уларда тилча ва юмшок танглай гипертрофияси(40%) кўпрок аниқланди. Хуррак отиш интенсивлиги ОУАС ривожланган гуруҳ вакиллари орасида юқори кўрсаткичларни кўрсатди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Арустамян И. Г., Сопко О. Н. Оценка качества жизни у пациентов, страдающих храпом и синдромом обструктив
2. Бойко Н. В., Бачурина А. С. Аденомия и аденотонзиллотомия у детей с затруднением носового дыхания //Российская ринология. – 2015. – Т. 23. – №. 1. – С. 9-12.
3. Шарипов С.С. Лор-касаликларни бўлган беморларда ронхопатияни таххислаш ва комплекс даволашнинг самарадорлигини ошириш номзодлик диссертацияси - 2019
4. Burman D. Sleep Disorders: Sleep-Related Breathing Disorders. FP Essent. 2017 Sep;460:11-21.

**KASBIY MAHORAT, TANQIDIYLIK VA INTERAKTIVLIK – HUDUDIY
TELEKANALLAR AXBORIY FAOLIYATIDA SAMARADORLIK OMILI
SIFATIDA**

Nilufar Aliyeva Qo‘chqar qizi

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Harbiy
jurnalistika yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Jurnalistikada odob-axloq masalalari juda ko‘p muhokama etilgan, jumladan, belgilangan chegaradan o‘tgan jurnalist o‘z kasbini ustasi bo‘la olmasligi mumkin. Xususan, ommaviy axborot vositalari jamiyat va davlat o‘rtasida mustahkam ko‘prik vazifasini o‘taydi. Aslida esa mazkur fikrda OAVning axborot etkazish vazifasi nazarda tutiladi. Ammo tayoqning ikki uchi bo‘lganidek, ommaviy axborot vositalari tarbiyalash nuqtai nazaridan kichik va katta jamiyatlarni bog‘lovchi ko‘prik bo‘la oladi. YA’ni televidenie, radio, matbuot xalqdan olib xalqqa qaytaradi. Auditoriyani yaxshilik, bunyodkorlik sari etaklashda ularning mavzu ko‘lami keng va rang-baranglik kasb etadi.

Kalit so‘zlar: televidenie, efir samaradorligi, teleko‘rsatuv, jurnalist, rejissiyor, telerejissyor, telejurnalist, samaradorlik.

Televidenie targ‘ibotchi, demakki, unda ikki xil tushuncha mujassam: biri yaxshi ma‘nodagi targ‘ibotchi, ya‘ni, jamiyat ma‘naviy, ma‘rifiy, madaniy ongini rivojlantirishga qaratilgan ko‘rsatuvlarni tayyorlash va uni efirga o‘zatishtan iborat. Ikkinchi jihat bu noto‘g‘ri yunalishga tushib qolgan va buning oqibatida kishilarni chalg‘ituvchi xarakterdagi teledasturlarni tayyorlashga yo‘l qo‘yishdir. Unda ham tomoshabinni o‘z ortidan ergashtirishi kuzatiladi. Ana shunday ikki qarama-qarshilikni aniqlashda va umumiy omma psixologiyasiga ta‘sir ko‘rsatishda har bir jurnalist televizion mahsulot g‘oyasi va mavzu ko‘lamini yaxshilab shakllantirib olishi, ana

undan keyingi auditoriya hukmiga xavola etmog‘i joiz. Bu hakda F. Ro‘ziev va X. Juraeva shunday fikrlarni bildiradi: “Mavzu tanlash ancha murakkab va mas‘uliyatli ish. Mavzu tanlab olindi ham deydik. Endi mo‘ljalga — auditoriyasiga etkazishning o‘z yo‘li va uslubi bor. Agar zargar tili bilan aytadigan bo‘lsak, oltin ajratib olindi, endi undan chiroyli ziynat yasash kerak. Tanlangan mavzuni o‘quvchi, tinglovchi va tomoshabinga go‘zal bir tarzda, oson va yoqimli qabul qildirish uchun dastlab dastur ssenariysi puxta o‘ylanmog‘i darkor. Mavzuga olib kirishdan tortib, asosiy nuqta va samaragacha o‘ylansa yaxshi bo‘ladi”.(1)

Ko‘pchilik televizion ko‘rsatuvlarda efir samaradorligini ta‘minlashda birinchi o‘ringa boshlovchi ko‘rinishi, imidjini olib chiqadi. Har qanday kishining televizion timsoli, xususan, kiyinish, o‘zini tutish, auditoriya bilan muloqot olib borish, xushovzilligi, gapirish uslubi kabilar ya‘ni, dastlabki qabul qilinadigan besh xususiyat baholanadi, biroq shuni aytib o‘tish kerakki, yuqoridagi sifatlar ko‘rsatuvning ma‘lum g‘oyaviy mas‘uliyatisiz kutilganday natija bermaydi.

Professor YA.Zasurskiyning yozishicha, “bo‘sh vaqt sanoati, ko‘ngilochar dasturlar industriyasi zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormokda, odamlarda bo‘sh vaqt ko‘paygani sari bu yangi daromad bugungi kunda aynan xizmat ko‘rsatish sohasi, ommaviy madaniyat va OAV - ya‘ni bo‘sh vaqtni to‘ldirishga qaratilgan sohalarga aylanmokda”.(3)

E‘tibor berilsa, mamlakat ommaviy axborot vositalari, xususan, televidenie sohasida shu jarayon kuzatilyapti. Ularda beriladigan telemahsulotlar yangicha shakl va uslublarda namoyon bo‘la boshladi. Bugungi shiddatli va tezkor zamon, olib borilayotgan islohotlar, kishilar ongi va shuuridagi o‘zgarishlar, shu jumladan, ijodiy ishlarga qo‘yilayotgan talablar ortishi televideniening yanada takomillashuvini taqozo etmoqda. Teleko‘rsatuvning saviyasi uni tayyorlayotgan jurnalistning salohiyati va malakasining darajasi bilan belgilanadi. Telejurnalistning saviyasi qaydarajada yuqori bo‘lsa, u yaratgan mahsulot darajasi ham yuksak bo‘ladi. Undan tashqari mahsulotning mukammallik darajasi rivojida rejissyorning xizmati va

professionalizm darajasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, telejurnalist o'zi yozgan matnni rejissyorning xizmatidagi efirga o'zata olmaydi. Telerejissyor bilan telejurnalist maslakdosh sifatida hamkorlik bilan yaratilgan telemahsulotgina professionalizm nuqtai nazaridan yuqori darajaga ko'tarilishi mumkin. Bugungi kunda ayrim o'rinlarda rejissyorlik vazifasini telejurnalistning o'zi bajarishi odatga aylanib bormokda. Ammo, telerejessura kasbiga madaniyat va san'atga yo'naltirilgan ta'lim dargohlarida san'atshunoslar tomonidan bu san'atning siru asrorlari o'qitiladi. SHu nuqtai nazardan qaralganda, televidenie mahsulotlarining asosini telejurnalistika bilan rejissura

Mahsulotlarning sifat darajasini belgilash uchun eng avvalo ularni tur va janrlarga bo'lib, har biriga alohida to'xtalib o'tish joiz. Buning uchun esa, telemahsulotlarni shartli ravishda mavzular asosida turlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq. Masalan, siyosiy, iqtisodiy, badiiy, ma'rifiy, sport, ko'ngilochar va boshqa mavzularda tayyorlanadigan ko'rsatuvlar televizion dasturlarning asosini tashkil etsa-da, bu mahsulotlar turli janrlarda talqin etilishini taqozo etganligi uchun ularni, shartli ravishda ikki toifaga - publitsistik va badiiy ko'rsatuvlar doirasida tahlil qilish maqsadga muvofikdir.

Ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotida alohida ahamiyat kasb etayotgan bir paytda uning yangicha tip va ko'rinishlari ham paydo bo'lmokda. A.S.Mikoyan mediamatnlarni bir necha turlarga bo'ladi. YA'ni, yangiliklar; sharxlar; turli mavzulardagi tahliliy obzorlar (siyosat, iqtisodiyot, jamiyat hayoti, ijtimoiy muammolar, ma'naviyat, madaniyat, fan va boshqalar); intervyu; sport xabarlar yoki reportajlar; reklama materiallari va boshqalar.(4) Mediamatnlarga qo'yilayotgan talablar yildan-yilga o'sib, o'zgarmoqda. Jamiyatdagi o'zgarishlar, auditoriya talabining keskin suratda oshib borayotgani yangicha yondashuvlarga olib kelayotir.

Bugun jahon va milliy telekanallarda turli yunalishdagi tematik dasturlar efir

yuzini ko‘rmokda. Zamonaviy televidenie tabiati 15-20 yil avvalgi holatdan tubdan o‘zgargan. Buni bir qancha holatlarda ko‘rish mumkin. TV ixtiro etilgan dastlabki yillarda axborot va musiqa uning bosh ko‘rsatuvlari hisoblansa, yillar o‘tgani sayin teleko‘rsatuvlar ko‘rinishlari kengayib, takomillashib bormoqda. An’anaviy janrlar silsilasida tok-shou, realiti shou, teleko‘prik, teleserial kabi janrlar paydo bo‘ldi. Bu janrlarning paydo bo‘lishi bilan televizion mediamatn yaratish talablari ham o‘zgarishga yuz tutdi.

Falsafiy nuqtai nazardan mediamatn real ijtimoiy hayotni og‘zaki nutq, tasvir va ramzlar orqali ifodalaydi. Televizion jurnalistikada “ovoz - nutq - tasvir” muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur uch unsur keyingi yillarda chinakamiga zaruratga aylandi.

Rossiyalik mutaxassis E.V.Strukova “Televizionnyy novostnoy syujet kak raznovidnost mediateksta” sarlavhali maqolasida televizion yangiliklarga xos bo‘lgan ikki jihatga e‘tibor qaratadi. Ularning birinchisi yangilik taqdim etadigan televizion mediamatnlar uchun ikki jihat, ya’ni birinchisi, “televideniega xoslik” (televizionnost), keyingisi “yangilik darajasi” (novostnost)ni alohida ko‘rib chiqadi.(5) Muallif televidenie tabiatigagina xos bo‘lgan uch unsur - “ovoz - nutq - tasvir” inobatga olinishini ta’kidlaydi. Ma’lumotning yangiligi haqida gapirilar ekan, dolzarblik uning asosiy karakterli jihati ekanligi keltirib o‘tiladi. “Bugun”, “hozir”, “shu daqiqalarda” sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar ekranda namoyon bo‘lsa, xabarning yangiligi ana shu so‘zlar bilan belgilanadi.

O‘z o‘rnida efir uchun mo‘ljallangan har qanday mediamatn ekranning o‘ziga xosliklari, televidenie tabiati inobatga olingani holda yaratiladi. Filologiya fanlari nomzodi G.Nishonova “Audiovizual axborot vositalari bizni kun davomida ta’qib etib, hayot tarzimizni ham belgilamokda, dunyo voqealaridan xabardor qilmokda, tarbiyalamokda, ta’lim bermoqda, ko‘nglimizni xushnud qilmoqda. Bu esa zamonaviy shaxs tafakkuri, dunyoqarashini o‘zgarishiga, madaniy qarashlariga, qadriyatlarga o‘zgacha munosabatining shakllanishiga sabab bo‘lmoqda”.(6)

Har qanday tematik televizion asar tomoshabin ongi va qalbiga kirib borishi uchun ularda qiziqish uyg‘otuvchi bir qancha omillar mavjud bo‘lib, bularga ziddiyatli holatlar (jarayonning kechishi: ziddiyatning yuzaga kelishi, rivoji, nima sodir bo‘lgani, kim g‘olib yoki mag‘lub bo‘lgani, echimi); tomoshabinga ruhan yaqinligi (o‘z hovlingdagi to‘polon, qo‘shni hovlida bo‘layotgan shovqindan ko‘ra qiziqarli); xissiyot uyg‘ota bilishi; ma’lum shaxslar bilan aloqadorligi (agar u mashhur shaxslar bilan bog‘liq bo‘lsa, bu yanada qiziqarli tus oladi); noodatiyligi (it odamni tishlagani emas - odam itni tishlagani kabi); foydaliligi; auditoriya manfaatlarining hisobga olinishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ruziev F., Juraeva X. Telejurnalista tavsiyalar. T.: SHark. 2013. - B.176.

1. Zasurskiy YA.P. Jurnalistika i mir na rubeje tysyachiletiy. M.: Izd-vo MGU, 2000.- S.26.

2. Mikoyan A.S., Problemy perevoda tekstov SMI: uchebnoe posoboe. YAzyk SMI kak ob’ekt mejdissiplinarnogo issledovaniya / otv.red.M.N.Volodina. M.Izd-vo MGU, 2003.-S.23.

3. Strukova E.V.Televizionn¹y novostnoy syujet kak raznovidnost mediateksta, Vestnik Stavropolskogo gosudarstvennogo universiteta, 56/2008, -S.143-149.

4. Nishonova G. Kino va televidenie:kommunikativ faoliyat kirralari, “Barxayot meros badiiy kommunikatsiya tarkibida”(ilmiy ocherk va makolalar tuplami), T.:2013.-B. 125-141.

**Миллий ўзликни англаш оркали маънавий бегоналашувни олдини
олишнинг илмий методологик асослари**

М.Абдукодирова, АДУ Умумий психология кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Бугунги глобаллашув шароитида миллий ўзликни англашнинг асосий роли миллат бирлиги ва яхлитлигини таъминлашдан иборатдир. Бундан ташқари, миллий ўзликни англаш шахсининг ижтимоийлашуви жараёнини таъминлаши, шу туфайли инсон ўзини миллатнинг қисми сифатида англаши лозим. Демак, миллий ўзликни англаш миллатнинг ўз бирлигини ҳамда ўзи ва бошқа миллатлар вакиллари тўғрисидаги тасаввур асосида бошқа шунга ўхшаш жамиятлар ўртасидаги ўз ўрнини англашдир. Бундай вазиятда миллий ўзликни англаш бир – бирлари ҳамда атроф – мухит билан муайян муносабат ва алоқаларда турувчи унсурлар мажмуидан иборат бўлган мураккаб шаклланган яхлитлик сифатида кўриб чиқилиши зарур.

Калит сузлар: Миллий ўзликни англаш, миллат, маданият, моддий ва маънавий мерос, кадр-киммат.

Аннотация: В условиях современной глобализации основная роль понимания национальной идентичности заключается в обеспечении единства и целостности нации. Кроме того, понимание национальной идентичности должно обеспечивать процесс социализации личности, чтобы человек осознавал себя частью нации. Следовательно, понимание национальной идентичности - это понимание единства нации и ее места среди других подобных обществ на основе представления о себе и представителях других наций. В этом случае понимание национальной идентичности следует рассматривать как сложное сформированное целое, состоящее из набора элементов, находящихся в определенной взаимосвязи и взаимосвязи друг с другом и с окружающей средой.

Ключевые слова: Национальная идентичность, нация, культура,

материальное и духовное наследие, человеческие ресурсы.

Annotations: In the context of today's globalization, the main role of understanding national identity is to ensure the unity and integrity of the nation. In addition, the understanding of national identity should ensure the process of socialization of the individual, so that a person is aware of himself as a part of the nation. Consequently, understanding national identity is an understanding of the unity of a nation and its place among other similar societies based on the idea of oneself and the representatives of other nations. In this case, the understanding of national identity should be considered as a complex formed whole, consisting of a set of elements that are in a certain relationship and relationship with each other and with the environment.

Keywords: National identity, nation, culture, material and spiritual heritage, human resources.

Миллий ўзликни англаш ҳар бир инсон учун маънавий баркамолликнинг муҳим белгиларидан бири ҳисобланади. Чунки у аввало, ўзининг кимлигини билиб олса, қайси миллатга мансублигини тушуниб етса, авлод-аждодаари, улар қолдирган моддий ва маънавий меросни ўзлаштирсагана тўлақонли шахс даражасига етиши мумкин. Бундай шахслар миллатнинг аксарият кўпчилик қисмини ташкил қилсагина бундай миллатнинг истиқболи буюк бўлади. Шунинг билан бирга ўзини-ўзи чуқур англаб етган, кўзи очилган, ақли расо, ғоявий-сиёсий жихатдан уйғонган ва жипслашган халқ ва миллатни, ўтмишда бўлганидек, мустамлакачилик кишанларида ушлаб туриш, тили, маданияти, кадриятларини оёқ ости қилиш, бойликларини талаб кетиш, ҳуқуқларини паймол этиш, давлат мустақиллигидан жудо қилиш асло мумкин эмас.

Ўз-ўзини англаш бу халқнинг, миллатнинг ўтмиш тарихий тараққ^ёт йўлини, ота-боболари, насл-насаби, авлоду-аждодаларининг ким бўлганлиги ва уларнинг жаҳон илм-фани ва маданияти тараққиётига кўшган буюк ҳиссаларини билиб олишдир.

Миллий ўзликни англаш — миллат яшаётган Ватаннинг порлоқ

истикболини таъминлаш учун қандай имкониятлар ва қулайликларга эга эканлигини чуқур англаб етиш, улар билан чексиз фахрланиш, мавжуд имкониятларни юзага чиқариш, реал воқеликка айлантириш учун ўзини сафарбар этиш, барча имкониятлари, куч ғайратини ишга солиш демакдир. Миллат мавжуд бўлиши учун тил, ҳудуд ва маънавият асосий шарт бўлгани каби миллий ўзликни англаш ҳам асосий зарурий шарт ҳисобланади. Ўзликни англаш ўз моҳиятига кўра миллат ва элатлар учун хос бўлган маънавият хусусиятларини ифода этиб, ўз функциясига кўра миллий манфаатларни ҳимоя қилади.

Миллий ўзликни англаш реал ҳаётда миллат шаъни, кадр-қиммати, обрў-эътибори поймол этилганда ёки миллатнинг манфаатларига нисбатан иккинчи бир томондан зўравонлик ҳаракатлари бошланиб кетган ҳолатларда янада кучли ва яққол намоён бўлади. Бундай ҳолатда, миллатнинг барча вакиллари қайси лавозимда хизмат қилиши, қайси даражада бой ёки камбағал бўлишидан қатъи назар ўзаро бирлашиб кетадилар ва миллатнинг манфаатларини ҳимоя қиладилар.

Миллий ўзликни англаш миллатнинг тил, урф-одатлар, анъаналар, қадриятлар, ҳудуд ягоналиги, маънавиятдаги ўзига хослигидан иборат белгилари каби миллатнинг мустақил белгиси ҳисобланади. Миллий ўзликни англаш миллатнинг мустақил белгиси эканлиги — миллий манфаатлар, эҳтиёжлар умумийлигини ҳимоя қилиш ва миллий тараққиётга эришиш ва унинг жаҳон тараққиётидаги ўрнини мустаҳкамлаш заруриятини англаш билан белгиланади.

Миллий ўзликни англаш омилининг қудрати қуйидаги шароитларда кўпроқ намоён бўлади:

Биринчидан, агар миллий ўзликни англаш ривожланган бўлса, юқорида қайд этганимиздек, миллатнинг манфаатларига, айниқса, шаъни, кадр қиммати, обрў-эътибори, ғурури поймол этилишига қаратилган ҳаракатлар юзага келган шароитларда, миллатнинг барча вакиллари бирлашиб кетадилар, хатто миллатнинг ичида ўзаро муҳолафатда бўлган томонлар ҳам миллатнинг шаъни,

ғурури, обрў-эътиборини ҳимоя қилиш манфаати йўлида бирлашадилар.

Иккинчидан, миллий ўзликни англаш руҳий, ҳис-ҳаяжон, эҳтирос омилидир. Мазкур ҳолат ташқаридан қараганда сезилмайди. Уни миллатнинг хатти-ҳаракатларида, интилишларида ва мақсадларини амалга оширишларидаги салоҳияти орқали билиб олиш мумкин бўлади.

Руҳий ҳис-ҳаяжон ва эҳтиросларнинг «портлаши» миллатнинг характери, хусусиятлари, миллий ғояларни яратувчи, унинг тараққиётида оддинги сафда турувчи зиёлиларнинг салоҳиятига боғлиқ.

Учинчидан, миллий ўзликни англаш омили фақат миллий манфаатларни ҳимоя қилиш билан чекланмайди, балки миллий тараққиёт жараёнида, унинг олдида юзага келадиган ички муаммоларни ҳал қилиш ҳамда миллатни бирлаштарувчи ва ҳаракатга келтирувчи вазифани ҳам бажаради. Бу муаммолар мамлакатда иқтисодий, ижтимоий-сиёсий, маданий-маърифий соҳаларда содир бўлиши мумкин.

Тўртинчидан, миллий ўзликни англаш миллатнинг муҳим белгиси сифатида, фақат унинг манфаатларини ифодалаб ёки ҳимоя қилиш билан чекланмайди, балки шулар билан бирга унинг абадийлигини таъминлаб турувчи мустаҳкам кўрғон ҳамдир.

Сиёсий маънавияти, миллий онги ривожланган, миллий жихатдан ўзини-ўзи англаб етган хаттқ, миллат мустақилликнинг буюк кучига айланади. Миллатнинг, халқнинг куч қудрати унинг сони билан ўлчанмайди, балки сиёсий етуклиги, миллий онгнинг ўсганлиги, миллий ғурури, миллий ҳиссиёти, миллий туйғунинг қай даражадалиги, ўз-ўзини англаб етганлиги, миллий уюшганлига билан белгиланади. Ўзлигини англаган миллатни ҳарбий устунлик билан вақтинча қарам қилиш мумкин, аммо, уни батамом қарам қилиб бўлмайди. Ундаги миллий ғурур ҳар қандай шароитда ҳам озодликка чиқиши учун кураш олиб боришга олиб келади. Шундай қилиб, миллий ўзликни англаш миллатнинг энг муҳим белгиси, унинг ривожланиши ва келажагини таъминловчи омили

ҳисобланади. Мустақилликни қўлга киритиш ўзбек халқи ҳаётида миллий ўзликни англаш йўлидаги буюк инқилоб ҳисобланади. Чунки чоризм томонидан бу ўлканинг босиб олиниши оқибатида Туркистон халқларининг маънавияти, маърифатига етказилган катта зарарлар ва Россияда амалга оширилган Октябр тўнтаришидан кейин ўрнатилган шўролар ҳукумати томонидан давом эттирилган зўравонлик сиёсати халқимизнинг ғурурини поймол этишга, унинг жаҳон цивилизациясида тутган ўрнига салбий таъсир кўрсатган эди. Шўролар даврида ўзбек миллати номи фақат собиқ СССР ҳужжатларида қайд этилсада, у халқаро ҳаётда мустақил субъект сифатидан олинмай келинган эди.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курашимиз.-Тошкент, Ўзбекистон, 2017 Б.24
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-том. Т.: Ўзбекистон, 2017 й. Б.126.
3. Хўжамуродов И., Абдураимова М. Сиёсат, дин ва миллий ўзликни англаш. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2010. – Б.101.
4. Абдуллаев А. Маънавият ва иқтисодий тафаккур. Тошкент, “Маънавият”, 1999.
5. Бегматов А. Маънавият фалсафаси.-Т.: «Шарқ». 2000.

**Маънавий бегоналашувнинг олдини олишда хорижий тажрибаларнинг
МОҲИЯТИ**

М.Абдукодирова, АДУ Умумий психология кафедраси уқитувчиси

Аннотация: Нуқтаи назаридан маънавий бегоналашув жараёнларини таҳлил қилишнинг ўзига хослиги замонавий ижтимоий ривожланиш хусусиятлари билан ўзаро боғлиқлик. Умумжаҳонга мурожаат бегоналаштириш инсониятнинг ўзига хос хусусияти сифатида нафақат ўрганилаётган ҳодисанинг яхлит моҳиятини очиб беради, балки салбийнинг ҳақиқий сабабларини ҳам очиб беради замонавий ижтимоий муносабатлардаги ҳодисалар.

Калит сўзлар: Бегоналашув, одам, ижтимоий борлик, маданият.

Мафкуравий мустақилликка эришиш ҳам тараққиётнинг муҳим омилларидан бири. Мустақиллик мафкураси, миллий уйғониш миллатнинг ўз тарихи ва тақдирини чуқур тушуниши, миллий онги ўсиши, миллий кадр-қимматини асраши, миллий ғурур, ватанпарварлик туйғуси кучайиши билан боғлиқдир. Юксак миллий онг бўлмаган жойда тўлақонли миллий мустақиллик ҳам, миллий мафкура ҳам бўлмайди.

Мустақиллик учун кураш турли шаклларда бўлиши мумкин:

- Кўплаб мамлакатлар ва халқларнинг ўз озодлиги учун халқаро империализм ва коммунизм ҳукмронлигига қарши биргаликда кураши.

- Ҳар бир мамлакат, миллат ўзининг мустақиллиги учун кураши.

Умуман, миллий мустақилликнинг жамият тараққиёти тезлашишига кўрсатадиган ижобий таъсири қуйидагилардир:

1. Мустақиллик туфайли ҳар бир мамлакат ва миллат ўз иқтисодий имкониятларидан, ишлаб чиқарувчи кучларидан уларнинг ижтимоий, иқтисодий ва экологик оқибатларини тўла ҳисобга олган ҳолда, оқилона фойдалана олади.

2. Фан-техника тараққиёти борасидаги ютуқлар айрим давлатларнинг моно-полияси бўлиб, барча мамлакатларда уларнинг кенг қўлланишига имкон яратилади.

3. Барча мустақил мамлакатлар ўртасида тенглик, тенг ҳуқуқлилиқ ва ҳамкорликка асосланган янги иқтисодий, сиёсий муносабатлар ўрнатилиши мумкин бўлади.

4. Жаҳоннинг табиий ресурсларидан бутун инсоният ва келажак авлодлар манфаатларини кўзлаб, оқилона фойдаланиш йўлига ўтиш мумкин бўлади.

5. Миллий ва ирқий муносабатлардаги барча адолатсизликларга, тенгсиз-ликларга чек қўйилиб, ҳар бир халқ маънавияти, миллий хусусиятлари, кадриятларини эркин ривожлантира олишига шароит яратилади, миллий, умуминсоний кадриятлар биргаликда ривожланишига имконият юзага келади.

6. Жаҳондаги халқлар, мамлакатларнинг иқтисодий ва маънавий тараққиё-тини мувофиқлаштирувчи халқаро ташкилотлар фаолиятини ҳар томонлама ривожлантиришга шароит туғилади.

Маълумки, ҳар бир халқнинг ўзи учун эъзозли, қимматли бўлган маънавий бойликлари бўлади. Булар асрлар давомида авлоддан-авлодга ўтиб, ҳозирги кунда ҳам ўзининг аҳамияти ва қадрини йўқотмаган. Миллий табиатимизга хос бўлган меҳр-оқибат, мурувват, андиша, ор-номус, шарму-хаё, ибодат каби бетакрор фазилатлар, халқимизни кўп жиҳатдан ажратиб турадиган бағрикенглик, инсонпарварлик, меҳмондўстлик, оққўнгиллилиқ хусусиятлари бутун башарият учун ибратли кадрият даражасида маълум ўринга эга эканлигини таъкидлаш лозим. Миллат ва элатларнинг ўзига хос тарихий мероси, санъати ва адабиёти билан бир қаторда уларнинг урф-одат ва маросимлари, маданий муносабат ва ахлоқий фазилатлари ҳам маънавий кадриятлар тизимига киради. Бу кадриятлар халқнинг ўзига хослигини сақлаб қолишда, ёш авлодни тарбиялашда, шахснинг ижтимоийлашувида муҳим роль ўйнайди. Уларда

халқнинг дунёқараш ва ҳаётга муносабати, ички табиати ва турмуш тарзи ўз ифодасини топади. Шунингдек, миллий кадриятларда миллатнинг руҳий олами ва тафаккур тарзи, орзу-умидлари ва идеаллари, виждони ва ор-номуси акс этади. Миллий ўзликни англаш айнан маънавий кадриятларни ўзлаштириш, ўз халқининг тарихи, маданий меросини ўрганиш, бугунги ҳолати ва эртанги истиқболни аниқ тасаввур этишдан бошланади.

XXI асрда ахборот технологияларининг шиддатли ривожланиши туфайли глобаллашув жараёни янада жадаллашиб, янги босқичга кўтарилди. Бу шароитда халқнинг миллий урф-одат, анъана ва кадриятларига четдан бўладиган таъсир ҳам ортиб боради. Бу таъсир, бир томондан, миллий маданиятларнинг бойиши, кадриятларнинг юксалишига, иккинчи томондан эса миллатнинг руҳияти ва кадриятига ёт бўлган одат, маънавий таҳдид, «оммавий маданият» ва турли хил носоғлом ахборотларнинг кириб келишига сабаб бўлмоқда.

Шубҳасиз, даврлар ўтиши билан миллий урф-одат, анъана ва кадриятлар ўзгариб, янгиланиб, бойиб боради. Замон руҳига ва тараққиёт талабларига мос келмай қолган меъёр ва талаблар инкор этилади. Янгича тасаввур ва ёндашувлар, одатлар ҳаётга кириб келади. Аммо, жамият аъзолари ўз маънавиятлари, миллий менталитети ва бой маданий меросларидан узоқлашиб кетиб, ундан бегоналашсалар, келгусида улар ўзларининг келиб чиқишларини ҳам унутиб, ўз миллатларининг миллий урф-одатлари-ю, анъаналарини ҳам инкор қила бошлайдилар. Бу борада жиддий эътибор қаратиш лозим бўлган салбий иллатлардан бири – **маънавий бегоналашув** жараёнидир. Манбаларда келтирилишича (Фалсафа: қомусий луғат) бегоналашув – инсон ва унинг жамиятдаги ўрни, мавқеи ва у бажарадиган вазифаси ўртасидаги азалий боғлиқликнинг бузилиши. Маънавий бегоналашув эса инсоннинг ўз моҳиятини белгиловчи хусусиятлардан маҳрум бўлиб, жамиятда ўз ўрнини тополмаслигидир.

Маънавий бегоналашувни бартараф қилиш учун инсонларнинг бир-бирлари

билан ўзаро муносабатларини ҳақиқий бирдамлик ва ҳамкорлик асосида қуриш керакки, шунда ҳар бир инсон ўзини бошқалар учун ҳам керак эканлигини чин юракдан сезади. Маънавий бегоналашувнинг келиб чиқиш сабабларини аниқлаш, ундан аҳоли, хусусан ёшлар қатламини ҳимоялаш ўз-ўзидан содир бўлмайди. Бунинг учун шахснинг фаоллиги, миллат тақдири ва истиқболига бефарқ қарамайдиган илғор фикрли инсонларнинг биргаликдаги саъй-ҳаракати талаб этилади.

Аҳоли орасида миллий ўз-ўзини англаш, миллий ғурур, миллий манфаат тушунчаларини кенг тарғиб қилиш, маънавий бегоналашувнинг нималарда намоён бўлишини ҳаётий мисолларда кўрсатиш, глобаллашув шароитида маънавий бегоналашувнинг олдини олишда шахс фаоллигини оширишни тадқиқ этиш ва бу борада амалга ошириладиган ишларнинг самарали механизмини ишлаб чиқишдан бугунги кунда педагоглар олдида турган муҳим масалалардан биридир.

Маънавий бегоналашувни олдини олиш учун энг аввало, унинг келиб чиқиш сабаблари ва омиллари, нималарда намоён бўлишини ҳаётий мисолларда асослаш ва унга нисбатан миллий урф-одат, анъана ва қадриятларнинг таъсир механизмини аниқлаш ва бу борада шахс фаоллигини оширишнинг устувор жиҳатларини тадқиқ этиш зарур.

Характерига караб маънавий бегоналашув икки позицияга бўлинади. Биринчи позиция онг сферасида бегоналашув нафақат иқтисодий бегоналашув ва инсоннинг табиатни бўйсундириши оқибати, балки тил ўйинлари натижасидир.

Иккинчи позиция маънавий бегоналашувни бошқа барча бегоналашувларни бошланғич шакли сифатида кўради.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз.-Тошкент, Ўзбекистон, 2017 Б.24

2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-том. Т.: Ўзбекистон, 2017 й. Б.126.
3. Ляпкина Т.Ф. Духовное отчуждение современного общества: к вопросу о генезисе // Культура и цивилизация. – 2014.-№ 4.-19-25.
4. Маврулов А. Маънавий барқомол инсон тарбияси. “Ўзбекистон”. Т. 2008.
5. Маркс К. Отчужденный труд // К. Маркс и Ф.Энгельс. Сочинения. М.: Изд-во политической литературы, 1974. Т.42. 535 с.

**МАКТАБГА ТАЙЁРЛОВ ГУРУҶИ БОЛАЛАРИНИ МАКТАБ
ТАЪЛИМИГА ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ
МАЗМУНИ, ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ТАЛАБЛАРИ**

Холбоева Гулнора Улашовна

ТерДУ нинг Педагогика институти ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада болаларни мактаб таълимига тайёргарлиги ва уларнинг шакиллари ҳамда педагогик –психологик талаблари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Мактабга тайёрлов гуруҳи, болаларни мактаб таълимига тайёргарлиги, илғор педагогик ва ахборот-коммуникация технологиялари, концепсия, педагогик-психологик талаблари.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-4312-сон Қарори[1] мактабгача таълим соҳасидаги норматив-ҳуқуқий базани янада такомиллаштириш; мактабгача ёшдаги болаларнинг ҳар томонлама интеллектуал, ахлоқий, эстетик ва жисмоний ривожланиши учун шарт-шароитлар яратиш; сифатли мактабгача таълимга болалар қамровини ошириш, ундан тенг фойдаланиш имкониятларини таъминлаш, мазкур соҳада давлат-хусусий шериклик муносабатларини ривожлантириш; мактабгача таълим тизимида инновацияларни, илғор педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш; мактабгача таълимни бошқариш тизимини такомиллаштириш, мактабгача таълим ташкилотлари фаолиятини молиялаштириш шаффофлиги ва самарадорлигини таъминлаш; мактабгача таълим тизимида мактабгача таълим тизими ходимларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш, малакасини ошириш, танлаб олиш ва ривожлантиришга мутлақо янги ёндашувларни жорий этиш; мактабгача таълим ташкилотларида

болаларнинг соғлом овқатланишини, сифатли тиббий парваришини таъминлашни ўзида акс эттирган. Мазкур концепция ўрта ва узоқ муддатли истиқбол учун мактабгача таълим тизимини ривожлантириш мақсадлари, вазифалари, устуворликлари ва босқичларини белгилаб берди.

Мазкур концепцияда белгиланган вазифалар ижроси ўз навбатида мактабгача таълим ташкилотларидаги таълим сифатини ошириш орқали болаларни мактабга тайёргарлигини ривожлантириш масаласининг долзарблигини белгилайди.

Тадқиқотчи И.А.Рыбалова мактабгача таълим сифатини бошқариладиган, мақсадга йўналтирилган, назорат қилинадиган жараён сифатида қараб, бу бутун педагогик жамоанинг фаолияти натижаси эканлигини қайд этади. Педагог олим Г.Оманова ўзининг мактабгача таълим ташкилотларига сифат менежментини ожорий этиш билан боғлиқ илмий изланишларида, мактабгача таълим ташкилотида таълим сифати педагогик жамоанинг фаолияти натижаси бўлиб, у қуйидаги натижалар билан белгиланади, дея таъкидлайди:

боланинг индивидуал ривожланиш ҳуқуқини ёшга боғлиқ имкониятлар ва қобилиятларга қараб амалга ошириш даражаси;

мактабгача таълим ташкилотидаги педагогик жараённинг ташкил этилганлик даражаси (кун тартиби, танлов имкониятининг мавжудлиги, таълим дастурлари ва технологиялари, имтиёзлар, методик ишларнинг турли шакллари орқали педагогларнинг касбий ўсишини амалга ошириш тизими ва бошқалар);

мактабгача таълим ташкилотида яратилган шароитлар (мактабгача ёшдаги болани ривожлантиришга йўналтирилган ўқув муҳити; жамоадаги ижобий микроклим);

педагогларни сифатли фаолият учун ижодий рағбатлантириш тизимининг мавжудлиги;

таълим натижалари ва оилавий эҳтиёжларга қаратилган эътибор;

ўқув жараёнининг ҳолатини мунтазам равишда жамоавий муҳокама қилиш ва ваколатли бошқарув қарорларини қабул қилиш.

Дарҳақиқат, мактабга тайёргарлик таълим сифатини белгилашва уни мониторингин олиб боришнинг муҳим индикаторларидан бири бўлиб, мазкур муаммо педагогик-психологик тадқиқотларда болаларни мактабга тайёрлаш, мактабга педагогик-психологик тайёргарлик, педагогик диагностика каби йўналишларда ўрганилган.

“Мактаб ёши”, “мактабга тайёргарлик” ва “мактабга психологик тайёргарлик” – бу тушунчалар психологияда боланинг психик ривожланиш даражасини белгилашда қўлланилади. Шунда бола мактабда ўқиши, билим олиш мумкин. “Мактабга тайёр” тушунчанинг бошқа тури ҳақида психологлар таъкидлаган, яъни Л.С.Выготскийдан сўнг издошлари билим бериш ривожланишини ўз кетидан олиб келади. Бу изланиш қуйидагиларни таъкидлашга олиб келади. Билим беришни бошлашни амалга ошириш қачонки психологик функцияларнинг билим берилишида етуклик даражаси ҳали етмаган шунинг учун психологик, рухий етукликни билиб берилишда функционал ўринда кўрилиши лозим эмас. Бундан ташқари, бу изланишларни ишлаб чиқиши борасидаги муаллифлар шуни таъкидлашади-ки, болага мактабда билим беришнинг муваффақияти фақатгина боланинг билими, маҳорати ва унинг қобилияти муҳим ўрин эгалламайди, балки боланинг шахсий ва интеллектуал ривожланиши даражасини аниқлаш ва у психологик ҳолатнинг мактаб даражасида билим берилишига омил бўлади. Мана шу ҳолатни биз олдинги ҳолат билан чалкаштирмаслик учун иккинчи ҳолатни “мактабга рухан тайёр” деб ажратиб оламиз. Божович М.И. (1968 й) боланинг мактабга рухан тайёрлигининг икки йўналишини кўриб, ажратиб чиққан. Булар: шахсий ва интеллектуал тайёрлик.

Мактабга психологик тайёргарлик – бу боланинг психологик тайёргарлик даражасининг қониқарлилиги мактаб дастурини тенгдошлари гуруҳидаги

шароитида ўрганиш. Боланинг психологик ривожланиш даражаси мактаб билим олиш жараёнининг юксаклиги қуйидаги психологик, психологик атроф-муҳитни акс этади: Мотивлашган эркин, интеллектуал ҳамда сўзлашув шу йўсинда мактабга психологик тайёргарлик компонентлари ажралади. Қонунда, барча таъкидлаб ўтилган мактабга психологик тайёргарлик компонентлари мактаб ёшига етмаган болаларда нормал ривожланиш кузатилади. Агар бола мактабга чиқишидан олдин диагностикадан ўтса, унда болалар психологи нима сабабдан бундай текширув ўтказишини аниқлаш лозим. Мактабга тайёрлик ташхиси мақсади қуйидагича бўлиши мумкин:

-болаларнинг психологик ривожланиш турларини тушуниш. Бунда мақсад якка ҳолда ёндошиш, ўқув-тарбиявий жараёнга;

-Мактабда билим олишга тайёр эмас болаларни аниқлаш ва улар билан якка тартибда иш олиб бориш;

-Бўлғуси биринчи синф ўқувчиларини саралаш, уларнинг ривожланиш даражасига қараб, бу оқибатда боланинг келажакда яхши натижа иблан ривожланиши кўзда тутилади;

-Мактабга тайёр бўлмаган болаларни, яна бир йилга кечиктириш.

Юқорида келтирилган таҳлиллардан хулоса қилишимиз мумкинки, болаларни мактабга тайёргарлигини шакллантириш мазмуни аввало уларнинг ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари ҳамда таълим олувчиларнинг компетенциявий ёндашув асосидаи билим, кўникма ва малакаларининг ривожланганлик даражасини ташхис қилиш билан кечувчи тизимли жараён ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини ривожлантириш концепсияси” ПҚ-4312-сон Қарори.

2. Болангиз мактабга тайёри Х.Ахмедова Тошкент 2000 йил
3. Ўзбекистон республикаси вазирлар маҳкамасининг 2020 йил 22 декабрдаги “Мактабгача та’лим ва тарбиянинг давлат стандартини тасдиқлаш тўғрисида” ги 02-сонли қарори

PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI BAHOLASH VA UNI SHAKLLANGANTIRISH YO`LLARI

Umbarova Mavluda G`aniyevna

Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti magistranti

Rezume. Mazkur maqolada pedagoglarning kasbiy kompetentligining shakllanganligini baholash prinsiplari, pedagogik jarayonni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari, metodlari, shakllari va mezonlari o‘z ifodasini topgan.

Tayanch so‘zlar: kompetentlik, kasbiy kompetensiya, prinsip, pedagogik jarayon, assesment, imitatsiya, metod, shakl, nazorat, baholash, test.

Kompetentlikning mavjudligi inson mehnatining natijasiga qarab aniqlanadi. Har bir mutaxassisning kompetentlilik darajasi, uning bajargan ishi shu kasbiy faoliyatning yakuniy natijasiga qo‘yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi. Kompetentlik – kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo‘lib, uning o‘ziga xos tomonlari shuki, kompetentli mutaxassisning bilimlari tezkor va harakatchan bo‘lib, ular doimo yangilanib turadi. Muammoning mazmunini tushunishning o‘zi yetarli bo‘lmay, turli usullar bilan yecha bilish kerak, shu bilan birga, kompetentlik maqbul yechimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto‘g‘ri yo‘llarni chiqarib tashlash, ya‘ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi. Jumladan, Muso Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Zamaxshariy, Burhoniddin Marg‘inoniy, shuningdek, "Ma‘mun akademiyasi" deb nomlangan Xorazmdagi ilmiy markazda (IX-XII asrlar) faoliyat ko‘rsatgan allomalar ijodida ilm ahlining bilim darajasining oshib borishi jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil etuvchi omil sifatida baholanib, ilmiy o‘rganilgan. Tadqiqot ishi muammosi bo‘lgan ya‘ni pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosi xorijiy olimlardan A.I. Sherbakova, N.V.

Kuzmina, A.K. Markova, F.N. Gonobolin, Y.K. Babanskiy, M. Maxmutov, K.D.Ushinskiy, M.M.Lisina, V.A.Artemov, o‘zbek olimlaridan N.N. Azizxodjaeva, J. Yo‘ldoshev, A.R.Xodjabaev, U.N.Nishonaliev, N.Sayidahmedov va boshqalar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Yuqorida qayd etilgan barcha olimlarning ilmiy izlanish va tadqiqot ishlari hal etilayotgan muammo nuqtai nazaridan katta ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy kompetensiyalarni baholash maqsadlari. Kasbiy kompetensiyalarni baholash mezonlarini ishlab chiqishdan maqsad muayyan kasbiy faoliyat uchun zarur hisoblanadigan kompetensiyalarni muhimlik darajasiga ko‘ra belgilab olish, real holatlarni baholay olish va kompetensiyalarni mavjud bo‘lgan darajasidan talab etiladigan darajaga olib chiqishdir. Ta’lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholash ta’lim sifatini nazorat qilish va boshqarishning asosiy – tayanch bo‘g‘ini hisoblanadi va uning maqsadi:

kasbiy kompetensiyalarning mavjud bo‘lgan darajasining standart talablarida belgilangan darajaga mosligini aniqlash;

pedagog egallagan kompetensiyalarining ish beruvchi muassasalar talablariga mosligini aniqlash;

pedagoglarning mustaqil ravishda kasbiy faoliyat yurita olish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Kasbiy kompetensiyalarni baholash sifatini oshirish prinsiplari. Kasbiy kompetensiyalarni baholash metodikalariga ko‘ra baholash quyidagi ishonchlilik va yetarlilik prinsiplariga mavofiq bo‘lishi kerak: ishonchlilik – baholash bevosita baholash obyektiga, ya’ni baholanayotgan kompetensiya elementiga tegishli bo‘lishi kerak; yetarlilik – baholashda kompetensiyaning baholanayotgan elementlari namoyon bo‘ladigan faoliyatning muhim jihatlarini ko‘rsatish uchun yetarli miqdordagi dalillardan foydalanish zarur. Kasbiy kompetensiyalarni baholashning asosiy shakllari umumiy kompetensiyalarni baholash shakllaridan farq qiladi. Bu kasbiy kompetensiyalar elementlarini baholash ko‘rsatkichlarining o‘ziga xosligidan kelib

chiqadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, pedagoglarning kasbiy muammolarni muvaffaqiyatli hal eta olish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun real kasbiy muammoli vaziyatlarga o'xshash topshiriqlar ishlab chiqish zarur. Pedagoglarning kasbiy kompetentligini baholash metodlari *nazoratlar va testlardir*. Ta'lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholashda o'tkaziladigan nazoratlarning an'anaviy ta'lim tizimidagi nazoratlardan asosiy farqi shuki, kasbiy kompetensiyalarni baholashda bilim va ko'nikmalarning mavjudligi emas, balki o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amaliy faoliyatdagi vaziyatlarda qo'llay olish layoqatlari orqali baholanadi. Shu sababli testlar faqat pedagogik, metodik, texnik-texnologik amaliy topshiriqlarga qo'shimcha sifatida ishlatiladi. Nazoratlar quyidagicha o'tkazilishi mumkin: og'zaki muloqot layoqatlarini aniqlash maqsadida og'zaki shaklda; ta'lim natijalariga baho berish uchun og'zaki savollar orqali intervyu shaklida; (*audit* — tinglamoq, ta'lim oluvchini tinglash va nutqini talqin qilish orqali kompetensiyalariga baho berish maqsadida audit shaklida; nazariy bilimlarni tushunganligi va ularni amalda qo'llay olishini baholash maqsadida yozma (yoki test) shaklda. *O'z--o'zini ta'riflash*. Pedagoglar o'z kasbiy kompetensiyalarini o'zlari ta'riflab beradilar, boshqa o'qituvchilar tomonidan tasdiqlanishi kerak. O'z -o'zini ta'riflash metodi bu baholanuvchi pedagogning o'z kasbiy kompetensiyalari darajasini yozma ravishda o'zi baholashidir. Ta'rifda keltirilgan barcha ma'lumotlar dars tahlilida ishtirok etayotgan o'qituvchilar tomonidan tekshiriladi va tasdiqlanadi. *"Portfolio" metodi*. Mazkur metod pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarining shakllanishini namoyon qiladigan materiallar va ma'lumotlar to'plamidan iborat bo'ladi. Portfolio ularning ta'lim jarayonida erishgan natijalarini, olimpiadalar, tanlovlar, xalqaro va respublika miqyosida tashkil etilgan konferensiyalardagi ishtiroki va yutuqlarini, nashr etilgan darslik, o'quv qo'llanma, ilmiy -tadqiqot ishlarini (patent, ixtiro, monografiya va boshqa) tasdiqlaydigan turli hujjat, sertifikat, diplom va guvohnomalari, shuningdek, bajarilgan topshiriq loyihalari, keys, eskiz, chizma, tayyorlangan mahsulotlar, taqdimot, videoyozuvlar va hokazolardan iborat bo'ladi. Bajarilgan ishlar pedagoglar

tomonidan tekshirilishi va baholanishi kerak, bunday metod, ayniqsa, ta'lim yo'nalishlari pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini baholashda mos keladi.

Imitatsion topshiriqlar. Imitatsion (taqlidga oid) topshiriqlar kasbiy faoliyatga maksimal darajada yaqinlashtirilgan vaziyatlarni hal etishga qaratilgan topshiriqlardan iborat. Ushbu metodning mohiyati pedagoglarga qo'yilgan kasbiy vazifalarni mustaqil ravishda amalga oshirishlari uchun shart- sharoitlarni yaratish, kasbiy faoliyat muhitiga olib kirish orqali ularning kasbiy kompetensiyalarining shakllanib borishini nazorat qilish, pedagogda kasbiy kompetensiyalar mavjudligining dalillarini namoyish qilishdan iborat. *Assesment texnologiyasi.* Ta'lim jarayoniga assesment (*ingliz tilidan assess – baholash*) texnologiyasini joriy etish orqali ham yuqori natijalarga erishish mumkin. Assessment – pedagogik kadrlarni kompleks baholash metodlaridan biri, u bir-birini o'zaro to'ldiradigan metodikalardan iborat bo'lib, ta'lim muassasasi xodimlarining turli shaxsiy sifatlarini, ularning psixologik va kasbiy jihatdan o'ziga xos tomonlarini, kasb va lavozim talablariga mosligini baholash, shuningdek, mutaxassislarning potensial imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. *Kompetensiyalar shakllanganligini baholash jarayonini amalga oshirish o'ziga xos xususiyatlarga ega:*
– baholashni amalga oshirish uchun maxsus kasbiy kompetensiyalarning komponentlari belgilab olinadi;

imitatsion topshiriqlarni shunday tuzish kerakki, ularni bajarish jarayonida talaba kasbiy kompetensiyalarining hamma elementlarini namoyish eta oladigan bo'lsin;

kompetensiya elementining shakllanganlik darajasini aniqlashning asosiy usuli talabaning o'z kasbiy funksional vazifasini hal etish yo'llari bo'yicha og'zaki hisobotini baholashdir, ya'ni talaba vazifani hal etgandan so'ng, uni qanday tarzda yechganligi, qay bilim va ko'nikmalardan foydalanganligi va hokazolarni tushuntirib berishi baholanadi;

baholash individual tarzda amalga oshiriladi, lekin bir xil topshiriqlarni bajargan barcha talabalar uchun baholash mezonlari ham bir xil bo'lishi zarur. Pedagoglarning

kasbiy kompetentligining shakllanganligini baholash va uning sifat darajasini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

ta'lim jarayonini shaxsning kasbiy kompetentlikka erishishida betakror individualligini rivojlantirishga qaratish;

bo'lajak mutaxassisning o'quv-bilish, imitatsion-modellashtirish va kasbiy-amaliy faoliyatining o'zaro to'ldiruvchanligi va izchilligini ta'minlash;

kasbiy kompetentlikni insonparvarlikka qaratilgan holda tashxis qilish va o'z-o'zini tashxis qilish;

kasbiy kompetentlikning subyektli, obyektli va predmetli tarkibiy qismlarini shakllantirish vositalari sifatida subyektli-amaliy, mazmuniy-texnologik va predmetli-natijaviy vazifalar tizimidan foydalanish kabi psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N.A. va b. Modulli-kompetentli yondashuv asosida kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy (maxsus) kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - Toshkent:TDPU, 2014 yil.-B.116.
2. Muslimov N.A. va b. Kasb ta'limi mazmunini modernizatsiyalash asosida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi.shakllantirish texnologiyasi. -Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2013 - B.128
- 3.G'ulomov X.R. Raximov va boshqalar."Ta'lim - tarbiya sifati va qirralari". T;"Fan va texnologiyalar". 2004.
- 4.Muslimov N.A. Kasbiy ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari:Ped.fanl.dokt.diss.T:2007.-349 b.
- 5.Xushvaqtov N.X. O'quvchilarni milliy-ma'naviyat qadriyatlarini o'rganish va tayyorlashning pedagogik va kompyuterli asoslari: Ped.fan.nomz.diss.-T.:2006.-174 b.

**MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY FAOLLIKNI
SHAKLLANTIRISH NUQTAI NAZARIDAN O'NG VA CHAM YARIM SHAR
INTELLEKTGA EGA BOLALARNING NEYROPEDAGOGIK
XUSUSIYATLARI**

Allaberdiyeva K.X.

Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti o'qituvchisi

Keywords: pedagogical – psychological description, preschool education, activity, ability.

Chap yarim shar intellektga mansub bolalarda Chap bosh miya yarim shari tayanch vazifani bajarishi tufayli inson oliy nerv fiziologik funktsiyalarida mavhumlashtirish(abstraktsiya) va umumiyashtirishga nisbatan bo'lgan moyillik kuzatiladi, bilish jarayonlarining og'zaki-mantiqiy xususiyatlari yorqin namoyon bo'ladi. Chap bosh miya yarim shari so'zlar, shartli belgilar, timsollar yordamidan foydalanishni boshqaradi. Qolaversa, analitik, mantiqiy, kontseptual tafakkur jarayonlari ham aynan Chap bosh miya yarim shari yordamida boshqariladi.

Chap bosh miya yarim sharining asosiy vazifasi – axborotni ongli, ixtiyoriy ravishda qayta ishlash va muvofiqlashtirish hisoblanadi. Chap bosh miya yarim shari konvergent tafakkur (ma'lum vaziyatda faqat bitta to'g'ri javobni izlashga qaratilgan tafakkur turi), atama va tushunchalar bilan ishlashda namoyon bo'luvchi tafakkur operatsiyalari, oldindan bashorat qilish, farazlarni ilgari surishga javobgar nerv markazlarining majmuini o'zida saqlaydi. Chap bosh miya yarim shari yetakchi bo'lgan bola formal mantiqqa moyillik bildiradi, hamda xato, ayrim ma'noda yolg'on tasdiqlarni haqqoniy tasdiqlardan ajrata olish xususiyatiga ega bo'ladi. Chap bosh miya yarim sharining semantik xotirasida ijtimoiy qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlarning anglangan holdagi ko'rinishlari saqlanadi. Bundan tashqari, aynan Chap bosh miya

yarim shari ketma-ketlik asosida tashkil etish jarayoniga javob beradi, qolaversa, Chap bosh miya yarim shari asosiy vazifani bajaruvchi insonlarda eshitish vositasida idrok qilish jarayoni yaxshi rivojlanadi. Ta'lim jarayonida tarbiyachi va psixologlar tomonidan doimiy ravishda amalga oshirilgan kuzatuvlar shundan dalolat beradiki, Chap bosh miya yarim shari tayanch bo'lgan bolalar yozma nutqi faol, ular yozishni hush ko'rishadi, ko'p yozishadi, uzun matnlarni be'malol tinglaydilar va yaxshi yodlab qoladilar, og'zaki nutqlari grammatik jixatdan to'g'ri bo'ladi. Qolaversa, Chap bosh miya yarim shari tayanch bo'lgan bolalarda mas'uliyat hissining yuqori darajada rivojlanishi, majburiyat, shaxsiy me'yorlarga qat'iy rioya qilish, emotsiyalarni ichki holatda qayta ishlash kabi fazilatlarni namoyon qilishadi.

O'ng yarim shar intellektga ega bolalarda o'ng bosh miya yarim shari asosiy funksional birlik, tayanch vazifani bajargan holda, tarixiy voqelikni ijodiy idrok etish, bilish jarayonlarining aniq, obrazli yo'nalganligi ustunlik qilishi bilan farqlanadi. Qolaversa, aynan bunday turga mansub bolalar divergent tafakkur (bir qancha, iloji boricha ko'proq to'g'ri yechim variantlarini topishga yo'naltirilgan) xosdir. Bosh miyaning o'ng yarim shari real, mavjud bo'lgan ob'ektlarning aniq belgilari, timsollari bilan ishlashga moslashgan, fazoviy mo'ljal olishga ixtisoslashgan bo'lib, uyg'un mutanosibliklarni oson his etadi, idrok qiladi.

O'ng bosh miya yarim shari ong osti faoliyatini boshqarib, axborotni analogli qayta ishlash jarayoni uning faoliyati vositasida amalga oshiriladi. Xulq-atvorni ongsiz ravishda boshqarish o'ng bosh miya yarim shari faoliyatining normal holati hisoblanadi. U davomiy, to'xtovsiz ravishda tarixiy ob'ektning simmetrik, murakkablik, tizimlashtirilgan xususiyatlarini idrok qilishga, axborotni topologik, fazoviy tarzda qayta ishlashga yo'naladi. Chap bosh miya yarim shari diqqatni bir nuqtaga jamlashga javobgar bo'lsa, o'ng bosh miya yarim shari aksincha, diqqatning taqsimlanishiga mas'ul hisoblanadi. Qolaversa, u olamning yaxlit, doimiy tasviri manbasidir, g'ayri-ixtiyoriy emotsional xotira, intuitiv, his-tuyg'ular vositasida obrazli tafakkur yuritish jarayonini amalga oshirishga xizmat qiladi. Tarixiy voqelikni

baholashga doir bolaning taxmin va farazlari hamda ularning amaldagi isbotini topish kabi hodisalar o'ng bosh miya yarim shari vositasida qaror topib, Chap bosh miya yarim shari taxmin qilsa, mana shu taxmin va farazlar o'ng bosh miya yarim shari tomonidan amalda sinab ko'riladi deb aytish mumkin. O'ng bosh miya yarim shari «hozir va shu yerda» tamoyilidagi xatti-harakatlarni boshqaradi.

O'ng bosh miya yarim shariga oid tafakkur yuritish jarayoni tarkibiy qismlariga formal mantiq nuqtai nazaridan bir-biriga mutlaqo zid bo'lgan aloqalarni bir paytning o'zida qamrab olish, shu orqali yaxlit, ko'p ma'noli kontekst hosil qilish xususiyati ham kiradi. O'ng bosh miya yarim shari tayanch hisoblangan insonlarning nutqi o'ta emotsional, tezkor, jestlarga boy, ba'zan tutilishlar kuzatilishi mumkin, chalg'ish, bo'linganlik, ortiqcha tovushlar hamda so'zlar aks ettirilishi mumkin. Bola tomonidan anglanmagan axborot (o'ng bosh miya yarim sharlari mas'ul bo'lgan ongosti jarayonlari) uni haqiqiy mazmuni va mohiyati o'ziga ham qorong'u bo'lgan xatti-harakatlarni amalga oshirishga undashi mumkin. Bola tezkor ravishda qaror qabul qilishni, hamda vujudga kelgan vaziyatning barcha murakkab jihatlarini inobatga olgan holda xatti-harakatlarni amalga oshirishni taqozo etuvchi holatga tushganda, ko'pincha o'z xatti-harakatlarini aniq anglash, ularni tahlil etish darajasigacha yetishi mumkin. Ammo vaqt o'tgach, bola o'z xatti-harakatlarini yakunlaganidan so'ng, ularni qaytadan namoyon qilishga, hatto ketma-ketlikda amalga oshirgan harakatlarini bayon etishga ham qiynaladi. Bunday paytda bola xulq-atvori go'yoki ongsiz, lekin vujudga kelgan vaziyatning barcha xususiyatlarini inobatga olgan holda davom etadi. Gap shundaki, o'ng bosh miya yarim shari barcha axborotni Chap bosh miya yarim shariga nisbatan tez qamrab oladi. U murakkab noaniq axborotni samarali o'zlashtiradi.

Aralash intellektga mansub bolalarda u yoki bu bosh miya yarim sharining yetakchiligi kuzatilmaydi, aniqrog'i ular teng kuchli assimetriyaga ega bo'lishadi, tafakkur yuritish jarayoni uslubi ikkala bosh miya yarim shari tomonidan bir maromda tanlanadi va amalga oshiriladi. Bundan tashqari, mavjud ilmiy farazga muvofiq, har

qaysi bosh miya yarim sharining samarali o'zaro ta'siri umumiy iqtidorlikning fiziologik asosi hisoblanadi.

Ijodiy faollikni shakllantirishga doir o'ng va Chap yarim shar intellektga xos xususiyatlar tizimi

O'ng yarim shar intellektga xos xususiyatlar	Chap yarimshar intellektga xos xususiyatlar
Tarixiy voqelikni tahlil etish, tasniflash, mulohaza yuritish, algoritmlash, izchillik, induktsiyalash kabi o'ziga xosliklarga ega	Tarixiy voqelikni umumlashgtirish, deduktsiyalash, aniqlashtirish, tizimlashtirish kabi xususiyatlar ustun
Ratsional-mantiqiy, shartli-belgili fikrlash	Obrazli-emotsional, evristik, yaxlit, uyg'un fikrlash
Tarixiy voqelikning barcha tafsilotlarini qat'iy ketma-ketlikda tahlil etish asosida axborot ustida ishlaydi va uni yozma shaklda bayon etishni yaxshi ko'radi	Tarqoq ma'lumotlar asosida tarixiy voqelikka doir axborotlarni to'playdi va uni grafik, xarita, demonstratsiya ko'rinishda bayon etishni yaxshi ko'radi
Tarixiy voqelikni muhokama etishda dalillarga qayta-qayta murojaat etadi	Tarixiy hodisalarni sharhlashda aniq dalillarga qaraganda mustaqil tanlovni ustun qo'yadi va intuitsiyaga tayanadi
Tarixiy jarayonlarni xususiylkdan umumiylikka qarab tahlil etadi	Tarixiy jarayonlarni umumiylikdan xususiylkka qarab tahlil etadi
Tarixiy voqea-hodisalarni mashg'ulotlikdan o'qishni, so'ngra multimedia vositalari orqali aniqlashtirishni yoqtiradi	Tarixiy davr bilan bog'liq materiallarni mashg'ulotlikni o'qishdan avval multimedia vositalaridan tomosha qilishni xohlaydi

Tarixiy germenevtika va simvollar bilan ishlashni yaxshi ko'radi	Aniq tarixiy ob'ektlar bilan ishlashni ma'qul ko'radi
--	---

Adabiyotlar

- 1.См: Москвин В.А., Москвина Н.В. Основы нейропедагогики. – Оренбург: ИПК ОГУ, 2000. – 135 с.
- 2.См: Брагина Н.Н. Левши. – М.: Книга Лтд, 1994. – 230 с.; Хомская Е.Д. Нейропсихология. – Санкт-Петербург: Питер, 2005. – 496 с.; Доброхотова Т.А. Нейропсихиатрия. – М.: Издательство БИНОМ, 2006. – 304 с.; Гимнастика мозга. Простые упражнения для учения целостным мозгом [Текст] / П. И. Деннисон, Г. И. Деннисон. – М.: Восхождение, 1998.- 46 с.
- 3.См: Хомская Е.Д. Нейропсихология. – Санкт-Петербург: Питер, 2005. – 496 с.
- 4.См: Гимнастика мозга. Простые упражнения для учения целостным мозгом [Текст] / П. И. Деннисон, Г. И. Деннисон. – М.: Восхождение, 1998.- 46 с.

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN
TANISHTIRISH ORQALI ULARDA MEHR-MUHABBAT TUYG'USINI
SHAKLLANTIRISH**

Xolmatova Fotima

TerDU Pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolalarni tabiat bilan tanishtirish orqali ularda mehr-shavqat tuyg'ularni shakllantirish, pedagogik jarayonni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari, tamoyillari va mezonlari o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh, prinsip, pedagogik jarayon, ekologiya, tabiat

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayoni har tomonlama rivojlangan shaxs ma'naviy qiyofasini kamol topish jarayonining muhim va tarkibiy qismidir. U bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida tabiatga ongli munosabat, tabiat zaxiralarini saqlash va ko'paytirishga oid mas'uliyat tuyg'usi, ekologik muammolarni amaliy hal qilishdagi ko'nikmalarning rivojlantirilishini o'zida qamrab oladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirar ekanmiz, ularga avvalo tabiat nima ekanligi, tabiatning insoniyat uchun bebaho qadriyat ekanligi haqida tushunchalar berishimiz lozim.

Tabiat – bu insoniyat yashashi uchun buyuk makon, noz-u ne'matlar manbai bo'lib, uni asrash har bir insonning burchi, bu borada xalqimiz o'zining milliy-tarixiy an'analariga ega.

O'tmishdan ma'lumki, tabiat insoniyat uchun bebaho qadriyatdir. Tabiat tug'ilish, yashash, o'sish-faoliyat maydonidir. Inson tabiat bilan yashaydi, o'sadi, rivojlanadi. Ta'lim-tarbiyaning o'z oldiga qo'ygan maqsadi vazifalarini yaxshi bilmasdan turib, yosh avlodni tabiat bilan tanishtirishda ularni maqsadga muvofiq tarbiyalab bo'lmaydi. Buning uchun xalq manfaatlarini aks ettiruvchi tarbiyaning

maqsadlari to'g'risidagi tasavvur qanday vujudga kelgan va bu tasavvurlar keyinchalik qanday rivojlanganligi hamda pedagogik tomondan qanday ta'rif va tavsif berilganligini eslash maqsadga muvofiqdir.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishni maktabgacha yoshdan boshlamoq kerak. Shunga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkilotlarida murg'ak qalblarga ta'lim-tarbiya berayotgan tarbiyachilarning oldilarida eng muhim vazifalaridan biri ham bolalarning tabiat go'zalliklarini ko'ra bilishi, uni sevishi, tabiatda yuz bergan voqea-hodisalar haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lishi, qolaversa tabiat yaratgan boyliklardan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i lozim.

Biz bolalarni tabiat bilan tanishtirar ekanmiz, eng avvalo pedagogika fanining asoschilari tomonidan aytib o'tilgan fikrlarga asoslanamiz. G'arbning ilg'or pedagoglaridan Ya.A.Komenskiy "Bolalarga beriladigan bilm hayotiylikka va ko'rgazmaviylikka asoslanishi kerak" degan edilar.

O'simliklar dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to'g'ri o'sib-shakllanishida, bo'ladigan voqea-hodisalarning sir-asrorini o'rganib voyaga yetishida katta manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya insonning tabiatga, qolaversa, o'ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otish ona Vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an'analariga hurmat ruhida tarbiyalashga, yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda bolalarni tabiat bilan tanishtirish printsiplariga tayanishimiz lozim bo'ladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning quyidagi printsiplari mavjud:

1. Bolalar yoshiga xoslik printsiipi;
2. Ilmiylik printsiipi;

3. Ko'rgazmalilik printsipi;
4. O'lkashunoslik printsipi;
5. Entsiplodik printsip

Bolalar yoshiga xos jonli va jonsiz tabiat haqida oddiy tushunchalar berish bolalarga beriladigan bilimlar oddiy bo'lishi bilan birga ilmiy, aniq bo'lishi kerak.

Yuqorida aytib o'tilgan printsiplar bir-biri bilan aloqada olib boriladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ilmiylik printsiptiga amal qilinadi. Tabiat haqidagi beriladigan bilimlar ilmiy bo'lishi bilan birga bolalar tushunadigan bo'lishi shart.

Ilmiy printsiplarni bolalar yoshiga xos bo'lsagina natija beradi. Bu haqida Ya.A.Komenskiy shunday degan: "Oddiydan murakkablikka, yaqindan-uzoqqa, tanishdan-tanish emasga tomon borish kerak". Biz bolalarni tabiat bilan tanishtirishda bevosita o'zlariga yaqin bo'lgan, atrofini o'rab turgan tabiat bilan tanishtirishdan boshlaymiz.

Bolalarga beriladigan bilim ilmiy, bolalar yoshiga xos bo'lsa, ular ko'rgazmasiz bo'lsa, bolalar ishni tushunmaydi. Ko'rgazmalilik – ko'rib idrok qilish emas, balki ularni hamma sezish organlarini tortgan holda idrok qilishdan iborat. Demak, ko'rgazmalilik bolalarni abstrakt tushunchalarni real anglashga olib keladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish faoliyatini uning barcha qonun-qoidalariga, printsiplariga amal qilgan holda olib borsakgina biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadga erisha olamiz.

Shundagina biz bolalarga beriladigan ekologik tarbiya orqali ularning, qalbida mehr-muhabbat va shavqat tuyg'ularini tarbiyalay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova, F., Toshpulatova Sh., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma T.: Ma'naviyat, 2013.
2. Qodirova F.R., Tashpulatova Sh.K. Bolalar bog'chasida metodik ishlar. Darslik T.: Voris, 2012.
3. O.Hasanboyeva, X.Jabborova, Z.Nodirova Tabiat bilan tanishtirish metodikasi. T.: Cho'lpon, 2013

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK ISHLARINI OLIB BORISH USULLARI

Suvanova Sevara Baxodir qizi

Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti magistranti

Rezume. Mazkur maqola Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlarida ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini olib borish usullari haqida yoritilgan.

Tayanch so'z. Maktabgacha, ta'lim, tashkilot, hamkorlik, usul, tarbiya, oila, mahalla.

O'zbekiston Respublikasida Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlari to'g'risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda,ota-onalarning mustaqil ta'lim berishi orqali yoki doimiy faolyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida shuningdek Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilingan bolalar uchun bolalar bog'chasida,maktablarda,mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlarga yoki markazlarda oladi.

Bola tarbiyasida oila va MTT faolyati bir maqsadga qaratilgan bir biriga mutanosib,biri ikkinchisini to'ldirmog'I va o'zaro hamkorlikda bo'lmog'I lozim.Maktabgacha yoshdagi bolalarning kelgusida o'qishni yaxshi o'zlashtirishi,maktabga moslashuvini taminlashda ularning MTT larga jalb etilganligi bu bilan ta'limga qamralganligi alohida ahamyatga ega.Har bir MTT o'z hududida yashovchi oilalarning tarkibini o'rganib,oiladagi yetti yoshgacha bo'lgan bolalarning ta'limga qamralganlik darajasini o'rganishlari zarur.Agar bola MTT ga qamralmagan bo'lsa,u holda buning sabablari albatta o'rganilishi shart.Ota-onalarga tegishli tavfsiya va maslaxatlar berish,tushuntirish va targ'ibot ishlarini olib borish rejalashtiriladi.Bolalarni uyda maktab ta'limiga tayyorlashdan ko'ra MTT larda ta'lim

olishining farqlarini ota-onalarga tushuntirish kerak. Bola uyda bo'lgan vaqtida yolg'iz o'zi bo'ladi,

MTT larda esa ular ko'pchilik bo'ladi va ta'lim tarbiya olish jarayoni mofaqiyatli kechishi haqida ota-onalarga tushuntirish ishlari olib boriladi. Bola kunning asosiy qismini MTT da o'tkazsa ham tarbiyani ko'proq oilasidan oladi. SHuning uchun ham MTT lar bilan oila hamkorlikda ishlashi kerak. Har bir bolaning oilasiga tarbiyachining borishi ota-onalar uchun suxbat o'tkazishi, ularga maslaxat berishi, ota-onalarni bolalarning MTT dagi hayoti o'zini qanday tutishi bilan tanishtirishi kerak.

MTT da farzandlari tarbiyalanayotgan ota-onalar bilan so'rovnoma o'tkazadi. Bundan tashqari bolalar bilan ham so'rovnoma o'tkazadi. Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha juda ko'p ishlarni tarbiyachi pedagog amalga oshiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan o'zgarishlarni hammadan ko'proq ko'radi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo'ladi. U ota-onalarga bola tarbiyasida nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligi ularni maktab talimiga tayyorlash, sog'lig'ini saqlash, ovqati va kun tartibini to'g'ri tashkil etish haqida tavsiyalar berib boradi. Tarbiyachi ota-onalar bilan doimiy ravishda aloqada bo'lib turadi. Bolaning ta'limida, tarbiyasida bo'layotgan o'zgarishlar haqida ota-onalarga malumot berib turadi. MTTda ota-onalar bilan ishlash bo'yicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogic kengashda muhokama qilinadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mavzulari mazmuni tarbiyachi metodistning rejasida va tarbiyachining kalendar rejasida aks etadi. MTT larning ota-onalar bilan ishlashining jamoa tarzida va yakka yakka holda holda ishlash shakillarini mohirlik bilan qo'shib olib borish, keng aholi ommasi orasida pedagogic tashviqot ishlarini tashkil qilish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Hamkorlikning asosiy usullari.

1. *Bolaning oilasiga tashrifini o'rganish.* Bolaning ota-onasi bilan aloqani o'rnatishi, tarbiyachi bolalarning ota-onalari bilan ular uchun qulay tashrif vaqtini oldindan kelishib olishi zarur, shuningdek tashrifning maqsadini aniqlab olishi kerak.

2. *Ochiq kunlar*, bu juda keng tarqalgan ish shakli bo'lib, ota-onalarni maktabgacha tarbiya muassasasi, uning an'analari, qoidalari va tarbiyaviy ishlarning xususiyatlari bilan tanishtirish, unga qiziqish va jalb qilish imkoniyatini beradi. U yangi kelgan ota-onalarning farzandlari tarbiyalanayotgan guruhga tashrifi bilan maktabgacha tarbiya muassasasiga ekskursiya sifatida amalga oshiriladi

3. *Maslahatlar*. Maslahatlar yakka tartibda yoki ota-onalar guruhida o'tkaziladi. Ota-onalar guruh maslahatiga taklif qilinadi. Maslahat maqsadi - ota-onalar tomonidan ma'lum bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish; ularga muammoli masalalarni hal qilishda yordam berish.

4. *Ota-onalar yig'ilishi*. Umumiy yig'ilishlar yiliga 2-3 marta o'tkaziladi. Ularda yangi o'quv yili oldidagi vazifalar, tarbiyaviy ishlar natijalari, jismoniy tarbiya masalalari va yozgi davolanish muammolari va boshqalar muhokama qilinadi.

5. *Muhokama uchrashuvlari*. Ota-onalarning ta'lim imkoniyatlarini oshirish uchun faol aloqa shakllari. Bu, masalan, davra suhbat, savol-javoblar, ota-onalarga ta'lim va bola bilan muloqot qilish usullari to'g'risidagi o'z nuqtai nazarlarini to'g'rilashga yordam beradigan mahorat darslari va treninglar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qo- nuni. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1997.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1997.
3. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Maktabgacha ta'limkon- sepsiyasi. T., Fan va texnologiya, 2011.
4. Qodirova, F., Toshpulatova Sh., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma T.: Ma'naviyat, 2013.
5. Qodirova F.R., Tashpulatova Sh.K. Bolalar bog'chasida metodik ishlar. Darslik T.: Voris, 2012.
6. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Darslik T.: Istiqol, 2006.

COMPLEX APPROACH TO THE STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS, INCLUDING LEXICAL ANALYSIS

Omonova Maftuna Shermatovna

English teacher of Primary education faculty of the Chirchik Pedagogical Institute,
Tashkent region

Purpose: This thesis is dedicated to complex approach to the study of phraseological units, including lexical analysis.

Keywords: phraseological units, semantic structure, life experience, urban component.

The lexeme of a language is enriched not only by words but also by phraseological units. Phraseological units are word groups that cannot be done in the process of speech, they exist in the language as readymade units. They are compiled in special dictionaries. The same as words phraseological units express a single notion and are used in a sentence as one part of it. American and British lexicographers call such units “idioms”. We can mention such dictionaries as: L. Smith “Word and Idioms”¹, V. Collins “A book of English idioms”² etc. In these dictionaries we can find words, peculiar in their semantics (idiomatic), side by side with word-groups and sentences. In these dictionaries they are arranged as a rule, into different semantic groups.

Phraseological units can be grouped according to the ways they are formed, according the degree of the motivation of their meaning, according to their structure and according to their part of speech meaning.

A.V. Koonin divided phraseological units according to the way they are formed. He pointed out primary and secondary ways of forming phraseological units. Primary

¹ Smith, L. P. Word and Idioms: Studies in the English Language. London: Constable’s Miscellany. 1995

² Collins V. “A Book of English Idioms”- London: Penguin Books, 1999

ways of forming phraseological units are those when a unit is formed on the basis of a free word-group:

a) the most productive in Modern English is the formation of the phraseological units by means of transferring the meaning of terminological word-groups, e.g. in cosmic technique we can point out the following phrases: launching pad “in its terminological meaning is” uchish maydoni, in its transferred meaning – yuborish manzili, “to link up”- aloqa o’rnatmoq, in its transformed meaning it means – tanishmoq.

b) a large group of phraseological units was formed free word groups by transforming their meaning. For example: “granny farm” qariyalar pansionati, “Trojan horse” – kompyuter uchun dastur;

c) phraseological units can be formed by means of alliteration. For example: “a sad sack” – baxtli voqea, “culture vulture”- sanatga ishqiboz odam.

d) they can be formed by means of expressiveness, especially it is characteristic for forming interjections. For example: my aunt! hear, hear! Etc.

e) they can be by means of distorting a word group. For example: “odds and ends” was formed from “odds end”.

f) they can be formed by using archaisms, for example: “in brown study” means “in gloomy meditation” where both components preserve their archaic meanings;

g) they can be formed by using a sentence in a different sphere of life. For example: “that cock won’t fight” can be used as a free word-group when it is used in sports (cock fighting), it becomes a phraseological unit. When it is used in everyday life, because it is used metaphorically.

h) they can be formed when we use unreal image, for example: “to have butterflies in the stomach” – xavotir olmoq, “to have green fingers” – bog’bonlik qo’lidan kelmoq, etc.

i) they can be formed by using expressions of writers or politicians in everyday life. For example: “corridors of power” (snow), “American dream” (Alby) “last years” (Churchill), the winds of change (M. Milan).

Secondary ways of forming phraseological units are those when a phraseological unit is formed on the basis of another phraseological unit; they are:

- a) Conversion, for example: “*to vote with one’s feet*” was converted into “*vote with one’s feet*”
- b) Grammar form, for example: *make hay while the sun shines* are transferred into verbal phrase – “*to make hay while the sun shines*”,
- c) analogy, for example “*Curiosity killed the cat*” was transferred into “*Care killed the cat*”,
- d) contrast, for example “*cold surgery – a planned before operation*” was formed by contrasting it with acute surgery, “*thin cat*” – “*a poor person*” was formed by contrasting it with “*fat cat*”;
- e) shortening of proverbs or sayings. For example, from the proverb “*you cannot make a silk purse out of a sow’s ear*” by means of clipping the middle of it the phraseological unit “*to make a sow’s ear*” was formed with the meaning “xato qilmoq”;
- f) borrowing phraseological units from other languages, either as translation loans, for example “*living space*” (German), “*to take the bull by the horns*” (Latin) or by means of phonetic borrowings “*meche blanche*” (French) “*corpse d’elite*” (French) “*sotto voice*” (Italian) etc.

Phonetic borrowings among phraseological units belong to the bookish style and are not used very often. They are different combinations of words. Some of them are free e.g. to read books (newspapers, a letter, etc.) others are fixed, limited in their combinative power, e.g. to go to bed, to make a report. The combinations of words which are fixed (set expressions) are called phraseological units. A free combination is a syntactical unit, which consists notional and form words and in which notional words

have the function of independent parts of the sentence. In a phraseological unit words are not independent. They form set expressions, in which neither words nor the order of words can be changed. Free combinations are created by the speaker in a ready form, without any changes. The whole phraseological unit has a meaning which may be quite different from the meaning of its components, and therefore the whole unit, and separate word, has the function of a part of the sentence. Phraseological units consist of separate words and therefore they are different words, even from compounds. Word has several structural forms but in phraseological units only one of the components has all the forms of the paradigm of the part of speech it belongs to. E.g. To go to bed, goes to bed, went to bed, gone to bed, going to bed, etc. the rest of the components do not change their form.

THE LIST OF USED LITERATURES

1. Koonin A.V. English Idioms.3d ed. M: Vysshaya shkola 1967.
2. Longman Dictionary of English Idioms. - L: London, 1996
3. Formation. Wisbaden, 2006
4. Morozova N. N. "English lexicology". - M: Vysshaya shkola, 1993
5. Muminov.O. Lexocology of the English Language. -Tashkent: Mehridaryo, 2008.-pp.108-112
6. Rixon.S. How to use games in language teaching? - London: Macmillan Publishers, 1991.-pp. 56-97

COMPLEX APPROACH TO THE STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS, INCLUDING HISTORICAL ANALYSIS

Omonova Maftuna Shermatovna

English teacher of Primary education faculty of the Chirchik Pedagogical Institute,
Tashkent region

Purpose: This thesis is dedicated to complex approach to the study of phraseological units, including historical analysis.

Key words: Approach, certain structure, historical life experience, urban component.

Phraseological units are variants of words as 1) only one of components of a phraseological unity has structural forms, e.g. *to play* (played, is playing, etc.) *the first fiddle* (but not played the first fiddles); *to turn* (turned, will turn, etc.) *a new leaf* (but not to turn newer leaf of new leaves) 2) the whole unity and not its components are parts of the sentence in syntactical analysis, e.g. *in the sentence. He took the bull by the horns* (*attacked a problem boldly*) - there are only two parts: he – the subject, and took the bull by the horns – the predicate.

In phraseological fusions the degree of motivation is very low, we cannot deduce the meaning of the whole from the meaning of its components, they are highly idiomatic and cannot be motivated word for word into other languages, e.g. *to pull one's leg* – (*deceive*); *at sixes and sevens* (*in confusion*); *a mare's nest* (*a discovery which turns out to be false or worthless*); *to show the white feather* (*to show cowardice*) *to ride the high horse* (*to put on airs*). **Phraseological fusions** are most idiomatic of all the kinds of phraseological units. Phraseological fusions are equivalents of words: fusions as well as unities form a syntactical whole in analysis.

Prof. A. I. Smirnitsky worked out structural classification of phraseological units, comparing them with words. He finds out one top units which he compares with derived words because derived words have only root morpheme. He points out two-top units which he compares with compound words because in compound words we usually have two root morphemes. Among one top units he points out three structural types:

- a) units of the type “to give up” (verb + postposition type) e.g. *to art up, to back up, to drop out, to nose out, to buy into, to sandwich in etc.*
- b) units of the type “to be tired” some of these units remained the Passive Voice in their structure but they have different prepositions with them, while in the Passive Voice we can have only prepositions “by” or “with”, e.g. *to be tired of, to be interested in to surprise at etc.* there are also units in this type which free word-groups of the type “to be young”, “to be akin to, to be aware of etc.”., the difference between them is that the adjective “young” can be used as an attribute and as a predicative in a sentence, while the nominal component in such units can act only as a predicative.
- c) prepositional –nominal phraseological units. These units are equivalents of unchanged able words: prepositions, conjunctions, adverbs, that is why they have no grammar center, their semantic, center is the nominal part, e.g. *on the doorstep (quite near), on the nose (exactly), in the course of, on the stroke of, in time, on the point of etc.* in the course of time such units can become words, e.g. tomorrow instead etc.

Among two-top units. A. I. Smirnitsky points out the following structural type:¹

- a) attributive – nominal such as: *month of Sundays, grey matter, a millstone round one’s neck and many others.* These type units are noun equivalents and can be partly or perfectly idiomatic. In partly idiomatic units (phrases) sometimes the first component is idiomatic, e.g. *high road*, and in others the second component is idiomatic. E.g. *first night*. In many cases both components are idiomatic. E.g. *red tape, bed of nail, shot in the arm* and many others.

¹ Smirnitskiy A.I. “Лексикология английского языка”. - М: Высшая школа, 1956.

- b) Verb-nominal phraseological units, e.g. *to read between the lines, to speak BBC, to sweep under the carpet etc.* The verb is the grammar center of such units, the semantic center in many cases is the nominal component. E.g. *to fall in love*. In some units the verb is both the grammar and the semantic center. e.g. *not to know the ropes*. These units can be perfectly idiomatic as well. E.g. *to burn one's boats, to vote with one's feet, to take the cleaners' etc.* very close to such units are word groups of the type *to have a glance, to have a smoke*. These units are not idiomatic and are treated in grammar as a special syntactical combination, a kind of aspect.
- c) Phraseological repetitions, such as *now or never, part and parcel, country and western etc.* Such units can be built on antonyms. E.g. *ups and downs, back and forth*, often they are formed by means of alliteration. E.g. *as busy as a bee*. Components in repetitions are joined by means of conjunctions. These units are equivalents of adverbs or adjectives and have no grammar center, they can also be partly or perfectly idiomatic. E.g. *cool as a cucumber (partly) bread and butter (perfectly)*.

Phraseological units the same as compound words can have more than two tops (stems in compound words) e.g. *to take a back seat, a peg to hang a thing on, lick, to be shadow of one's own self, at one's own sweet will*.

Phraseological units can be classified as parts of speech (syntactical classification). This classification was suggested by I. V. Arnold. Here we have the following groups:

- a) Noun phraseologisms denoting an object, a person, a living being. E.g. *bullet train, latchkey child, redbrick university, Green Berets*.
- b) Verb phraseologisms denoting an action, a state, a feeling. E.g. *to break the log-jam, to get on somebody's coattails, to be on the beam, to nose out, to make headlines*.
- c) Adjective phraseologisms denoting a quality e.g. *loose as a goose, dull as lead*.

- d) Adverb phraseological units, such as: with a bump, in the soup, like a dream, like a dog with two tails.
- e) Preposition phraseological units, such as e.g. in the course of, on the stroke of.
- f) Interjection phraseological units. E.g. “Catch me”, Well, I never! Etc.

In I.V. Arnold’s classification there are also sentence equivalents, proverbs, sayings and quotations, e.g. the sky is the limit, “What makes him tick ““I’m easy.” Proverbs are usually metaphorical e.g. “Too many cocks spoil the broth; while sayings are as a rule non-metaphorical. e.g. Where there is a will, there is a way”.

Set expressions, which function like nouns (noun phraseologism): N+N: *maiden name* the surname of a women before she was married brains trust a committee of experts or a number of reputedly well informed person chosen to answer questions of general interest without preparation.²

N’s + N: cat’s paw one who is used for the convenience of a clever and stronger person (the expression comes from a fable in which a monkey wanting to eat some chestnuts that were on a hot stove but not wishing to burn himself while getting them, seized a cat and holding its paw in his own used it to knock the chestnuts to the ground). Hobson’s choice a set expression used when there is no choice at all, when a person has to take what is offered or nothing (Homes Hobson a 17th century London stableman made every person hiring horses take the next in order).

THE LIST OF USED LITERATURES

1. Macmillan Dictionary. Macmillan/McGraw-Hill School; Revised edition, 1986.
2. The Oxford English Dictionary, 2nd Edition by [John Simpson](#) (Editor), [Edmund Weiner](#) (Editor). Clarendon Press – Oxford. 1989.
3. Gläser, Rosemarie. 1998. The Stylistic Potential of Phraselological Units in the Light of Genre Analysis In A.P. Cowie (ed.), *Phraseology*. Oxford: Clarendon Press.

ЁШЛАРНИ НОСТАНДАРТ ФИКИРЛАШГА ЎРГАТИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

Анарбекова Айжан Азизбек қизи

Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти

Таянч суз ва тушунчалар: ижодий қобилият, ривожлантириш, ностандарт масала, алгоритмик, эвристик, моделлаштириш, мулоҳаза юритиш.

Ключевые слова и понятия: творческая способность, развитие, нестандартная задача, алгоритмический, эвристический, моделирование, рассуждения.

Key words and concepts: creativity, development, non-standard task, algorithmic, intuitive, modeling, reasoning.

Замонавий илмий техникавий илм ва билимга, тушунчага эга ўқувчиларни тарбиялаш, сифатли таълимни таъминлаш, ёшларни хар жихатдан баркамол қилиб вояга етказиш-нинг илк сабоқларини бериш, болаларнинг дунёкарашини туғри ривожлантириш масаласи мактабгача таълим муассасалари хамда мактаблар зиммасига юклатилган. Мамлакатимизда ёш авлоднинг таълим-тарбиясига алохида эътибор хамда ғамхурлик билан ёндашилади. Шу максатда юртимизда замонавий таълим беришнинг стратегик йуналишлари пухта ишлаб чиқилган, ўқувчиларга шахсий режаларини бекаму-куст амалга ошириш, ўз қобилиятини, илмий-ижодий имкониятларини тула намоеън этиш учун барча шароитлар яратиб қуйилган. Ёшларимиз хақли равишда ватанимизнинг келажаги учун жавобгарликни зиммасига олишга кодир булган бугунги ва эртанги кунимизнинг хал этувчи кучига айланиб бораётгани барчамизга ғурур ва ифтихор бағишлайди.

Дунё микёсида ўқувчиларни ўқитиш сифатига нисбатан тенг шароитлар яратиш, таълим жараёнига инновацион педагогик технологияларни жорий этиш долзарб масала қилиб қуйилмоқда.

Хозирги кунда ўқувчиларни жамоавий ва яқка тартибда изланишга, ўқиб-ўрганишга, ижодий қобилиятини устиришга қаратиш, таълим соҳасида янгиликлар яратиш борасида тадқиқотчи-олимларимиз илмий изланишлар олиб бормоқдалар.

Бугунги кунда ўқувчиларга математикага оид ностандарт масалаларни ечиш усулларини ургатувчи, уларга бундай масалалар туғрисида аниқ маълумотлар берувчи, ўқувчиларнинг ижодий қобилиятини устирувчи тавсия ва таклифлар, ишланмалар, дарсликлар, кулланмалар, илмий рисоалар нашр этиш, бўлажак ўқитувчиларнинг бу соҳадаги билимларини такомиллаштириш, ўқувчиларнинг ижодий қобилиятини устириш учун ўқув ва синфдан ташқари ишларни ташкил этиш фаолиятига оид методик курсатмалар, кулланмалар яратиш методист олимларимиз олдида қуйилган, ҳал қилиниши кечиктириб бўлмайдиган масалалардан биридир.

Булажак ўқитувчиларнинг ўқувчиларни ностандарт масалалар орқали ижодий қобилиятларини ривожлантиришга методик тайёргарлигини такомиллаштиришдан иборат.

Изланиш объекти. Бўлажак ўқитувчиларнинг ўқувчиларни ностандарт масалалар орқали ижодий қобилиятларини ривожлантиришга методик тайёргарлигини такомиллаштириш жараёни.

Кулланиладиган услуб. Ўзбекистон Республикаси давлат таълим стандарти, мавзуга оид педагогик, психологик ва методик адабиётларни ўрганишга асосланган назарий ва тарихий таҳлиллар, тажрибалар, кўзатишлар, суҳбатлар. Ўқув кулланмалар ва дарсликларни дидактик таҳлил қилиш, ўрганиш, куллаш ҳамда олий таълим муассасаларида ўтказилган тажриба-синов ишларининг натижалари статистик таҳлил қилинади.

Булажак ўқитувчиларнинг ўқувчиларни ностандарт масалалар оркали ижодий қобилиятларини ривожлантиришга методик тайёргарлигини такомиллаштириш жараёнида педагогик кўзатув, математик-статистик методлардан фойдаланилган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Koonin A.V. English Idioms. 3d ed. M: Vysshaya shkola 1967.
2. Longman Dictionary of English Idioms. - L: London, 1996
3. Formation. Wisbaden, 2006
4. Morozova N. N. "English lexicology". - M: Vysshaya shkola, 1993
5. Muminov.O. Lexocology of the English Language. -Tashkent: Mehridaryo, 2008.- pp.108-112
6. Rixon.S. How to use games in language teaching? - London: Macmillan Publishers, 1991.-pp. 56-97

ЁШЛАРНИ НОСТАНДАРТ ФИКИРЛАШДА ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТНИНГ АҲАМИЯТИ

Анарбекова Айжан Азизбек қизи

Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти

Таянч суз ва тушунчалар: ижодий қобилият, ривожлантириш, ностандарт масала.

Ключевые слова и понятия: творческая способность, развитие, нестандартная задача.

Key words and concepts: creativity, development, non-standard task.

Ижодий қобилиятни одатда, аввалдан маълум бўлмаган кандайдир янгилик яратиш перцептив образлар, билимлар, мақсад ва фикрлар ҳаракат омиллари, билиш мотивацияси деб таърифлашади. Нуқтай назарлар ва фикрларнинг турличалигидан келиб чиқиб, биз, "ижодий қобилият" тушунчасини аниқлаштиришни, ижодий қобилиятни ривожлантириш тушунчасини ўқитиш муаммоларига бағишланган тадқиқотлар асосида кўриб чиқамиз.

Психология ижодий қобилиятни субъектнинг фаол фаолияти сифатида қарайди, ундовчи мотивларини, мақсадини, хусусийлик аҳамиятига эга бўлишлигини, мантикий тафаккурнинг узига хос хусусиятларини аниқлайди, фикрлаш операцияларини улар асосида ётувчи мантикий принциплар асосида субъект тушунчаси нуқтай назаридан тадқиқ қилади.

Бизнингча, ижодий қобилият моҳияти мантик қонуниятларидан фойдаланиб, тушунча, мулоҳаза ва хулосалар билан амаллар бажариш- дан иборат бўлган тафаккур тури сифатида таърифланади. Ижоднинг шарти ҳаётий тажриба, зарурий қуниқма ва малакалар йигиндисининг мавжудлигидир.

Шундай қилиб, ўқувчиларнинг ижодий қобилияти, бу кечадиган жараён орқали янги билим ва янги ечим усулларини долзарблашти- радиган янги ёки масаладаги узига хос номаълум вазиятларни аниқлаш фаолиятидир.

Ижодийлик усулларини куллашда ўқувчилар ижодий қобилиятнинг битта асосий компонентидан фойдаланиш ўқуви муҳим ақамиятга эга.

Ижодий қобилиятнинг ривожланишига факатгина ижодий қобилиятни узлаштириш билан эришиб булмайди. Бунинг учун ўқув фани мазмунига мос муваффақиятли ижодий изла- ниш ва ундан самарали фойдаланиш, ўқув ҳамда куникмаларини киритиш лозим булади. Ижодий қобилият ижодий фаолият туфайли ривожланади ва шу фаолият орқали намоён булади. Яъни, фаолиятли ёндашув, шахсий фаолиятни бутунича ишга татбиқ этишда муқим саналади.

Хар-хил тоифадаги ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини устириш, ижодий қобилиятини турри ривожлантиришга, ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ривожлантиришга таъсир этадиган усуллар борасида кам турлича нуктаи назарлар мавжуд.

³Воробьев А.И. Организация и правовые основы подразделений вневедомственной охраны при органах внутренних дел Российской Федерации по обеспечению охраны имущества физических лиц: Автореф.... канд.юрид.наук., 2011.С.36

учинчидан фуқаровий қонунчилик йўналишида –қўриқлаш бўлинмаларининг мақоми жисмоний ва юридик шахсларга қўриқлаш хизматларини кўрсатиш бўйича қўриқлаш бозорида уларнинг тенг муносабатларини таъминламайди;

тўртинчидан, монополияга қарши қонунчилик йўналишида - қўриқлаш бўлинмаларининг ҳуқуқни муҳофаза қилувчи мақомининг мавжудлиги – қўриқлаш жамоатчилик муносабатлари субъектлари, пуллик қўриқлаш хизмати кўрсатувчи нодавлат ташкилотларга, қўриқлаш воситалари, қўриқлаш товар(хизмат) айланмасига ҳам таъсир кўрсатишга имкон беради, бу эса ҳуқуқий муносабат иштирокчиларнинг тенглигини бузилишига олиб келади” деб ҳисоблайди.⁴

Таклиф ва тавфсиялар.

Албатта иккала олим ҳам давлат органлари тизимида бўлган қўриқлаш хизмати бўлинмалар идоравий, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар орқали бошқарилиши, ушбу соҳага бир томондан “устунлик” иккинчи томондан эса, ривожланишига “тўсқинлик” қилишини ҳамда такомиллаштириш борасида *муқобил шартларини* ишлаб чиқишни таъкидлашган.

Биз олимлар фикрини мақуллаган ҳолда “қўриқлаш хизмати” бу конституциявий, маъмурий-фуқаровий-ҳуқуқий муносабатларни ўз ичига олган ҳам субъект, ҳам объекти сифатида – “ҳуқуқни муҳофаза қилишнинг махсус тури” деб ҳисоблаймиз. Зеро, Миллий гвардия қўриқлаш хизмати фаолияти давомида *ҳуқуқуқий муносабат иштирокчи(объекти ва субъекти лари* бўлган шахс, жамият, давлат ва фуқаролар билан жамоатчилик муносабатларига киришишини кўришимиз мумкин.

Демак, *қўриқлаш хизмати фаолияти* - ўзида юридик, ташкилий, хавфсизлик, техник воситалар ва усулларнинг муҳофазаси қилинадиган мулкга

⁴ Лишанков Н.Е. Организационно-правовые основы охраны объектов под разделением вневедомственной охраны при органах внутренних дел Российской Федерации:афтореф....канд.юрид.наук., 2000г.С.33

қарши ноқонуний тажовузуларнинг олдини олишга қаратилган махсус чоратadbирлар мажмуидан иборат фаолият тури.

Қўриқлаш хизмати фаолиятига доир бўлган норматив-ҳужжатларни ўрганишда чоғида айрим муаммолар аниқланди. Хусусан, бир норматив-ҳуқуқий ҳужжат талаблари иккинчи бир қўриқлаш субъектининг бевосита вазифасини ҳисобга олмаган ҳолда ишлаб чиқилган ёки умуман унинг бевосита вазифаси мавжуд эмас. Масалан, “қўриқлаш-техник талаблари ва қоидалари”⁵ – “техник-муҳандислик”, “қўриқлаш-техник қоидалар” сифатида уйғунлашиб кетган ваҳоланки, улар бир-бирдан табиий келиб чиқиши билан анча фарқ қилади. Шу боис, қўриқлаш хизматини фаолиятини тартибга солувчи норматив-ҳужжатларда қўриқлаш хизматини ташкил этувчи элементлари тартиб қоидаларни аниқ белгилаш мақсадга мувофиқ.

Жумладан,

“қўриқлаш-техник талаб ва қоидалари” — бу, қўриқлаш объектини ҳимоя қилиш ва сақлаш манбаларига қўйиладиган норматив-ҳужжатларда белгиланган техник давлат стандартлари ҳамда объектнинг хусусиятидан келиб чиққан ҳолда шартнома асосида келишилган ёки тан олинган, бажарилиши мажбурий бўлган вазифалар йиғиндиси.

“қўриқлаш техник-муҳандислик қоидалари” — бу қурилиш-монтаж лойҳалаш даврида бинони *криминоген баҳолаш* орқали уни объектнинг ўзига хусусияти ва келгусидаги вазифасидан келиб чиқувчи қурилиш элементларнинг тўғри жойлашув тан олинган, рухсат ва тақиқ талабларининг йиғиндиси.

“криминоген баҳолаш”– жиноятни ижтимоий-ҳуқуқий келиб чиқиш сабаб ва шароитларни олдиндан тахмин қилган ҳолда уни прогнозлаш ёки таҳлил қилиш ҳисобланади. Замонавий қўриқлаш хизмати янги босқичга олиб чиқиш учун *қўриқлаш хизмати фаолияти ташкил этишининг ўзига хос жиҳат бўлган* - объект (ёки қўриқлаш объектининг)нинг қурилиши ва уни фойдаланишга бериш

⁵Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардия қўмондонинг 152-153-сонли буйруғи.

талабларини бажармаслик оқибатида келиб чиқиши мумкин бўлган жиноят ва ҳуқуқбузарликларни олдини олишга йўналтирилган ва қўриқлаш ҳолати бўйича огоҳлантирувчи мажбурий қоидалар тўпламини шакллантириш лозим.

Шунингдек, давлатнинг жамиятдаги ижтимоий-ҳуқуқий муносабатларда айниқса, фуқаролар ва давлат мулкни ҳимоя қилиш уни ҳимоя қилиш(қўриқлаш)ни тартибга солиш соҳасида “ягона қўриқлаш функцияси”ни амалга ошириш зарурати бугунги кунда келиб чиқиши натижасида *қўриқлаш хизмати фаолиятининг* муҳимлиги, унинг ҳуқуқни муҳофаза қилиш тизимида зарурий бир маъмурий-ҳуқуқий усул деб ҳисоблаймиз ва маъмурий ҳуқуқий жиҳатларини такомиллаштириш мақсадга мувофиқ. Ушбу фикрларимизни илмий-мантқиқий тўғрилигини хорижий олим, О.И. Маликова тадқиқот хулосасида, П.С. Мулукаев ва Т.И. Желудкова. томонидан тузилган қўриқлаш хизматининг конституциявий асослари доир хулосаси ҳамда давлат ҳаётида мулкнинг улкан аҳамияти, аввалам бор, мулкни ҳимоя қилиш вазифасини ўтаб турганлиги, қонун устуворлиги ва фуқароларнинг эркинликлари ҳимоя қилиш каби асосий функцияларнинг қўриқлаш хизматида мавжудлиги ва олдиндан белгилаб қўйилиши тўғрилигини маъқуллаган.⁶ Биз ҳам олимларнинг фикрини маъқуллаган ҳолда, Миллий гвардия органларининг фаолиятининг *йўналишига “қўриқлаш органлари фаолиятини назорат қилиш” функциясини* юлатиш ҳамда қўриқлаш хизмати фаолияти қуйидаги мезонларга мувофиқ ташкиллаштириш ҳамда ушбу мезонларни “ишончли хизмат” тури сифатида ишлаб чиқиш таклиф этилади:

1) қўриқлаш фаолиятини *услугисизлиги таъминлаш* йўналиши-қўриқлаш хизмат кўрсатувчи функцияларни бажарувчи юридик шахс ва жисмоний шахснинг ҳуқуқий ҳолати аниқ кўрсатиб ўтилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилиш; қўриқлаш хизматининг бевосита вазифасинининг

⁶ Маликова, Ольга Ивановна Административно-правовое регулирование охраны имущества в России: автореф... канд.юрид.наук.,2009 ., //Мулукаев Р.С., Желудкова Т.И. Развитие деятельности органов внутренних дел по охране социалистической собственности: Лекция. — М., 1979.-42с.//

мақсади, предмети, шакли, усули ва воситалари орқали давлатнинг *ҳимоя функцияси*;

2) кўриқлаш фаолиятини юритувчи субъектларнинг ўрганилмаган вазифалари ўртасидаги боғлиқ ҳуқуқий асосларини белгилаш ва *маъмурий жавобгарлик усуллари* кенгайтириш йўналиши – мулк дахлсизлигини кафолатлаш, мол-мулкка тажовуз қилиш билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар содир этилишини олдини олиш, ҳарбийлаштирилган соқчилик хизмати биносига ёки ички ишлар органларига ушлаб келтирилиши ҳуқуқи идоравий норматив-ҳужжатларда акс эттириш мақсадга мувофиқ.⁷ Асосан Миллий гвардия кўриқлаш хизмат фаолияти йўналишларининг ўзига хослиги: ижтимоий-иқтисодий йўналишида –хизмат кўрсатувчи юридик шахс сифатида; *иккинчи* томондан эса, давлат кўриқлаш фаолияти субъекти йўналишида – давлат органи сифатида Миллий гвардия органларининг таркибий бўлинмаси.⁸

1) Ижтимоий-иқтисодий йўналишида объектларни ноқонуний ҳужумлардан ҳимоя қилишга қаратилган шартнома асосида кўриқлаш ва кўриқлаш хизматини кўрсатиш функцияси кўриқлаш хизматига хўжалик фаолият юритувчи мақомига эга, хизмат кўрсатувчи “юридик шахс” бўлган орган сифатида фаолиятига баҳо берилмоқда.

2) *давлат кўриқлаш фаолияти субъекти* кўриқлаш функциясини ҳуқуқий мазмуни учун асос бўлиб хизмат қиладиган махсус принциплар 1) ҳимоя қилиш; 2) кўриқлаш хизматини кўрсатиш (давлат номидан тақдим этиш) асослари; 4) давлат томондан мулк дахлсизлиги кафолатланганлик принципларнинг мавжудлигида акс этади.

⁷ Ўзбекистон Республикаси Мжтк. 284-модданинг тўртинчи қисми Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 29 октябрдаги ЎРҚ-575-сонли Қонуни таҳририда — (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.10.2019 й., 03/19/575/3972-сон)// Ўзбекистон Республикаси “Миллий гвардияси тўғрисида”ги қонуннинг 3-моддаси,7-б., 2020й. <https://lex.uz/docs/5128310>.,(Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.11.2020 й., 03/20/647/1569-сон)

⁸Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 18 ноябрдаги “Миллий гвардия тўғрисида”ги ЎРҚ-647-сон.,12-моддаси.,(Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.11.2020 й., 03/20/647/1569-сон)

Хулосалар. Шу сабабли, Миллий гвардия кўриқлаш хизмати бўлинмалари давлат органи сифатида, *муайян ҳуқуқий мақомга эга бўлиши билан боғлиқ маъмурий-ҳуқуқий жиҳатларни* норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгилаш мақсадга мувофиқ. Жумладан, “атроф табиий муҳитни муҳофаза қилишнинг умумий ва асосий қондилари” бўлгани каби “қўриқлаш тартибининг умумий ва асосий қондалари” давлат қонун ҳужжатларида белгилаш лозим. Аввало кўриқлаш объектларини ўзига хос жиҳатлари ундан сўнг уларга нисбатан ўрнатилиши керак бўлган кўриқлаш хизматини кўрсатиш усуллари ҳамда тактик-ташкилий чора-тадбирлари белгилаш лозим. Шунда, *қўриқлаш объекти* – бу, мулкни ҳимоя қилиш ва мулкни сақлаш манбаларининг самарали хусусиятларининг ўзига хос мезонлари асосида ҳимоя тадбирлари ва усуллари орқали амалга оширилган *ижтимоий-ҳуқуқий муносабатларнинг субъекти ёки объекти*.

Қўриқлаш объектларини қўриқлаш билан боғлиқ бўлган ҳимоя тадбирлари йиғиндисига қуйидагиларни киритиш мумкин: 1) махсус воситалар; 2) транспорт воситалари; 3) муҳандислик-техника ҳимоя воситалари; 4) транспортни тўхтатиш учун механизмлар; 5) хизмат хайвонлари билан ёки бошқа замонавий янги кўриқлаш техник воситалар билан ҳам амалга оширилиши ягона ҳужжатда акс мақсадга мувофиқ бўлади ҳамда амалиётда жуда катта қулайликлар яратади.

Иккинчидан, ички хизматни ташкил қилишда кўриқлаш соҳасида профессионал кадрларни тайёрлашда, асосан кўриқланаётган мулк-моддий муносабатлар таркибига эга бўлган ҳуқуқбузарликларни олдини олиш билан боғлиқ бўлган *тадбиркорликнинг хўжалик фаолиятини ҳуқуқий тартибга солишнинг ягона тартибда классификациялаш қилишни;* кўриқлаш объектининг хусусияти келиб чиқиб *ҳуқуқий режимини* белгилаш билан боғлиқ ўқув-услубий назарий материаллар базасини шакллантириш ҳамда *ҳимоя қилиш бўйича ягона концепция* ишлаб чиқиш бўйича кўриқлаш соҳасида ягона қонунчиликни жорий этиш лозим.

Ушбу қонун ҳужжатлари Миллий гвардия кўриқлаш хизмати бўлинмаларининг ўзига хос томонларини ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқилган ва кўриқлашга топширилган объектларда “кўриқлаш давлат орган”ни номидан кўриқлаш фаолияти тартиблари бузиш билан боғлиқ бўлган маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни кўриб чиқишда ва маъмурий жазо қўллаш учун асос бўлади. Шунингдек, бошқа мулкӣ муносабатлар билан боғлиқ бўлган қонуний воситалар ва чоралар учун ҳам - республикада кўриқлаш хизматининг маъмурий-ҳуқуқӣ жиҳатларини такомиллаштириш лозим деб ҳисоблаймиз.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 53-54-м., Т- 2020 й <https://lex.uz/docs/35869> «Халқ сўзи» газетаси, 1992 йил 15 декабрь, 243 (494)-сон; Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994 й., 1-сон, 5-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 3-4-сон, 27-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2011 й., 12/1-сон, 343-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 15-сон, 152-модда; 2008 й., 52-сон, 510-модда; 2011 й., 16-сон, 159-модда; 2014 й., 16-сон, 176-модда; 2017 й., 14-сон, 213-модда, 22-сон, 406-модда, 35-сон, 914-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 16.10.2018 й., 03/18/498/2051-сон; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2019 й., 2-сон, 47-модда, *Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.03.2019 й., 03/19/527/2706-сон, 05.09.2019 й., 03/19/563/3685-сон; 09.02.2021 й., 03/21/670/0089-сон, 09.02.2021 й., 03/21/671/0093-сон)*
2. Ўзбекистон Республикаси Мжтк. 284-модданинг тўртинчи қисми Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 29 октябрдаги ЎРҚ-575-сонли [Қонуни](#) таҳририда —

(Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.10.2019 й., 03/19/575/3972-сон)//

3. Ўзбекистон Республикаси “Миллий гвардияси тўғрисида”ги қонуннинг 3-моддаси, 7-б., 2020й. <https://lex.uz/docs/5128310>., *(Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.11.2020 й., 03/20/647/1569-сон)*

4. А.И. Воробьев Организация и правовые основы подразделений вневедомственной охраны при органах внутренних дел Российской Федерации по обеспечению охраны имущества физических лиц: Автореф.... канд.юрид.наук., 2011.С.36

5. Н.Е Лишанков Организационно-правовые основы охраны объектов под разделениями вневедомственной охраны при органах внутренних дел Российской Федерации: автореф....канд.юрид.наук., 2000г.С.33

6. Маликова, Ольга Ивановна Административно-правовое регулирование охраны имущества в России: автореф... канд.юрид.наук., 2009г.,С33

7. Р.С. Мулукаев, Т.И. Желудкова Развитие деятельности органов внутренних дел по охране социалистической собственности: Лекция. — М., 1979.-42с.

ҒАЗЗОЛИЙ ВА КАНТ ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Бозарова Феруза Гайбуллаевна

Фалсафа доктори (PhD), Ал-Бухорий Университети Ижтимоий кафедраси доц.в.б

Аннотация: Мазкур мақолада мусулмон шарқи ва ғарб файласуфлари ахлоқий эстетик қарашлари илмий-фалсафий жиҳатдан қиёсий таҳлил қилинди. Маълумки, шарқ эстетикаси ўзига хос жиҳати, қадрияти сифатида интеллектуал салоҳият ва ахлоқий гўзаллик ташкил қилса, айрим Ғарб назарийчилар томонидан у (гўзал ахлоқни) эскилик сарқити, деб қаралди ва ўйлаб топилган енгил маданиятлари доирасида “абсурд эстетикаси” жарлигига етиб келди. Шу нуқтаи назардан, мақолада Ғарб бошқа буюк файласуфи Иммануил Кантнинг моҳиятан ўзгача ва бой маънавий субстратига эга бўлган таълимоти тадқиқ қилинди ва Ислом дини асосини ташкил қилувчи гўзал ахлоқ концепцияси билан қиёсий ўрганилди.

Калит сўзлар: Ғарб тамаддуни, Шарқ ренессанси, трансцендентал, априори, апостериори, гўзаллик ва улуғворлик, уйғунлик, эстетик завқ, математик улуғворлик, динамик улуғворлик, эстетик масофа.

Ислом эстетикасида гўзалликка ва уйғунликка эҳтиёж инсон табиатининг асосий қонуниятларидан бири бўлиб, унинг келиб чиқиши илоҳий асосга бориб тақалади. Шарқ фалсафаси вакиллари гўзал ва улуғвор инсон тимсолида билимли, доно, бахтли, изланувчан, яратувчан, ўзининг ҳар бир хатти-ҳаракатини эзгуликка буйсундирувчи комил инсонни кўрадилар. Шу нуқтаи назардан, аждодларимиз эстетик тарбияга алоҳида аҳамият берганлар.

Хусусан, шу йўналишда изланишлар олиб борган Шарқ фалсафаси тарихи дарғаларидан бири Абу Ҳомид Мухаммад ал Ғаззолий ўз ҳаёт йўли ва ижодида турли тўлқинларга учрашига қарамай шахсий маънавий камолоти, аини

пайтда ҳалифаликнинг ижтимоий ҳаёт тарзи, маданияти таъсирини акс эттирувчи ўз диний ва дунёвий илмини ислоҳ қилиб борган ва уларнинг ривожига ўзининг улкан ҳиссасини қўшган. Мутафаккирнинг фикрича, жамиятни ислоҳ этишнинг универсал ечими – ахлоқий камолотдир, шу нуқтаи назардан, ўз ижодида унга алоҳида эътибор қаратган.

Таъкидлаш лозимки, Шарқ халқлари “қадимдан гўзаллик ва эзгулик бир бутунлиги қонуни бузилган жойда, вайроналик, ёвузлик ва хунуклик дунёси бошланишига”¹ ишонган. Илм-фан ва техника тараққиётини фаровон ҳаётнинг гарови деб билган, айрим ғарбликлар айна ҳақиқатни энди англаб етмоқда. Лондон Миллий кутубхонаси Шарқ бўлими мудири, таниқли инглиз шарқшуноси Абу Бакр: “Шубҳасиз Ғарб ҳазора (цивилизация)си инсонни шараф ва чиройдан маҳрум этади!” деган эди. Унга эътироз билдиришади: “Шарафдан маҳрум этишига-ку, рози бўламиз, аммо чиройни йўқ қилиши қандай бўлди? Инсоният уни гўзалликка эътибор қилган энг ажойиб ҳазора, деб билишади. Табиат гўзаллиги, уйлар, шаҳарлар гўзаллиги, аёл чиройи!” Олим эса шундай жавоб беради: “Лекин у руҳ чиройига, фитрий завқ ва гўзал хулққа барҳам беради”².

Дарҳақиқат, Ғарб санъатшунослари охириги йилларда соф гўзаллик ва эстетик тамойиллардан чекиниб, юксак ахлоқни писанд қилмай – эскилик сарқити деб, ўзлари ўйлаб чиқарган юзаки оммавий маданиятлари доирасида борган сари дидсизлик томон тубанлашиб, ниҳоят “абсурд эстетикаси” жарлигига қулаганликлари мисолида кўриш мумкин. Агрессия, вайронкорлик, мавҳумлик тамойилларга асосланувчи ва соғлом ақлга зид бўлган маданият натижасида ижод аҳлининг эстетик дунёқараши, ижодий қобилиятлари кўкларга совуриб келинди. Охир оқибатда уларнинг бундай “санъат” дегенерациясига таслим бўлишдан, “бадийликнинг нозик жилвалари”ни маънисиз расмлардан излашдан ўзга чораси қолмади. Бироқ, шундай ҳам улар

¹ Г.Т.Маҳмудова, С.М.Арифханова. Зардуштийлик фалсафаси. Т.: Ношир. 2014.

² Аҳмад Муҳаммад Мубашшир Аҳмад. Ислоҳ Ҳазораси. Т.: Мовороуннахр. 2004.

уни “авангард санъат” деб номлаб, оммага сир бой бергиси келмади. Амалда эса бу ибтидоий одамларнинг қоя тош санъатига қайтиш ҳодисасидан ўзга нарса эмас эди. Ҳақиқий эстетик қиймати эса камида юқори палеолит (35–10 минг йиллик)нинг ориньяк-солютер даврига тўғри келади.

Аммо Ғарб оламининг классик даврига қайтсак Олмон мумтоз даври эстетикаси асосчиси ҳисобланувчи Иммануил Кант (Kant / 1724–1804) ўз ижодий изланишларининг маҳсули сифатида “Гўзаллик ва улуғворлик туйғулари устидан кузатишлар” (1764), “Соф ақлнинг танқиди” (1781), “Амалий ақлнинг танқиди” (1788), “Мулоҳаза қобилятининг танқиди” (1796) каби йирик асарларни ёзиб қолдирганки, уларда гўзаллик ва улуғворл инсоннинг ахлоқий камолоти билан чамбарчас боғлиқ эканлиги уқтирилади.

Бундан ташқари, Иммануил Кант Готфрид Гердер билан бўлган баҳсида Ибн Рушднинг “...ҳар биримизда индивидуал руҳдан ташқари, умумий руҳ ҳам мавжуд бўлади”³ деган ғоясини юксак баҳолаган. Бизнингча, Кантнинг трансцендентал таълимоти асосида ибн Рушднинг айнан мана шу ғояси ётади. Файласуфнинг трансценденталлик: “...индивидуал хусусият, у инсонга эмас бутун инсониятга нисбатан индивидуал бўлади” деган таърифи фикримизга яққол далилдир. Бироқ, Кант Шарқни улуғлаш ва кўкларга кўтариш йўлидан бормайди. Аксинча, у “Фалсафа тарихи ҳақидаги қисқача очерк”ида “форслар ва арабларда ақлни муайян маънода спекулятив қўллашга ҳаракат қилинганлиги кўринсада унда ва Зороастрнинг “Зендавеста”сида фалсафанинг изини ҳам топиб бўлмайди” дея салбий баҳо беради. Аммо энг қизиғи шундаки, биз Иммануил Кант ижодида айниқса, унинг эстетик қарашларида мусулмон Шарқи алломаларининг фикрларига муштаракликни кузатамиз.

Шуни таъкидлаш лозимки, Кант ғарб олимлари эътирофига кўра, Коперник ўзининг гелиоцентрик назарияси билан олиб қўйган антропоцентризмни илм-фан ва умумбашарга қайтариб берди. Яъни, Кант

³ Иммануил Кант. Соч.в 8т. Т.8.С. 60-61.

сайёралар Ер атрофида айланиши муҳим эмас аслида барча нарса ва ходисалар Инсон атрофида воқе бўлади, улар унинг ақл тафаккури ва идроки маҳсули ҳисобланади. Сайёралар ҳам ҳатто Ер ҳам инсон атрофида ва инсон учун айланади, деган фалсафий ғояни илгари суради ва Ғарбда машхур файласуфга айланади.

Айни вақтда бу Шарқ учун янгилик эмас эди. Мусулмон мутафаккирлари таълимотларида Инсон зоти ниҳоятда улуғланиб, биргина тасаввуф мисолида у ўзининг ноёб ақлу-шуурий потенциалини англаб етиши ва комилликка интилиши имкониятларига эга эди. Бошқача қилиб айтганда, Кантнинг ўзи “Коперникона тўнтариш” деб номлаган инқилоби Ислом метафизикаси постулати, яъни “олам иллюзиялардан иборат”лигини, унинг ўткинчи ва ўзгарувчанлигини асослаш орқали амалга оширилган.

Адабиётлар:

1. А.Шер. Эстетика.Т., 2008й.
2. Форобий. Абу Наср. Фозил одамлар шахри. Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти., 1993.
3. Г.Т.Маҳмудова, С.М.Арифханова. Зардуштийлик фалсафаси. Т.: Ношир. 2014.
4. Аҳмад Муҳаммад Мубашшир Аҳмад. Ислом Ҳазораси. Т.: Мовороуннахр. 2004.
5. И.Кант. Сочинения в 8 т. М.:Чоро.1998.
6. Е.А. Фролова .Средние века и современность.Учебное пособие.М.:2006.
7. Кант И. Критика чистого разума. — Минск, 1998.
8. Рерих Е. У порога Нового Мира. — М., 2000.
9. И.Пригожин “От существующего к возникающему”. М.1985.
10. М.Н.Афасижев. Эстетика Канта. М.,1975 й.

COMMON MISTAKES IN LEARNING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE

Bahriddinova Nilufar Nasriddin qizi

Navoi State Pedagogical Institute the faculty of foreign languages a third-year student

Annotation: This given article is mistakes made by the language learners and why they are not beneficial enough to use.

Keywords: results, a sweet lie, intensive studies, desired success, too much homework, memorizing.

Learning English is not as difficult and impossible task as it might seem at first glance. In order to achieve the desired success, it is necessary to properly organize the workflow and try to avoid common mistakes. In this article, we will look at the reasons why even the most diligent people do not achieve good results.

Insufficient consolidation of the studied material

When learning any language, you should be guided by the rule "less, but better". If you believe that a phrase that you learned yesterday you will be able to remember in a month, most likely this is a delusion. Our brain simply throws out unused and unclaimed information. It will be great if you take the time to review what you have learned several times at regular intervals. For example, the first repetition every other day, the next one after 3-4 days, and another one a week later. This technique will allow you to consolidate important knowledge in long-term memory and easily "get" it from there if necessary.

Premature speaking

Many lovers of especially fast methods of learning foreign languages argue that you need to start speaking English from the very first lessons. Now imagine: a child who

has just begun to get acquainted with the speech of others is immediately forced to talk. It is unlikely that something sensible will come of this. Without a certain baggage of knowledge, you will get nothing but frustration. That is why competent tutors focus the student's attention on listening to audio recordings prepared by native speakers.

Disorganization

Missing classes, the lack of a specific teaching methodology, constant changes of tutors - at such a pace you will definitely not be able to quickly and efficiently learn English. First, you need to properly plan your own time. If you decide to study on your own, then try to make sure that the lessons are held at least 3-4 times a week. Better - every day. Otherwise, tangible progress will be difficult to achieve. Second, write out a timetable with precise start and end times. Set short term goals that you are going to achieve in language learning. Stick to a set plan and don't skip classes.

Lack of concentration on pronunciation

Everyone has heard that the pronunciation of English and Uzbek is significantly different. You may know perfectly grammar, have a good vocabulary and even be able to apply the knowledge gained in practice, but ... speak with an eerie accent. There can be a lot of reasons for this disappointing phenomenon: choosing an incompetent tutor, not spending enough time to practice pronunciation, ignoring audio courses, lack of live communication in English ... The main problem is that over time it becomes more difficult to eradicate pronunciation errors.

Reluctance to read in English

Yes, reading foreign newspapers, magazines and books is quite a difficult task. But there is no need for you to understand literally every word you write. It is important to understand the general meaning of the text and learn to determine the meaning of lexical units in context. Regular reading will help you not only expand your own vocabulary, but also learn how to build your own speech correctly. Without noticing it, you will learn more than a dozen rules of English grammar. Don't give up on a cheap (if not free) practice option.

References:

1. “Learning another language through actions” by James J. Asher
2. “The practice of English language teaching” by Jeremy Harmer
3. [www. ttmadrid.com](http://www.ttmadrid.com)
4. [www. Brige.edu](http://www.Brige.edu).
5. www.teflacademy.com

ОКСЮМОРОН: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА)

Аюпова Гулойим Бахтиёржон кизи

Учитель кафедры грамматики английского языка Андижанского
государственного университета

Аннотация: Оксюморон является стилистическим приёмом, который рассматривается наряду с другими стилистическими приёмами в учебниках и также в исследовательских работах писателей. Эта стилистическая фигура речи не считается пристально изученной, как, например эпитет, метафора и т.д. Термин «оксюморон» формулируется по-разному в источниках и используется для того что бы придать индивидуальный эмоциональный окрас словам.

Ключевые слова: оксюморон, стилистическая фигура, эпитет, антонимия.

В большинство случаев оксюморон упоминается как стилистическая фигура речи, которое состоит из двух противоположных по смыслу слов. Например, *awfully nice*, *perfectly hideous*, *sweet sorrow*, *nice rascal*, *low skyscraper*. Оксюморон не редко встречается в художественной литературе и популярен среди писателей. Например: *His honour rooted in dishonour stood, And faith unfaithful kept him falsely true.*

— Alfred, Lord Tennyson, "Lancelot and Elaine"[7].

Обычно эти словосочетания состоят из прилагательного и существительного или наречия и прилагательного. Противоположность компонентов словосочетания выражает антонимическое понятие. Благодаря этой антонимичности и происходит создание этого явления, но с другой стороны, также он может выступать как нарушение привычной сочетаемости слов. Но в этом и является его уникальность и оригинальность, два слова противоположные

по семантике слов, не искажая смысл, придают выразительность предложению или, же тексту[1].

Разные источники дают разные понятия термину «оксюморон». В словаре лингвистических терминов О.С. Ахмановой «оксюморон» (греч. охутогон-остроумно-глупое) - фигура речи, состоящая в соединении двух антонимических понятий (двух слов, противоречащих друг другу по смыслу). Например: «сладкая боль» [2].

Согласно словарю-справочнику лингвистических терминов Д.Э. Розенталя и М.А. Теленковой: «Оксюморон - стилистическая фигура, состоящая в соединении двух понятий, противоречащих друг другу, логически исключаящих друг друга. Например: «звонкая тишина», «красноречивое молчание» [5].

Это явление было также описано как художественный троп в словаре литературоведческих терминов Л.И.Тимофеева и С.В. Тураева. По их мнению, оксюморон- «сочетание противоположных по смыслу определений, понятий, в результате которого возникает новое смысловое качество[6].

Также, в некоторых источниках оксюморон сравнивается с эпитетом и упоминается как вид эпитета. К примеру, по словам И.Б. Голубя оксюморон является сочетанием двух контрастных эпитетов, которые «образуют с определяемыми сочетание противоположных по смыслу слов». Например, живой труп, радостная печаль» [4]. По словам Гальперина, эпитет является выразительной формой, описывающая признак и качество какого-нибудь определённого явления в виде атрибутивных слов или словосочетаний с точки зрения индивидуального восприятия этого явления[3].

Действительно уместно сказать, что природа оксюморона близка к эпитету, так как и тот и другой стилистический приём выражает субъективное отношение писателя к описываемому придавая эмоциональный характер. Однако, эпитет, как правило, состоит из одного слово, в то время как оксюморон

всегда выступает словосочетанием антонимических слов. Последнее, также, не только характеризует и индивидуализирует какой-либо феномен, но и придаёт эмоциональный окрас объективного характера путём использования двух противоположностей в одном словосочетании[1].

В использовании этого стилистического явления, первый компонент теряет своё предметно-логическое значение, подавляясь эмоциональным значением в той или иной степени. К примеру, *sweet sorrow*, *low skyscraper*, *beautifully ugly*. Рассматривая примеры ясно, что первое слово в словосочетании не имеет предметно-логического значения, а является лишь восприятием автора описываемого явления. Нужно ещё раз подчеркнуть, что предметно-логическое значение не всегда затухает полностью. Если бы такой феномен встречался всегда, то у нас много было бы слов, которые полностью утратили предметно-логическое значение, превратившись в слова с эмоциональным значением [3]. Например, *awfully wonderful*, *terribly pleased to hear it*. Стоит отметить, что оксюморон по природе не воспроизводится, он заново возрождается.

В оксюмороне также слова могут выступать в переносном значении. Например, *You are my end and my beginning*. Также можно привести пример из художественной литературы, из известной работы «*An unfinished story*» by O. Henry.

«Piggy needs but a word. When the girls named him, an undeserving stigma was cast upon the noble family of swine.» [8]

В этом примере оксюморон функционируют одновременно с метафорой.

Рассмотрев толкования разных авторов об оксюмороне, ясно, что основной функцией оксюморона является индивидуальное эмоциональное отношение автора к определенному явлению. Этот стилистический приём предпочитался и предпочитается многими известными авторами в

художественной литературе, так как он как никакой другой приём может придать индивидуальный и оригинальный окрас словам.

Литература:

1. Атаева, Е. А. Лингвистическая природа и стилистические функции оксюморона. Дис.... канд. филол. наук. – М 1.
2. Ахманова, О.С. Словарь лингвистических терминов. - М.: Сов.энциклопедия, 1966.-607 с.
3. Гальперин, И. Р. Очерки по стилистике английского языка. – М.: Москва«, 1958 143-147 с.
4. Голуб, И.Стилистика русского языка. – М.: Просвещение, 1991.-543 с.
- 5.Розенталь, Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. – М.: Просвещение, 1985.-399 с.
6. Тимофеев, Л.И. Словарь литературоведческих терминов// Л.И. Тимофеев, С.В. Тураев. – М.: Просвещение, 1974.
7. Tennyson, A.V. Elaine of Astolat . Vulgate Cycle. 1920.
8. Henry, O. An unfinished story. The four million. 1906.

ERKIN VOHIDOVNING BADIY MAHORATI

O‘rinboyeva Nazokat Zuxriddin qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti 3- bosqich talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada " O‘zbekiston xalq shoiri" , " O‘zbekiston Qahramoni" , butun umrini ijodga baxshida etdi, takrorlanmas san`at asarlari bilan o‘zbek adabiyotiga o‘zining tengsiz hissasini qo‘shgan so‘z bilimdoni Erkin Vohidovning ijod mahsuli, so‘z qo‘llashda badiiylik va samimiylik xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: xalq shoiri, adib, adabiyotshunos, nazm, tarjima, tanqid, milliy ruh, badiiy mahorat.

Erkin Vohidov she‘rlarini o‘qir ekanmiz, shoirning xalqimiz tarixi, o‘tmishimiz, adabiyotimiz, Sharq she‘riyati, mumtoz adabiyotimiz, uning vakillariga bo‘lgan munosabatning o‘ziga xos qirralarini anglaymiz.

Har bir shoir o‘z ijodiga nisbatan o‘ta talabchanlik bilan yondashsa uning ijodiy merosi boqiylicha qoladi. Shoirlikni mehnat deb, qismat deb, non-tuz ichgan el-yurtning, kindik qoni tomgan tuprog‘ining sha‘nini yuksaltirish deb bilsagina xalq qalbidan mangu qo‘nib topadi. Vatan haqida yozmagan birorta ham shoir bo‘lmasa kerak. Lekin Erkin Vohidovning bu mavzudagi yozganlari zamondoshlari nazmini takrorlamaydi. Mana bu misralar ham fikrimizni tasdiqlaydi:

Qutlug‘ istiqlol kunida

Ey Vatan, bag‘ringda shod,

Erkin o‘g‘loning bo‘lib

Yurmoqni istadir ko‘ngil.

Chindan ham har bir inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan tuprog‘ida hurlikda, erkinlikda farovon hayot kechirishni xohlaydi.

She'ning egasi shoir. Lekin uni zamon saralaydi. Zamon o'ziga xaloskor bo'lguchi so'zni saralab oladi. Zamon daryosi qaydan ochib kelayotganligi va qayga oqib ketayotganligini bilish g'oyatda mushkul. Biz Erkin Vohidov she'rlarida aks etgan zamon daryosiga sho'ng'iyimiz va undan...tozarib...yasharib...masarratga to'lib chiqamiz,- deydi atoqli tarjimon, adib va tanqidchi Ibrohim G'afurov Erkin Vohidovning ijodi xususida.

Adabiyot ma'lum bir millatning milliy ruhini ko'tarishga xizmat qiladi. Aslida ham adabiyot umuminsoniyatga daxldor bo'lsa-da, aksar hollarda milliy ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ona xalqqa muhabbat, millat ruhi, erkinlik, hurlik tuyg'ulari Erkin Vohidov ijodida yetakchi mavzuni qamrab oladi.

"Shoir bo'lishdan oldi, avvalo, shu xalqqa farzand bo'laylik, sadoqatli, fidoyi o'g'lon bo'laylik. Agar shoir bo'lsak uning yuziga qaraganda uyalmaydigan shoir bo'laylik... Xalqimiz jasoratli, matonatli, zukko xalq, navoiyxon, bedilxon xalq. U oltin bilan misning, olmos bilan shishaning farqini yaxshi biladi. Ana shu halol, qo'li qadoq, aqli teran xalqimiz oldida halol bo'laylik" degan so'zlarida haqiqat ufurib turibdi.

Vaqt odimlagani singari Erkin Vohidov ijodi ham jadal sur'atlar bilan kamolot cho'qqisiga ko'tarildi va ustoz adabiyotshunos Umarali Normatov lutf qilganlaridek, shoir qalamiga mansub har bir so'z, har bir satr chindan ham " Ko'ngillarga ko'chgan she'riyat" ga aylandi.

Erkin Vohidov har doim ijodining boshlanishida aytgan:

Xalq – ustozim, men esa – tolib,

So'z durlarin termoqdir ishim.

Odamlarning o'zidan olib,

Odamlarga bermoqdir ishim,

degan jummalarni o'ziga qoida bilib ijod qildi. Buning natijasi o'laroq, u chinakam xalq shoiri sifatida tan olindi.

Erkin Vohidovning badiiy mahoratida boshqa shoir va yozuvchilardan farq qilib ajralib turadigan yorqin qirralaridan bir ham tildagi o‘ziga xoslikdir. Vohidov o‘z she’rlarini yozish bilan bir qatorda taniqli xorij ijodkorlari, jumladan, Aleksandr Tvardovskiy, Johann Wolfgang von Goethe, Muhammad Iqbol, Rasul Hamzatov hamda Sergey Yesenin asarlarini yuksak mahorat bilan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Ayniqsa, shoirning Yesenen asarlaridan hamda Goethening „Faust“ asarini qilgan tarjimalari e’tiborga loyiqdir.

Zamon o‘zgaradi, insonlar o‘zgaradi, yangidan yangi ijodkorlarning ijod mahsullari yuzaga keladi. Ammo, shunday umrboqiy asarlar borki unda kuylangan insoniylik tuyg‘usi vaqt, hudud, inson tanlamaydi. Birgina isbot, 2020-yilning oktabrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilganligining 75 yilligi munosabati bilan Vohidovning „Inson“ she’ri asosida yozilgan „Human“ (Inson) ashulasi arab, ingliz, italyan, qozoq, rus, tojik, turk va o‘zbek tillarida taqdim etilgani e’tiborga molik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek adiblari. Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2016
2. R. Inog‘omov; I. G‘afurov. "Vohidov, Erkin". -O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, Toshkent
3. U.Normatov. Ijod sehri. - Toshkent: Sharq, 2007

RAQAMLI TEXNOLOGIYALI TA'LIM TIZIMIDA MULTIMEDIALI ELEKTRON RESURLARINI YARATISHNING AHAMIYATI

Jo'rayeva Aziza Akramovna – o'qituvchi, "Informatika" kafedrası, Navoiy davlat pedagogika instituti

Nasirova Shaira Narmurodovna – texnika fanlar doktori, dotsent, "Informatika" kafedrası, Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada raqamli texnologiyali ta'lim tizimida multimedial elektron o'quv resurslarini yaratishning ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: axborotlashtirish, texnologiya, ta'lim, tizim, interfaol, taqdimot, raqamli, jarayon.

Axborot texnologiyalarining ilm-fan, ta'lim, ishlab chiqarish sohalariga kirib borishi har bir fuqaro uchun ma'lumot manbaalariga keng yo'l ochib, ularga xizmat ko'rsatishning yuqori darajasini talab qiladi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga kirib kelishi yangicha muloqot muhitini yaratib berayotganligi YUNESKO tashkiloti tomonidan e'tirof etilgan bo'lib, bu jarayonda o'quvchidan nafaqat raqamli texnologiyalar bilan ishlash malakasi, "Simple abilities" - ma'lumot qidirish va axborotlarni yaxlit idrok etish, axborotlar mohiyatini ijobiy va tanqidiy tarzda baholash, jamoaviy ishlash hamda ijodiy, mantiqiy fikrlash kabi qobiliyatlarni egallash talab etiladi[1].

Zamonaviy ta'lim tizimining asosini yuqori sifatli va raqamli texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo

bunday muhit ta'lim tizimini takomillashtirishga, ta'limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. O'qitish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari, multimediali elektron resurslar va didaktik modellarni rivojlantirish hamda ulardan samarali foydalanish orqali ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish, shu bilan birga kompyuter, noutbuk, planshet, tablet, smartfon va boshqa istalgan oxirgi qurilmalardan foydalangan holda, istalgan vaqtda va istalgan joydan turib istalgan o'qituvchidan har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashdan iborat.

Multimedia texnologiyasi axborotni bir vaqtning o'zida insonga tushunarli, ko'p shakllar kombinatsiyasida havola qila oladi. Bu texnologiya axborotni qidirish, nusxa olish va boshqa biror kompyuterga ko'rsatilgan shaklda, ko'chirib o'tkaza oladi hamda ularning hohlagan kombinatsiyasini yarata oladi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, quyidagi mavzular bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- ✓ ma'ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog'liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish, taqdimot tizimlaridan foydalanish;
- ✓ real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, video-konferensaloqa tizimlari, virtual zallardan foydalanib masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish;
- ✓ bulutli texnologiyalardan, virtual voqelikdan, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish, hamda raqamli didaktika, raqamli ta'lim modellarini didaktik materiallar, tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo'llash;
- ✓ o'qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-sayt ishlab chiqish.

Multimediali dasturlar ma'lumotlarni bir necha ko'rinishda ifodalash imkoniyatiga ega bo'lgani uchun, ta'lim jarayonini yanada samaraliroq tashkil etsa bo'ladi. mumkin. Mashg'ulotlarda multimediali texnologiyalardan foydalanganda

darslarning strukturasi deyarli o'zgaraydi, ya'ni dars uchun rejalash-tirilgan bosqichlar saqlanadi, faqat ularning vaqt xarakteristikalari o'zgaradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu holda motivlashtirish kuchayadi va bilishga yo'naltiriladi. Bu esa ta'lim samarasini oshiradi, chunki o'quvchilarning ijodiy faoliyatini yetmay turgan bilim zaxiralarini to'ldirishga qiziqishmaslik, tasavvur qila olmaslik va hissiy bilishga urinmaslik orqali tashkil qilishning amaliy jihatdan iloji yo'q.

Multimedia prezentatsiyalarining gipermurojaatlar orqali tashkil qilinishi tizimli va analitik mulohaza yuritishni rivojlantiradi. Bundan tashqari, prezentatsiyalar yordamida bilish faoliyatini turli ko'rinishlarda tashkil qilish mumkin. Kompyuter-axborot texnologiyalari modelidan foydalanish masalasi o'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, dars jarayonida namoyish qilinishi kerak bo'lgan obyektning ichki, tashqi xossalarini ko'rsata olishdek muhim vazifani amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa, axborot- texnologiyalar asosida multimediali elektron darsliklar yaratish mumkin ekanligini ko'rsatadi. Axborot texnologiyalarining multimedia vositalari o'quv jarayonida differensial va individual o'qitish jarayonini tashkil etilishi, o'quv jarayonini baholash, teskari aloqa bog'lashi, o'zini o'zi nazorat qilish va tuzatib borishi, o'rganilayotgan fanlarni namoyish etishi va ularning dinamik jarayonini ko'rsatishi, fan mavzularida animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishi, o'quvchilarga fanni o'zlashtirish uchun muhim ko'nikmalar hosil qilishi kabi eng muhim jihatlari bilan alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, multimedia vositalarining amaliy tomoni, ulardan o'quv jarayonida foydalanish va kelgusida ta'lim tizimida o'quv jarayoni uchun ma'lumotlar bazasini va animatsion taqdimotlar yaratishdek muhim vazifani amalga oshirishga zamin hozirlaydi.

Multimedia vositalari asosida o'qitish jarayonida aniq fanni kompyuter asosida to'liq o'qitish, ma'ruza matnlarini taxrirlash, talabalar topshirgan nazorat natijalarining taxlili asosida ma'ruza matnlarini bayon qilish uslubini yaxshilash, o'quvchi-talabalar

axborot texnologiyalarini multimedia vositalari asosida animatsiya elementlarini dars jarayonida ko‘rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Ministerial forum global dialogue on ict and education innovation – towards sustainable development goal for education proceedings. 18–19 april 2018 • Moscow • Russian federation. <http://ru.ite.unesco.org/publications>.

2. Nasirova Sh. N., Maxmudova M.A. The importance of electronic education resources in the effectiveness of the lesson Electronic journal of actual problems of modern science, education and training December 2019-V ISSN 2181-9750, Urganch, № 5, 2019. – S.1-8.

СУИЦИД МУАММОСИНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Элов Зиёдулло Сатторович

Бухоро Давлат университети, Психология кафедраси ўқитувчиси, психология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: Мақолада шахсда кечадиган рухий бузилишлар натижасида содир бўлиши мумкин бўлган суицид ҳолати ҳақида фикр юритилади. Шунингдек суицид ҳолатларининг таҳлиллари кўрсатилган.

Калит сўзлар: Социал статус, қасд қилиш, суиқасд, касбий муваффақиятсизлик, сати, аутоагрессия, Вертер қонуни

Суицид (лот. *sui caedere* – ўзини ўлдириш) – мақсадли равишда ўзини ҳаётдан маҳрум қилиш, одатда, ихтиёрий ва мустақил равишда ўз жонига қасд қилиш. Ўз жонига қасд қилиш ҳолатларига нисбатан жамият тараққиётининг турли давларида ва турли маданиятларда ўзгача муносабат бўлганлиги кузатилади. Булар:

- қасд қилиш маросими (ритуали);
- ор-номус учун диний (қурбонлик);
- жуфтлар орасидаги садоқатни исботлаш;
- яқин кишисини йўқотиш;
- одатий социал статусни йўқотиш;
- касбий муваффақиятсизлик;
- касалликларга хос эмоцияларга чидамсизлик ва бошқа сабаблар.

Суицидга мукамал таърифни француз социологи Эмиль Дюркгейм берган. Унинг талқини бўйича, шахс томонидан ўзини кутаётган натижа ҳақида била туриб, содир қилинган салбий хатти-ҳаракатнинг бевосита ёки билвосита натижаси бўлмиш ҳар бир ўлим ҳолати ўз жонига қасд қилишдир. Эмиль

Дюркгеймнинг 1897 йилда нашр этилган “Суиқасд” асари суицидга оид адабиётнинг классик намунасидир. Ушбу асарда олим мавжуд статистик маълумотларга таяниб суиқасд нафақат психологик муаммо, балки ижтимоий илдизга эга хатар эканлигини исботлаган.

Ўз жонига қасд қилишни биринчи бўлиб: IV асрда авлиё Августин қоралаб чиқди. У суицидни диний таълимотни бузувчи қотиллик шакли деб ҳисоблайди. Авлиё Августин жамиятнинг суицид ҳолатига нисбатан жиноят сифатида қарашини оқлаган ҳолда тўрт далил, яъни асосни келтириб ўтган:

-инсон айбдор инсон ҳуқуқига эга эмас (айби бўлмаган ҳолда айбдордек ўлиши мумкин эмас);

-ўз жонига қасдқилувчи ўз жонини олар экан, у инсонни ўлдиради;

- софдил рух барча азоб-уқубатларни енгиб ўтади;

- ўз жонига қасд қилган, гуноҳкорларнинг энг ёмони сифатида ўлади.

Суицидал хулқ-атвор умуминсоний реакцияларнинг бир кўриниши, варианти сифатида суицидал фаолликнинг барча кўринишлари, индивиднинг шахсий ҳаракатлари асосидаги эҳтимолий ўлимнинг барча вариантларига муносабатини қамраб олиб, уларга қуйидагилар тегишлидир

- суицидал фикрлар (пассив - тасаввур, ўз ўлими мавзусидаги хаёлот (фантазия), фаол – кўнгилли тарздаги ўлим ҳақида тўғридан-тўғри эътироф);

- суицидал ният – суицидаллик намоён бўлишининг фаол шакли, яъни ўз жонига қасд қилиш тенденцияси, унинг чуқурлашуви уни амалга ошириш режасининг ишлаб чиқилганлик даражасига мувофиқ намоён бўлиб, суицид усули, ҳаракат вақти ва жойи ўйлаб кўрилади;

- суицидал мақсадлар – иродавий компонентнинг қарорига эргашиш;

- суицидал уринишлар – ўлим билан яқунланмаган ўзини мақсадли равишда ҳаётдан жудо қилишга ҳаракат;

- суицидлар (кўргазмали, аффектив ва ҳақиқий).

Суицид содир этилган ҳудудда “Вертер қонуни” миш-мишлар асосида ривожланиб, суиқасднинг қайталанишига замин яратади. “Вертер қонунига” (“Менга тақлид қил” қонуни) барча девиант, деструктив хулқ-атвор бўйсунди. Шунинг учун суиқасд содир этилган ҳудудда зудлик билан профилактик чора-тадбирлар ташкил этилиб, аҳоли ўртасида (вояга етмаганлар бундан истисно) тушунтириш ишларини олиб бориш, суициднинг психофизиологик механизмларини ёритиб бериш даркор. Ана шу чора-тадбирлар орқали миш-мишнинг тарқалишини олдини олишга, демак суиқасднинг камайишига замин яратишимиз мумкин.

Адабиётлар:

1. Амбрумова А.Г. индивидуально-психологические аспекты суицидального поведения.
2. Фрейд З. Мы и смерть // Рязанцев С. Танатология (учение о смерти). СПб.: Восточно-Европейский институт психоанализа, 1994. С. 5-42.; *Freud S. Mourning and melancholia* // Hogarth Press, London – 1957].
3. Ибодуллаев З. Асаб ва руҳият. 4-нашр. Тошкент 2019 й.
4. Эргашев И.Р. Психология профессионального общения с участниками предварительного следствия: Автореф. дис. канд. псих. наук. – Т, 2001.

МИЛЛИЙ МАДАНИЯТИМИЗДА ЎЗБЕК НИКОҲ ТҶИИ

Остонова Санам Нематовна

Бухоро давлат тиббиёт институти англиз тили кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада ўзбек маросим фольклорини муайян ҳудудлар материаллари асосида ўрганиш, халқ оғзаки ижоди жанрларининг мукамал таснифини яратиш ва уни номоддий маданий меросни сифатида сақлаш, ўрганиш, тарғиб этиш ҳамда ундан фойдаланиш зарурияти ёритиб берилган. Шу муносабат билан адабий матн мазмунини унинг "маданий" компонентларига алоҳида эътибор билан узатиш муаммолари тадқиқ этилади.

Калит сўзлар: маданият, этно-маданий жиҳатлар, анъаналар, таржима, мулоқот, лингвокултурал жиҳатлар.

Ҳозирги замон жаҳон фольклоршунослигида ҳар бир халқнинг миллий ўзлигини англатадиган маросим фольклори ва бу фольклор жанрлар таркибининг ўзига хос жиҳатлари, тарихий-генетик асослари, тарихий тадрижий ривож, номоддий маданий мерос тизимидаги ўрни, маросим кўшиқларининг структурал-семантик хусусиятлари ҳамда бадииятини тадқиқ этиш долзарб илмий йўналишлардан бирига айланди.

Мамлакатимизда бугунги кунда миллий менталитетимизни белгилайдиган маънавий қадриятлар, жумладан, маросим фольклори материалларини барча ҳудудлар бўйича тўплаш ва тадқиқ этиш фольклоршуносликнинг устувор тамойилларидан бири бўлиб қолди.

Ўзбек тўй маросим фольклори таркибида никоҳ тўйи алоҳида тизим сифатида муҳим ўрин эгаллайди ва уларда ижро этилувчи фольклор намуналари ранг-баранглиги билан ажралиб туради. Айни пайтда, никоҳ маросимлари ва фольклори ҳар бир ҳудудда маълум локал хусусиятларга эга. Шу боис, Ўрта

Зарафшон воҳаси никоҳ тўйи маросим фольклори манбаларини тўплаш, мавжуд жанрларни аниқлаш, уларнинг маросим тизимидаги вазифаси ва бадиий-эстетик қимматини ўрганиш фольклор жанрларининг тарихий тараққиёти ва бадииятига доир янги назарий хулосалар чиқаришга асос бўлиши билан долзарблик касб этади.

